

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI
AKADEMIYASI**



**“Korrupsiyaga qarshi kurash” yo‘nalishi tinglovchisi
KOMILJONOVA DILOBAR KOMILJON QIZINING**

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARIGA NISBATAN
O‘RNATILGAN KORRUPSIYAGA QARSHI CHEKLOV VA
TAQIQLAR:**

**QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL
mavzusidagi**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA ISHI

Ilmiy rahbar: E.T.Xojiev (y.f.n. prof)

Ilmiy maslahatchi: A.Odinaev (PhD)

TOSHKENT – 2022

Mundarija

Kirish	4-13
1-BOB. DAVLAT FUQAROLIK XIZMATLARIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISHNING UMUMIY TAVSIFI:.....	14-33
1.1-§.Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida korrupsiyaning oldini olish tushunchasi va huquqiy asoslari.....	14-24
1.2-§.Davlat fuqarolik xizmatlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning ko'rinishlari tavsifi.....	25-33
2-BOB. DAVLAT XIZMATLARIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISHDA QO'LLANILADIGAN CHORALAR:.....	34-53
2.1-§. Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan cheklovlar...	34-45
2.2-§.Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiqlar.....	46-55
3-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XIZMATLARIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH:.....	56-79
3.1-§. Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga oid xalqaro standartlar va xorijiy tajriba.....	56-73
3.2-§. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatchilari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishda qo'llaniladigan chora-tadbirlarni takomillashtirish masalalari.....	74-82
Xulosa.....	83-91
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	92-100
Ilovalar.....	101-132

Annotatsiya. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida so'nggi yillarda davlat xizmatlari sohasida amalga oshirilgan tashkiliy-huquqiy masalalarga va normativ-huquqiy hujjatlarga oid islohotlar, davlat xizmatlarining klassifikatsiyasi, davlat xizmatlarida uchaydigan korrupsiyaning turli xil ko'rinishlari, davlat fuqarolik xizmati tushunchasi, uning boshqa turdagi davlat xizmatlaridan farqi, davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlar, ularning ustidan nazorat qilish tartibi va javobgarlik masalalari, Xalqaro tashkilotlarning davlat xizmatlari sohasida O'zbekistonga bergan tavsiyalari, xorijiy mamlakatlarning davlat xizmatlariga oid ilg'or tajribalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация. В данной магистерской диссертации рассматриваются организационно-правовые вопросы и реформы в сфере государственной службы за последние годы, классификация государственной службы, различные формы коррупции на государственной службе, понятие государственной гражданской службы, ее отличия от других видов государственной службы, информация о запретах и ограничениях, налагаемых на государственных гражданских служащих, порядке контроля и ответственности, рекомендации международных организаций Узбекистану в сфере государственной службы, передовой опыт зарубежных стран в сфере государственной службы.

Abstract. This master's thesis examines organizational and legal issues and reforms in the public service in recent years, the classification of the public service, various forms of corruption in the public service, the concept of civil service, its differences from other types of public services, information on prohibitions and restrictions imposed on civil servants, the procedure for control and responsibility, recommendations of international organizations to Uzbekistan in the field of civil service, best practices of foreign countries in the field of civil service.

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati samaradorligini yanada oshirish, ularning faoliyatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga xizmat qiladigan barqaror mexanizmni shakllantirish bo'yicha jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish va sohaga oid ilg'or xalqaro standartlarni joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qonunchilikka qator yangi mexanizm va normalarni kiritish bo'yicha bir qator takliflar ilgari surilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zlarining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 3-oktabrda qabul qilingan PF-5843-sonli farmonida davlat fuqarolik xizmati sohasida bir qancha hal etilmagan muammolar mavjud ekanligini ta'kidlab o'tgan edilar. Unga ko'ra: Davlat fuqarolik xizmatini, shu jumladan nomzodlarni ochiq mustaqil tanlov orqali saralab olish jarayonini kompleks huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish samaradorligi va kompetensiyasini baholovchi mezonlarni, ularning malakasini oshirishga bo'lgan talablarni belgilovchi to'g'ridan to'g'ri ta'sir kuchiga ega qonun mavjud emas. Shu bilan bir qatorda, davlat fuqarolik xizmati masalalari bo'yicha vakolatli organning mavjud emasligi davlat organlari va tashkilotlarida yagona kadrlar siyosatini olib borishga, malakali kadrlar zaxirasini raqobat asosida shakllantirishga hamda ular tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilarining vakant lavozimlari o'z vaqtida egallanishiga yo'l qo'ymayapti.¹ Ushbu muammolardan kelib chiqib, farmon asosida davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini boshqarish va inson resurslarini rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 03.10.2019-yil PF-5843-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4549998>

Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish Agentligi tashkil etildi. Agentlikda vacancy.argos.uz sayti tashkil etilib, kadrlar ochiq tanlov asosida qabul qilinadi. Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, bugunga qadar ochiq tanlov asosida 34.245 nafar fuqaro davlat xizmatlarida ishga qabul qilingan. Bundan tashqari, Davlat xizmatini rivojlantirish Agentligiga "Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini" ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. "Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi"da bir qator hal etilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar belgilanib, xususan, davlat fuqarolik xizmatlarida korrupsiyaga qarshi madaniyatni, korrupsiyaga toqat qilib bo'lmaydigan munosabatni shakllantirish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida o'rnatilgan edi. Bundan tashqari, "Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiya" loyihasida davlat organlari va tashkilotlarining vazifa va funksiyalarini samaradorlikka yo'naltirish, davlat fuqarolik xizmatchilar bilan ishlash, ularni xizmat pog'onalarida o'stirish va doimiy malakasini oshirib borishning samarali va shaffof mexanizmlarini joriy etish hamda xizmatchilarning korrupsiyaga toqatsiz munosabatini shakllantirishga oid o'rta va uzoq muddatli choralarni amalga oshirish belgilangandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli Farmon asosida qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da 100 ta maqsad belgilangan bo'lib, 10-maqsad aynan "Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish"ga, 83-maqsad esa "Davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish" kabi masalalarga bag'ishlanadi.² Taraqqiyot Strategiyasi 10-maqsadidan kelib chiqib, parlamentga "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun loyihasini hamda davlat organlarida korrupsiya holatlari va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida Davlat xizmatchilarining Odob-axloq kodeksini ishlab chiqish, unda davlat

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-Ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

xizmatchilari uchun cheklov va taqiqlarning aniq ro'yxatini shakllantirish vazifasi yuklatilgan edi. Shu bilan bir qatorda, yaqin orada "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi, "Davlat xizmatchilarining daromadlari, mol-mulki va manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish to'g'risida"gi qonun loyihalarini ishlab chiqish kutilmoqda.

So'nggi yillarda davlat fuqarolik xizmatlari sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish muhim masalaga aylanib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga yuzlanadigan bo'lsak, davlat xizmatlarida korrupsiyaga qarshi ayovsiz kurashish qanchalik dolzarb ekanini tushunib olish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining **2020-yil yakunlari** bo'yicha "Korrupsiyaviy jinoyatlarning Jinoyat kodeksi moddolari kesimidagi tahlili" e'lon qilingan edi. Unda korrupsiyaviy jinoyatlarning turlariga qarab: **205-modda** (hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish) bo'yicha **184 nafar** shaxsga nisbatan **83 ta** jinoyat ishi; **206-modda** (hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish) bo'yicha **31 nafar** shaxsga nisbatan **22 ta** jinoyat ishi; **207-modda** (mansabga sovuqqonlik bilan qarash) bo'yicha **118 nafar** shaxsga nisbatan **74 ta** jinoyat ishi; **208-modda** (hokimiyat harakatsizligi) bo'yicha **36 nafar** shaxsga nisbatan **13 ta** jinoyat ishi; **209-modda** (mansab soxtakorligi) bo'yicha **821 nafar** shaxsga nisbatan **412 ta** jinoyat ishi; **210-modda** (pora olish) bo'yicha **133 nafar** shaxsga nisbatan **99 ta** jinoyat ishi; **211-modda** (pora berish) bo'yicha **1056 nafar** shaxsga nisbatan **883 ta** jinoyat ishi; **212-modda** (pora olish-berishda vositachilik qilish) bo'yicha **26 nafar** shaxsga nisbatan **15 ta** jinoyat ishi; **213-modda** (davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish) bo'yicha **7 nafar** shaxsga nisbatan **1 ta** jinoyat ishi; **214-modda** (davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki moddiy manfaatdor bo'lishi) bo'yicha **30 nafar** shaxsga nisbatan **24 ta** jinoyat ishi; **243-modda** (jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish) bo'yicha **29 nafar**

shaxsga nisbatan **16 ta** jinoyat ishi qo'zg'atilgan.³ Davlat budjetiga shu yili jami korrupsiyaviy jinoyatlar natijasida **500 mlrd 102 mln so'm** zarar yetkazilgan.

So'nggi **ikki yilda** noqonuniy xatti-harakati bilan davlatga **2 trillion so'm** zarar yetkazgan jami **1986 nafar** mansabdor shaxs korrupsiyaga oid jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilganligi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi.⁴ Davlat fuqarolik xizmatchilarini korrupsiyaviy jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortib, jinoiy jazo tayinlashdan ko'ra ularning belgilangan taqiq va cheklovlarga rioya qilishini qat'iy nazorat qilib, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlari keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavfli oqibatlarining oldini olish korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali usuli hisoblanadi.

Mustaqillikka erishganimizdan to 2016-yilga qadar bo'lgan davrda O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati, dastlab, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro shartnomalarga qo'shilish, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishdan iborat edi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 7-iyuldagi O'RQ-158-sonli Qonun bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini (2003-yil 31-oktabr)⁵ ratifikatsiyalagan, 2010-yilda esa Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Istanbul harakatlar rejasi dasturiga qo'shilgan edi. Hozirda esa O'zbekistonning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Yevropa Kengashining GRECO xalqaro tashkilotiga a'zo bo'lish masalasi ko'rib chiqilmoqda. Yaqin yillarda O'zbekistonning xalqaro reytinglarda tutgan o'rni muayyan darajada yaxshilanib bormoqda. Jumladan, xalqaro miqyosda 2021-yil yakunlariga ko'ra Global ma'lumotlar barometri reytingi (The Global Data Barometer - GDB) e'lon qilindi. Unda O'zbekiston 109 ta mamlakat orasida 32 ball to'plab, 58-o'rinni egalladi.⁶ Global Data

³ [http://eanticor.uz/;](http://eanticor.uz/)

⁴ <https://anticorruption.uz/uzc/item/2020/11/18/193;>

⁵ Ўзбекистон Республикасининг 2008-йил 7-июлдаги “Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши конвенциясига (Нью-Йорк, 2003-йил 31-октябрь) Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши тўғрисида”ги Қонуни // URL: <https://lex.uz/docs/1369505>.

⁶ [https://globaldatabarometer.org/;](https://globaldatabarometer.org/)

Barometer — dunyo bo‘ylab ochiq ma’lumotlar holatini baholashga qaratilgan reyting hisoblanib, 2016 yilda o‘z faoliyatini to‘xtatgan Open Data Barometer reytingining davomi hisoblanadi. GDB turli mintaqalarda faoliyat ko‘rsatayotgan 100 dan ortiq ekspertlar xuloslari asosida tuziladi va unda mamlakatlar tomonidan e’lon qilinayotgan ochiq ma’lumotlarning holati, taraqqiyotni jadallashtirishdagi o‘rni, hukumat, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor uchun ta’siri, siyosiy tuzilmalar va investorlar uchun qator muhim sohalardagi umumiy maqsadlarga erishish jarayonlarini kuzatish uchun xizmat qiladi. Global ma’lumotlar barometrining asosiy modullarida O‘zbekiston “Ochiq ma’lumotlar tashabbusi”ni o‘z ichiga olgan “Imkoniyatlar” modulida **80 ball; (8-o‘rin)**; mamlakatda ochiq ma’lumotlar siyosatini o‘z ichiga olgan “Boshqaruv” modulida **52 ball; (19-o‘rin)**ni olgan.⁷

Shu o‘rinda aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6247-son Farmonida davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligi va shaffofligi ta’minlashga xizmat qiluvchi qator chora-tadbirlar belgilandi. Xususan, Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlik darajasini yanada oshirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”si va belgilangan muddatlarda majburiy e’lon qilib borish lozim bo‘lgan 33 turdagi ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxati tasdiqlandi. Ushbu tartibga ko‘ra, mas’ullar o‘z faoliyatlariga taalluqli ma’lumotlarni Ochiq ma’lumotlar portali (data.egov.uz) hamda o‘z rasmiy veb-sahifalarida tashkil etilgan “Ochiq ma’lumotlar” sahifalarida joylashtirib bormoqda. O‘z navbatida, Farmon bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi zimmasiga davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish vazifasi yuklatilgan.⁸

Tadqiqot obyekti. Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan korrupsiyaning oldini olishda qo‘llaniladigan taqiq va cheklovlarni joriy etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar

⁷ <https://globaldatabarometer.org/>;

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyunda qabul qilingan “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son Farmoni.

tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. Davlat fuqarolik xizmatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga xizmat qiladigan taqiq va cheklovlarning huquqiy asoslari, ularga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, nazariya va amaliyotdagi mavjud muammolar, xalqaro standartlardagi qoidalar, tavsiyalar, xorijiy davlatlar qonunchiligi va ilg'or tajribasi, konstitutsiyaviy va ma'muriy huquqdagi ilmiy-nazariy qarashlar, yuridik adabiyotlardagi g'oyalar, fikrlar hamda konseptual yondashuvlardan iborat.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi davlat fuqarolik xizmatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan preventiv choralar sifatida o'rnatiladigan, universal va zamon talabidan kelib chiqqan holda taqiq va cheklovlarning umumiy, yaxlit ro'yxatini shakllantirishga hissa qo'shish, ular ustidan monitoring o'rnatish va javobgarlik belgilash hamda bu boradagi qonunchilikka oid taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Yuqorida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaning oldini olish tushunchasi, yuridik mohiyati hamda huquqiy asoslarini tahlil qilish;
- Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlarning korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishdagi muhim ahamiyatini ochib berish hamda ularning har birini ilmiy-nazariy jihatdan tavsiflab berish;
- Davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha milliy qonunchilikda mavjud kamchilik va huquqiy bo'shliqlarni aniqlash, ularni huquqiy jihatdan bartaraf etishga oid takliflar berish;
- Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatiladigan taqiq va cheklovlarga, shu bilan birga, odob-axloq qoidalariga amal qilinishi yuzasidan mavjud amaliyotni o'rganish;

- Xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy mamlakatlarda davlat fuqarolik xizmatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha ijobiy tajribalarni o'rganish;
- Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatiladigan taqiq va cheklov masalalarida yuzaga keladigan muammolarni o'rganish, tahlil qilish va ularni normativ-huquqiy hujjatlar yordamida tartibga solish hamda huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilashga xizmat qiladigan takliflar ishlab chiqish.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, mazkur tadqiqot ishida korrupsiyaning oldini olishda davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatiladigan taqiq va cheklovlar, ularning ahamiyati darajasini tavsiflaydigan, kelgusida taqiq va cheklovlarning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish istiqbollari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etadigan, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladigan xalqaro standartlardagi qoidalar va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasiga asoslangan dastlabki tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, ilgari ham davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvini, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilgan, biroq ularning o'rganiladigan obyekt chegarasi kengroq bo'lganligi bois davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatiladigan taqiq va cheklovlar obyekt ko'lamining kichikroq qismini tashkil etgan, xolos. Biroq mazkur tadqiqot obyekti aynan taqiq va cheklovlarning o'ziga, tashkiliy-huquqiy mexanizmlariga, javobgarlik masalalariga bag'ishlangani bois ularga chuqur yondashilgan holda tadqiqot ishi amalga oshirilgan.

Tadqiqot ishida davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatiladigan taqiq va cheklovlarga oid korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xalqaro standartlarda aks etgan normalar hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatiladigan taqiq va cheklovlarning yangi turlari, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish istiqbollari, taqiq va cheklovlarga amal qilinishini monitoring qilish, nazorat o'rnatish hamda javobgarlik masalalari o'rganiladi. Chunki, amaldagi

qonunchilikda taqiq va cheklovlarning turli tarmoq hujjatlarida ko'rsatilgani, aksari davlat tashkilotlarida ularga amal qilinishi yuzasidan monitoring o'rnatilmaganligi, taqiq va cheklovlarga rioya qilinmagan taqdirda javobgarlik o'rnatadigan huquqiy mexanizmning mavjud emasligi sabab qonunlar ijrosi ta'minlanmayapti.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda tadqiqot obyekti bevosita davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlarga oid ilmiy ishlar hozirga qadar amalga oshirilmagan, biroq davlat fuqarolik xizmati bo'yicha, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlariga oid, davlat sektorida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha obyekt ko'lami ancha keng qamrovli bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, davlat boshqaruv organlarida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ilmiy-nazariy fikr va g'oyalar Yakubov Sh., Nematov J., Salaev N., Rustambaev M., Hakimov R. kabi milliy olimlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Shuningdek, davlat boshqaruv organlarida bevosita korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan tadqiqot ishlari Xojiev E., Ismoilov B., Mirboboev B. kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Xorijiy mamlakatlar miqyosida davlat fuqarolik xizmatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan taqiq va cheklovlarga oid keng doiradagi tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, Atagimova E.I., Rostovtseva Y.V., Alekseyevna K.N., Shilkin A.M., Markin A.A., Filippov V.V., Kozlov V.V., Nozdrachev A.F., Petrasheva N.V., Shvetova K.G., Malko A.V., Kurbanov R.D., Gusev A.V.⁹ kabilar, bundan tashqari, Dawson M., Richard A., Hellman J.S., Graycar A.¹⁰ va boshqa olimlar tomonidan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Magistrlik ishini tayyorlashda Maxmudov F.B.ning "Davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari", Ismoilov B.I.ning "Совершенство

⁹ Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan;

¹⁰ Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

прокурорского надзора за исполнением законодательства в области противодействия коррупции” (Korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlariga rioya qilinishi ustidan Prokuror nazoratini takomillashtirish) yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan tadqiqot ishlaridan, Tkachenko K.I., Khlyntsev V.N.ning “Corruption component of the conflict of interests in the civil service” tadqiqot ishidan (master research) keng foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** shundaki, tadqiqot so'nggidagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusida ilmiy faoliyatda, jumladan, o'quv metodik qo'llanmalar, monografiyalar, darsliklar hamda ilmiy maqolalar yaratishda foydalaniladi. Aytish joizki, davlat fuqarolik xizmati, korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi kabi tushunchalar milliy qonunchlikka kirib kelganiga hali ko'p bo'lmadi, shu bois, davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashishda qo'llaniladigan preventiv choralarga bag'ishlangan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar deyarli ishlab chiqilgani yo'q, bu mavzuga oid kam sonli milliy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, shu sababli, mamlakatimizda bevosita davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaning oldini olishga bag'ishlangan ilmiy-nazariy manbalar taqchil bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatlarida uchraydigan korrupsiyaning turli shakldagi ko'rinishlariga oid yuridik terminlar, ularning huquqiy va ilmiy-nazariy ta'riflari milliy adabiyotlarda mavjud emas, korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklov tushunchalari ham ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinmagan, bu ikki tushuncha o'rtasidagi farq, ularning huquqiy sharhi, tasniflanishi haqida darsliklarda, yuridik adabiyotlarda ma'lumotlar mavjud emas. Shu bois, ushbu tadqiqot ishida davlat fuqarolik xizmati, korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlar, ularning tasniflanishi, davlat fuqarolik xizmatlarida uchraydigan korrupsiyaning ko'rinishlariga oid ilmiy-nazariy qoidalar, xorijiy va milliy olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, mustaqil qarashlar shakllantirilgan.

Shuningdek, tadqiqotning **amaliy ahamiyati** shundaki, mazkur tadqiqot

ishi davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga xizmat qiladigan normativ-huquqiy hujjatlarga va "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun loyihasiga yangi taklif va tavsiyalar asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, huquqni qo'llash amaliyotida mavjud muammolarni, milliy qonunchilikdagi huquqiy probelni (bo'shliqlarni) ilmiy asoslangan takliflar asosida to'ldirish hamda konstitusiyaviy, ma'muriy-huquq fan sohalarini yangi konseptual qarashlar bilan boyitish imkoniyatini beradi. Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatiladigan taqiq va cheklovlar turli lokal hujjatlarda tarqoq holda belgilangan bo'lib, huquqni qo'llash amaliyotida qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda, natijada ularning ijrosi ta'minlanmay qolmoqda. Tadqiqot ishi so'nggida taqiq va cheklovlarning nisbatan tugal ro'yxati shakllantirilgan, ularga rioya qilinishi ustidan muntazam nazoratni amalga oshiruvchi tuzilmalar, javobgarlik choralari hamda ularni qo'llash mexanizmlari kabi tashkiliy-huquqiy hamda normativ-huquqiy masalalarga oid amaliyotda mavjud muammolar analitik tahlil qilinib, ularga yechim sifatida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatiladigan taqiq va cheklovlar bo'yicha xorijiy qonunchilik va xalqaro standartlar qoidalarini qiyosiy tahlil qilish, qonun hujjatlarini sharhlash, statistik ma'lumotlar tahlili, huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish va aniq sotsiologik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish kabilar tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Dissertatsiya ishining tuzilmasi. Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, uchta bob, 6 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 betni tashkil etadi.

I BOB. DAVLAT FUQAROLIK XIZMATLARIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLIISHNING UMUMIY TAVSIFI

1.1-§. Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida korrupsiyaning oldini olish tushunchasi va huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga "korrupsiya", "manfaatlar to'qnashuvi" kabi tushunchalarning kirib kelganiga hali uncha ko'p vaqt o'tmadi. Shu sababdan, mazkur mazvularga atalgan ilmiy manbalar, darslik va o'quv qo'llanmalarini topishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda, biroq yildan yilga turli sohalarda, xususan, davlat va xususiy sektorlarda, sog'liqni saqlash tizimida, qurilish, oliy ta'lim, bank-moliya va boshqa sohalarda korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi, ularning ko'rinishlari hamda ularni oldini olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, magistrlik, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinmoqda. Umid qilamizki, yaqin kelajakda "korrupsiya", "manfaatlar to'qnashuvi"ga oid mavzularda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar hisobiga milliy olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy-nazariy manbalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, turli ilmiy maqolalar soni sezilarli darajada oshadi. Bevosita davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyani oldini olishning huquqiy asoslariga to'xtalishdan avval tadqiqot obyekti bo'lgan "davlat fuqarolik xizmati tushunchasiga" aniqlik kiritib o'tish maqsadga muvofiq.

Davlat xizmati tushunchasiga o'zbek olimlaridan E.T.Xojiev shunday ta'rif berganlar: Davlat xizmati deganda, davlat tashkilotlari organlari, birlashma, korxonalar, muassasalar xizmatchilarining davlat funksiyalari va vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan hamda haq to'lanadigan mehnat faoliyatini tushunish mumkin. Davlat xizmati tushunchasi keng ma'noda davlat organlari tomonidan boshqaruvning kadrlar funksiyasini amalga oshirish, davlat organlari apparatida doimiy yoki vaqtincha mansabni egallab turgan hamda davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanuvchi barcha shaxslarning faoliyatidir.¹¹ Yana bir o'zbek huquqshunos olimlaridan biri O.T.Xusanovning fikricha, davlat xizmati, vakillik, ijroiya, sud xokimiyati organlarining

¹¹ Хожиев Э.Т. Давлат хизмати. Тошкент. 2015 й.

boshqaruvidagi va boshqa davlat organlaridagi davlat nomidan uning vazifalarini bajaruvchi xizmatlardan iborat.¹²

Xorij huquqshunos olimlaridan biri M. Kozlovning davlat xizmatiga bergan ta’rifi quyidagicha: “Davlat xizmati deganda – davlat organlarida amalga oshiriladigan hamda ishchilar mehnatidan mazmuni va shakli jihatidan farq qiladigan har qanday faoliyat tushuniladi”¹³

Rus huquqshunos olimi Manoxin V.M. ning fikricha, davlat xizmati – bu davlat organlarini va boshqa tashkilotlarini tashkil etish va huquqiy tartibga solish bo‘yicha davlat faoliyatining bir bo‘lagi hisoblanadi, davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati esa davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishga qaratiladi.¹⁴ G.A.Borshevskiy fikricha, davlat xizmati – bu davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari hamda ular tomonidan tuzilgan jamoat birlashmalari, fondlar, muassasalar va tashkilotlarning vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladigan kasbiy faoliyatdir.¹⁵

Ushbu olimning fikrlari unchalik to‘g‘ri emas, fikrimizcha, davlat xizmatchisi deganda faqat davlat ma’muriy boshqaruv funksiyasini bajaradigan shaxslar guruhi emas, balki davlatning ijtimoiy sohalardagi funksiyalarini ham bajaradigan shaxslar, ya’ni sog‘liqni saqlash sohasida shifokorlar, ta’lim sohasida o‘qituvchilar ham davlat xizmatchilari hisoblanadi.

Yuqorida huquqshunos olimlar tomonidan berilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, davlat xizmati deganda davlat hokimiyat organlarida, davlat korxonalarini, muassasalari, tashkilotlari va birlashmalarida amalga oshiriladigan xizmat tushuniladi. Xususiyl tashkilotlarning, korxonalarining, banklar hamda boshqa korxonalar va tashkilotlarning xizmatchilarini, faqatgina, ijtimoiyl nuqtai nazardan xizmat munosabatlari tizimiga kiritish mumkin, lekin ular davlat xizmatini amalga oshiradigan davlat xizmatchilari hisoblanmaydi. Ushbu fikrimizga asos sifatida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining davlat

¹² Ўзбекистонда давлат хизматини ўташнинг ташкилий-ҳуқуқий масалалари. Академия. Тошкент-2005 й. Мирбобоев Б., Хусанов О., Бегматов А.

¹³ Административное право. Под ред. Ю.М. Козлова. Москва. 2007 г. с. 136-137.

¹⁴ Манохин В.М. Нужны основы законодательства о службе // Государство и право. – № 9., 1997. – С. 7-8;

¹⁵ Г.А. Борщевский, Государственная служба. Учебник, Москва-Юрайт-2016, С25.

xizmatchisiga bergan ta'rifini keltirib o'tsak, unga ko'ra, davlat xizmatchisi bu – davlat boshqarma va agenliklari, davlat sektoridagi korxonalar tomonidan davlat xizmatiga ishga qabul qilingan shaxs hisoblanadi. Davlat xizmatchilari davlat va hukumatga ishlaydi va ular oldida ma'sul bo'ladi, siyosiy partiyalar bundan mustasno.¹⁶

Davlat xizmati o'z tarkibiga “davlat fuqarolik xizmati” va “davlat maxsus xizmati” kabi turlarni qamrab oladi, va ushbu ikkala xizmat turi umumiy “davlat xizmati” deya nomlanadi. Bunday turlarga ajratish hech bir qonunda ham, biror ilmiy manbada ham ko'rsatilmagan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 3-oktyabrda “O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5843-son Farmoni qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatchilarining maqomi instituti joriy etilgan edi. Unga qadar “davlat fuqarolik xizmati” o'rnida keng ma'nodagi “davlat xizmati” termini qo'llanib kelingan edi. Davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonun loyihasida o'z aksini topdi. Ushbu qonun loyihasining “asosiy tushunchalar” ko'rsatib o'tilgan 4-moddasiga ko'ra¹⁷:

Davlat fuqarolik xizmati – davlat organlari va tashkilotlarida ommaviy manfaatlar yo'lida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining haq to'lanadigan kasbiy faoliyati, davlat fuqarolik xizmatchisi esa davlat vazifa va funksiyalarini bajarish uchun belgilangan doiradagi xizmat vazifa va majburiyatlariga ega davlat organlari va tashkilotlardagi lavozimida faoliyatini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi deb ko'rsatilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning PF 5843-son Farmoniga ko'ra “davlat fuqarolik xizmatchisi” 18 yoshga to'lgan, tegishli malakaga ega, davlat tomonidan to'lanadigan (maosh) haq evaziga o'z faoliyatini Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestriga kiritilgan lavozimlarda amalga

¹⁶ <https://www.oecd.org/gov/ethics/2957360.pdf>

¹⁷ <https://regulation.gov.uz/uz/document/18047>

oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi .¹⁸

Davlat xizmatlarining “davlat fuqarolik xizmati” va “davlat maxsus xizmati” kabi turlarga ajralishini “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun loyihasi 3-moddasini tahlil qilish asosida ham bilib olishimiz mumkin. Unga ko‘ra, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari va Oliy Majlis Senati a‘zolari, Markaziy saylov komissiyasi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlari hamda sudyalardan tashqari barcha O‘zbekiston Respublikasi davlat fuqarolik xizmatchilariga tatbiq etiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi, mudofaa, davlat xavfsizligi organlarida, diplomatik, bojxona, soliq va qutqaruv xizmatida xizmat o‘tayotgan davlat xizmatchilarining maqomi alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Ushbu qoidadan xulosa qilish mumkinki, davlat fuqarolik xizmati – ijro etish tizimiga kiradigan vazirlik, idora va qo‘mitalardan iborat bo‘lsa, davlat maxsus xizmatiga jinoyatchilikka qarshi kurashishga ixtisoslashgan, davlatning o‘ta muhim bo‘lgan maxsus funksiyalarini bajaradigan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, sud, prokuratura, soliq, bojxona, davlat xavfsizlik xizmati, mudofaa, qurolli kuchlardagi harbiy xizmat kabi xizmat turlari kiradi.

Ba‘zi davlatlarda (Litva¹⁹, Belarusiya²⁰, Qozog‘iston²¹) “davlat xizmati” tushunchasi maxsus xizmat hisoblangan harbiy, huquqni muhofaza qilish kabi xizmatlarni anglatadi. Armaniston davlat xizmatiga davlat fuqarolik xizmati, sud, bojxona, soliq, politsiya, diplomatik xizmat kabilar kiradi.²²

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2019 йил 3 октябрда “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5843-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.10.2019 й., 06/19/5843/3900-сон.

¹⁹ Закон о государственной службе № VIII-1316 от 08.07.1999 : [принят Сеймом Литовской Республики, опубликован в Официальном бюллетене № 66-2130 от 30 июля 1999 г.]// <https://www.e-tar.lt>

²⁰ Закон Республики Беларусь «О государственной службе в Республике Беларусь» от 14 июня 2003 г. № 204-3 // Национальный реестр правовых актов Республики Беларусь от 19 июня 2003 г. N 2/953. URL: <http://pravo.by/document/?guid=3871&p0=h10300204> (дата обращения: 01.03.2019).

²¹ Закон Республики Казахстан от 23 ноября 2015 года № 416-V «О государственной службе Республики Казахстан» // <https://online.zakon.kz> (тўлиқ хавола фойдаланилган адабиётлар рўйхатида келтирилган)

²² Isayeva.F.B. “Uzoq muhokamalarga sabab bo‘lgan qonun loyihasi: Davlat xizmatchisining huquqiy maqomini belgilash zarur edi//hudud24.uz.

Bizga ma'lumki, jinoyatchilikka qarshi ikki xil chora-tadbirlar amalga oshiriladi: 1) preventiv – jinoyat yuzaga kelishidan oldin ko'riladigan profilaktik choralar; 2) repressiv – jinoyat sodir etilganidan so'ng huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ko'riladigan choralar (jinoiy ta'qib). Davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish ham preventiv, ham repressiv choralar ko'rilishini nazarda tutadi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish” quyidagi uchala jihatni o'z ichiga qamrab oladi:

- korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan, sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda keyinchalik ularni bartaraf etish (profilaktik chora);
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, fosh etish va tergov qilish (jinoiy ta'qib);
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oqibatlarini minimallashtirish va (yoki) bartaraf etish.²³

Davlat fuqarolik xizmatlarida korrupsiyaga oid qonunchilik asoslarini umumiy va maxsus qonun hujjatlariga ajratish mumkin. Mazkur huquqiy asoslarni evolyutsion rivojlanish nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan dastlabki qadam O'zbekistonning 2008-yil 7-iyuldagi O'RQ-158-sonli Qonuni bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini (2003-yil 31-oktabr)²⁴ ratifikatsiya qilishi, 2010-yilda esa Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Istanbul harakatlar rejasi dasturiga qo'shilishi bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasida muayyan turdagi davlat xizmatchilarining faoliyatini umumiy tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlarida, masalan, turli sohadagi vazirliklarning mansabdor shaxslari tomonidan ishlab chiqilgan, tizimga kiruvchi xodimlar faoliyatini maxsus tartibga solishga qaratilgan

²³X.P.Пашаев.Э.Х.Пашаева“Повышение уровня правосознания граждан и популяризация антикоррупционных стандартов поведения: курс лекций” Учебное пособие, Горно-Алтайск БИЦ Горно-Алтайского государственного университета 2018, 9 стр;

²⁴ Ўзбекистон Республикасининг 2008-йил 7-июлдаги “Бирлашган Миллатлар Ташкilotининг Коррупцияга қарши конвенциясига (Нью-Йорк, 2003-йил 31-октябрь) Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши тўғрисида”ги Қонуни // URL: <https://lex.uz/docs/1369505>.

idoraviy-normativ hujjatlarda (buyruq, nizomlarda) davlat xizmatchilari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan normalarni ko'rish mumkin. Masalan, "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi qonunga ko'ra Vazirlar Mahkamasi a'zolarining ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari taqiqlanadi.²⁵

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-martdagi "Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro'yxati to'g'risida"gi 103-sonli qarorida mansabdor shaxslarning ro'yxati berilgan bo'lib, davlat xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi maxsus protsessual kodekslarida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladigan "Rad qilish instituti"ga oid normalar mavjud. Shuningdek, Mehnat kodeksi 79-moddasi (qarindosh-urug'larning davlat korxonasida birga xizmat qilishlarini cheklash" deb nomlanib, bu ham davlat xizmatchilarining mehnat faoliyati davomida manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaning nepotizm (qarindosh-urug'chilik) ko'rinishi yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan norma hisoblanadi.²⁶

Davlat xizmatchilari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan navbatdagi normativ-huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari" hisoblanadi.

Nihoyat, 2017-yil 3-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi maxsus qonuni qabul qilinib, ushbu qonunda ilk bor "korrupsiya", "manfaatlar to'qnashuvi" kabi tushunchalarga ta'rif berildi. Qonun ijrosini ta'minlash maqsadida davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan maxsus komissiyalar faoliyat yurita boshladi. Davlat

²⁵ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y, 03/19/591/4130-son.

²⁶ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019-y, 03/19/536/3114-son.

tashkilotlarida davlat xizmatchilari tomonidan tashkilotning odob-axloq kodeksiga va ichki lokal hujjatlariga rioya qilinishi ustidan bo'linmalar, inspeksiyalar nazorat faoliyatini amalga oshira boshladilar.

“O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy islohotlar Konsepsiyasi” VI bobi “Professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta‘sirchan mexanizmlarini joriy etish”ga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida yagona davlat kadrlar siyosatini amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan ixtisoslashtirilgan organni tashkil etish kabi ustuvor vazifalar o‘rnatilgan edi.²⁷

Normativ-huquqiy hujjatlar yaratish jarayonida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi sodir etilishiga imkon beruvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida 2021-yil 24-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug‘i bilan tadiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom²⁸ ishlab chiqilgan edi. Ushbu nizom davlat xizmatchilariga oid qonun hujjatlarida yoki davlat xizmatchilari tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki loyihalarda mavjud korrupsion omillarni aniqlash, o‘z vaqtida bartaraf etish orqali davlat xizmatlarida korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-may kuni qabul qilingan PF-5729-son Farmonida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari qatorida davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, shuningdek, davlat xizmatini o‘tashda manfaatlar to‘qnashuvini hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish belgilanib, davlat organlari zimmasiga korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari ro‘yxatini shakllantirish yuklatilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5843-son Farmonida

²⁷O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Ma‘muriy islohotlar Konsepsiyasi” // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y, 37-son.

²⁸ Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.02.2021-y, 10/21/3287/0153-son.

bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadigan Davlat xizmatini rivojlantirish Agentligini tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni loyahasini tayyorlash, Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestrini yuritish, davlat fuqarolik xizmati lavozimlari klassifikatorining tuzilmasini (matritsasini) yaratish, davlat xizmatchilari tomonidan daromadlari va mol-mulkini majburiy deklaratsiyalashni bosqichma-bosqich joriy qilish kabi vazifalar belgilandi.²⁹ Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestrini yuritish davlat fuqarolik xizmatchilarining lavozimlarini vakolatlarga (siyosiy, ma‘muriy va texnik) va ularning darajalariga (milliy, respublika, viloyat va tuman (shahar) qarab tasniflash asosida amalga oshiriladi.

Ushbu Farmonda ilk bor davlat xizmati tarkibiga davlat fuqarolik xizmati va davlat maxsus xizmati kirishi ta‘kidlab o‘tilgan edi. Unga ko‘ra: o‘z faoliyatini davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozimlarda amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi davlat fuqarolik xizmatchisi hisoblanadi va ularning maqomi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmat va huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xizmat davlatning maxsus xizmati hisoblanadi va alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi aytilgan edi.

Bugungi kunda “Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi” tomonidan kadrlarni tanlashda eski usullardan voz kechib, davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali — vacancy.argos.uz platformasi ishlab chiqildi. Hozirgi kunga mavjud 3415 ta vakant lavozimlar bo‘yicha ochiq tanlovlar e‘lon qilingan. Ushbu vakant lavozimlarga jami 60 mingdan ortiq nomzoddan hujjatlar kelib tushgan bo‘lib, bitta vakant lavozim o‘ringa o‘rtacha 17-20 kishi hujjat topshirgan. Xususan, portal orqali davlat organlarining

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni// Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.10.2019-y, 06/19/5843/3900-son)

markaziy apparatlariga, jumladan, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga 25 nafar, Qishloq xo‘jaligi vazirligiga 49 nafar, Moliya vazirligiga 20 nafar, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga 9 nafar, Suv xo‘jaligi vazirligiga 6 nafar, Davlat soliq qo‘mitasiga 5 nafar malakali kadrlar ishga qabul qilindi.³⁰

Davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar orasida dolzarb o‘rin tutgan yangilik “Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” bo‘ldi. Ushbu strategiyaning samaradorligini yanada oshirish maqsadida:³¹

- “Davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaga toqatsiz munosabatni shakllantirish” yo‘nalishini “Davlat organlari va tashkilotlarida ISO: 37001 – Korrupsiyaga qarshi menedjment tizimini joriy etish”;
- “Davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaga toqatsiz munosabatni shakllantirish” yo‘nalishga doir maqsadli ko‘rsatkichlar, xususan, “ISO: 37001” sertifikatini olgan davlat organlari va tashkilotlari soni” kabi ko‘rsatkichlar bilan kuchaytirish;
- Davlat xizmatchilarining halolligini tekshirish (“integrity check”) tizimini joriy etish mexanizmini ishlab chiqish kutilmoqda.

Mazkur tizim bugungi kunda Estoniya, Armaniston, Qozog‘iston davlatlarida samarali qo‘llanib kelinmoqda. Ozarbayjon, Slovakiya, Irlandiya va boshqa bir qator davlatlar tajribasiga asoslanib, “kompetensiya modeli”ni qo‘llash, ya’ni davlat xizmatchilarini lavozimga tayinlashda nafaqat rasmiy belgilangan talablar, balki ushbu lavozimni egallash uchun zarur bo‘ladigan ko‘nikmalarni, shuningdek ularni o‘lchash va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish nazarda tutilmoqda.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini

³⁰ <https://xs.uz/uz/post/davlat-fuqarolik-khizmatiga-ishonch-yanada-ortmoqda>

³¹ <https://anticorruption.uz/uz/item/2021/04/30/davlat-fuqarolik-xizmatini-2030-yilgacha-rivojlantirish-strategiyasi-loyahasini-takomillashtirishga-qaratilgan-takliflar-bildirildi>

takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni asosida ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ - "Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi" tashkil etilgan edi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyul kuni qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son Qarorida³² barcha davlat organlari va tashkilotlari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini yo'lga qo'yish nazarda tutilgandi.

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murossasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-son Farmoniga ko'ra O'zbekiston tajribasida ilk bor Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan "Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestri" yuritiladigan bo'ldi. Reyestrqa kiritilgan shaxslarga bir qator taqiqlar belgilandi, ulardan biri davlat xizmatiga kirish va davlat mukofotlari bilan taqdirlanishning mumkin emasligidir.³³

Bundan tashqari, 6257-sonli Farmonda aytilishicha, O'zbekiston hozirda Yevropa Ittifoqi doirasidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlatlar guruhi (GRECO), Korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari xalqaro assotsiatsiyasi (IAASA) tashkilotlariga a'zolik masalalarini ko'rib chiqmoda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyul kuni qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son Qarori//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021-y., 07/21/5177/0644-son

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-son Farmoni//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021-y., 06/21/6257/0645-son.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son Qaroriga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash quyidagi beshta yo‘nalish bo‘yicha belgilangan indikatorlar asosida amalga oshirilishi belgilandi.³⁴

Bugungi kunda “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu strategiya 7 ta yo‘nalish va 100 ta maqsadni o‘z ichiga qamrab olgan. Taraqqiyot strategiyasining “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” hamda “Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish” kabi yo‘nalishlariga oid 10 hamda 83-maqsadlar bevosita davlat fuqarolik xizmatini faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.³⁵

Xulosa qilib aytish mumkinki, davlat organlari va tashkilotlarida, xususan, davlat fuqarolik xizmati faoliyatida korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, ular yuzasidan ko‘riladigan chora-tadbirlarni normativ-huquqiy hujjatlarda qonuniy jihatdan mustahkamlashga bo‘lgan e‘tibor oxirgi yillarda sekin-astalik bilan kuchayib bormoqda. Yaqin kelajakda davlat fuqarolik xizmati faoliyatini takomillashtirishga, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun, “Davlat xizmatchilarining Odob-axloq kodeksi”, “Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish to‘g‘risida”gi qonun, “Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihalari ishlab chiqilishi va qabul qilinishi kutilmoqda.

³⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son Qarori// Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.01.2022-y., 07/22/81/0017-son.

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni// Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

1.2-§.Davlat fuqarolik xizmatlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning ko'rinishlari tavsifi

Bugungi kunda korrupsiya deyarli barcha davlatlar uchun jiddiy va dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: hozirda korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi keskin kurashish, bu borada davlat organlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati instituti vakillari ham qat'iy harakat qilishi lozim. Shu maqsadda, davlat boshqaruvida korrupsiyaning oldini olishda davlat xizmatchilarini ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish, davlat ma'lumotlarini ommaga e'lon qilish, ochiq ma'lumotlar ro'yxatini kengaytirish maqsadga muvofiq.³⁶

O'zbekistonda davlat xizmatining muayyan sohalari korrupsiya o'chog'i bo'lib qolmoqda. Chunonchi, bu bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, davlat fuqarolik xizmatining qurilish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari korrupsiya eng ko'p sodir bo'ladigan (75,3%) birinchi darajali sohalari hisoblanadi, undan keyingi o'rinlarda davlat xaridlari, ma'muriy tartib-taomillar bo'yicha hamda davlat xizmatlarini ko'rsatish tarmoqlari (38,4%) yetakchilik qilmoqda, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida korrupsiya ko'rsatkichi 26%ni tashkil etmoqda.

Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi bergan axborotnomaga ko'ra 2021-yil davomida 2345 ta jinoyat ishi bo'yicha 2804 nafar mansabdor shaxs javobgarlikka tortilgan. Ulardan 16 nafari respublika, 241 nafari viloyat va 2547 nafari tuman (shahar) vazirlik, idora va tashkilotlar xodimlaridir. 2021-yil miqyosida: o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilgan (1741 nafar), firibgarlik (269 nafar), mansab vakolatini suiiste'mol qilgan (168 nafar), pora olgan (153 nafar), hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqqan (42 nafar), mansab soxtakorligi kabi jinoyatlarni sodir etgan (41 nafar), pora bergan (12 nafar), mansabga sovuqqonlik bilan qaragan (25 nafar) va boshqa jinoyatlar sodir etgan (378 nafar) mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan. O'z

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 25.01.2021.

faoliyatini suiiste'mol qilish natijasida davlat va jamiyat manfaatlariga 913,7 mlrd so'm miqdorida zarar yetkazilgan, dastlabki tergov jarayonida 714,8 mlrd so'm undirilgan.³⁷

“Korrupsiya” tushunchasi etimologiyasiga qisman to'xtaladigan bo'lsak, korrupsiya (lotincha corruptio — zarar, buzilish, pora evaziga og'dirib olish), mansabdor shaxs tomonidan o'ziga berilgan mansab vakolatlaridan shaxsiy boyish maqsadida bevosita foydalanishdan iborat jinoyat.³⁸ Ayrim manbalarda esa “korrupsiya” (lotincha corrumpere – buzilish, aynish, tanazzul) - mansabdor shaxsning o'ziga ishonib topshirilgan vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaat yo'lida, belgilangan qonun va qoidalarga zid ravishda foydalanishi nazarda tutiladi.³⁹

Jahon miqyosida Transparency International tashkilotining “korrupsiya”ga bergan ta'rifi ko'plab davlatlar tomonidan umume'tirof etilgan. Unga ko'ra: korrupsiya – shaxsiy naf ko'rish maqsadida ishonib topshirilgan vakolatlarni suiiste'mol qilish hisoblanadi.⁴⁰

Rus huquqshunos olimi Kurakin aytishicha, “korrupsiya” bu - mansab mavqeini suiiste'mol qilish, pora berish, pora olish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish, tijoriy maqsadda pora berish yoki jismoniy shaxs tomonidan pul shaklida naf olish maqsadida o'z mansab mavqeidan jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga zid bo'lgan tarzda qonunga xilof ravishda foydalanishdir.⁴¹ Q.Tojiboyevning fikricha, “korrupsiya – bu ishonib topshirilgan vakolatlarni shaxsiy manfaatlar yo'lida suiiste'mol qilishdir”.⁴² Meliyev korrupsiyaviy huquqbuzarlikka shaxslarning oshna-og'aynigarchiligi, qarindosh-urug'chiligi bilan bog'liq ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi.⁴³

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuratura Axborotnomasi, “Mansab bilan bog'liq jinoyatlarning statistikasi”

³⁸ <http://kamadm.ru/anticorruption/media/2018/8/3/korrupsiya-ponyatie-vidyi-istoriya-poyavleniya-i-razvitiya>.

³⁹ <http://ru.wikipedia.org/wiki/Korrupsiya>.

⁴⁰ <https://www.transparency.org/en>.

⁴¹ Куракин А.В. Административно-правовые аспекты юридической ответственности в механизме противодействия коррупции в системе государственной службы Российской Федерации//NB: Административное право и практика администрирования. 2013. № 7. С. 137.

⁴² Тожибоев Қ. Мансаб мавқеини суиистеъмол қилиш йўли билан ўзгалар мулкани талон-торож қилганлик учун жавобгарлик. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – Б.13.

⁴³ Meliyev.X. Korrupsiya – xavfsizlikka tahdid // Hayot va qonun, 2004. – B. 51;

Korrupsiyaning ko'rinishlari xilma-xil, jumladan, poraxo'rlik, favoritizm (xayrixohlik), nepotizm (qarindosh-urug'chilik), proteksionizm, lobbizm, davlat mulkini talon-toroj qilish, noqonuniy xususiylashtirish, siyosiy tuzilmalarni (siyosiy partiyalarni) noqonuniy qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish, asossiz imtiyozli kreditlar, buyurtmalar berish, davlat resurslaridan (tovar, xizmat, daromad manbalari) foydalana olish uchun shaxsiy aloqalardan foydalanish, imtiyozlar, ya'ni qarindoshlarga, do'st va tanishlarga turli xizmatlarni ko'rsatish kabi ko'rinishlari mavjud.⁴⁴ Huquqshunos olim N.Said-Gaziyeva korrupsiyaning xufiyona ko'rinishdagi quyidagi shakllarini sanab o'tadi:

shartnoma, bitim tuzishga imkoniyat yaratganlik uchun haq so'rash;
davlat buyurtmalarini joylashtirganlik uchun vositachilik haqi so'rash;
davlat xizmatchilariga sovg'a, pul mukofotlari, ssudalar berish, bepul xizmatlar ko'rsatish, chet elga dam olishga ketadigan xarajatlarni qoplash;
masalalarni tez hal qilib berganligi, hujjatlarni tez taqdim etganlik uchun haq so'rash;

qarindoshlarni, do'stlarni ishga joylashtirish;

rahbarning o'z xodimi tomonidan undirilgan poradan ulush olish.⁴⁵

O'zbek olimlaridan N.Murodov ta'kidlaganidek, shu kunga qadar "korrupsiya" desa faqat jinoyat kodeksida belgilangan "poraxo'rlik" bilan bog'liq jinoyatlar tushunilar edi. Vaholanki, korrupsiyaning turli xil ko'rinishlari va turlari mavjud. Shu bilan birga, davlat xizmatchisining o'ziga yuklatilgan vazifani xolisona bajarishiga to'sqinlik qiladigan, shaxsiy manfaatlar bilan davlat va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi to'qnashuv natijasida davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'ladigan manfaatlar to'qnashuvi ham o'zining ijtimoiy xavfliligiga ko'ra korrupsiyaning boshqa ko'rinishlaridan farq qilmaydi.⁴⁶

Ingliz huquqshunos olimi A.Graycar korrupsiyaning bir qancha

⁴⁴ Э.И. Атагимова. "Государственному служащему о коррупции". Москва-2015;

⁴⁵ Said-Gaziyeva.N.SH., O'zbekistonda davlat xizmatini isloh qilishning nazariy va amaliy muammolari. Yu.f.d.ilmij darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.:TDYUI, 2010.B.122-155;

⁴⁶ <http://uza.uz/oz/society/korrupsiyaga-doir-t-iz-asosiy-masala--25-06-2019>.

ko'rinishlarini sanab o'tadi: poraxo'rlik, kikkbek (orqaga qaytarish), fasilitatsiya to'lovlari (facilitation payments), sekstortsiya, o'zlashtirish va rastrata, savdo-sotiqqa ta'sir qilish (trading in influence), nepotizm, klientelizm, patronaj, manfaatlar to'qnashuvi, kleptokratiya, mayda va yirik korrupsiya, ma'muriy korrupsiya, siyosiy, sistematik, sporadik, aktiv, passiv korrupsiya kabilar.⁴⁷

Poraxo'rlikning aktiv va passiv shakllari mavjud. Korrupsiyaga qarshi konvensiyaga ko'ra pora berishga va'da berish, taklif qilish, taqdim etish – aktiv poraxo'rlik hisoblanib, tugallangan jinoyat tarkibini beradi. Passiv poraxo'rlik – porani qabul qilish, pora olishga rozilik berish kabilarni o'z ichiga oladi va tugallangan jinoyat hisoblanadi. Ko'p hollarda belgilangan qiymatdan oshiqcha berilgan sovg'a ham pora hisoblanadi, sovg'a qiymati Fransiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt sterling (250\$), Aqshda 50\$, Rossiyada 3000 rubldan oshmasligi belgilangan.⁴⁸

Kikkbek (kickback – orqaga qaytarish) – noqonuniy xizmat ko'rsatilgandan so'ng muaayan haq to'lash shaklida sodir etiladi. Masalan, mansabdor shaxs davlat nomidan xizmat ko'rsatish, mahsulot yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzayotganda tender shartlariga rioya qilmay muayyan bir kompaniyani xizmat ko'rsatuvchi sifatida tanlaydi, mazkur kompaniya esa shartnoma muddati davomida mansabdor shaxsga imtiyoz uchun muayyan miqdorda haq to'laydi.⁴⁹

Favoritizm (xayrixohlik) - mansabdor shaxs tomonidan fuqarolarga, ularning qarindosh, tanish, do'st ekanligi yoki ijtimoiy, diniy, siyosiy qarashlaridan kelib chiqib noqonuniy imtiyozlar berish, xizmatlar ko'rsatish. Favoritizmning bir ko'rinishi nepotizm deb ataladi. Nepotizm – qarindoshlik, oilaviy munosabatlardan kelib chiqib qarindoshlik aloqasida bo'lgan shaxslarga noqonuniy imtiyoz, afzalliklar berish, masalan, ishga qabul, lavozimini oshirishda qonuniy shartlarni chetlab o'tib, qarindoshlik munosabatidagi shaxslarni ishga qabul qilish, lavozim darajasini oshirish kabilar bunga misol

⁴⁷ A. Graycar . Awareness of corruption in the community and public service: A Victorian study. Australian Journal of Public Administration. 73(2): 2014;

⁴⁸ <https://www.arkh-edu.ru/anticorruption/detail.php?ID=163883>

⁴⁹ U Myint, "Corruption: Causes, Consequences, and Cures", Asia-Pacific Development Journal Vol. 7, No. 2, December 2000;

bo'ladi. Xuddi shu imtiyozlar, afzalliklar do'stlarga, hamkasblarga, tanishlarga nisbatan qo'llanilsa, u kronizm deb ataladi.⁵⁰

Xorijiy manbalarga ko'ra, sekstortsiya – jinsiy manfaatga erishish uchun hokimiyat vakolatini suiiste'mol qilish ham korrupsiyaning bir ko'rinishidir.⁵¹

Klientelizm – “kuchli homiy” va “zaif mijoz” o'rtasidagi norasmiy ekspluatatsiyaviy xarakterga ega (resurs, imtiyozlardan foydalanish) o'zaro manfaatli munosabatlar tizimi. Rasmiy boshqaruv tuzilmalari o'z vazifalarini bajarmaganliklari natijasida jamiyatning himoyaga, yoki biror resursga muhtoj qismi ularni homiylikka chaqiradi. Masalan, “homiy” sifatida saylangan deputat bilan unga ovoz bergan va saylovda yutib chiqishiga ko'maklashgan saylovchilar (resursga muhtoj oddiy xalq) o'rtasidagi munosabat. Homiy saylovchilarga mukofot sifatida ular muhtoj bo'lgan resurslarni taqdim etadi.

Patronaj (homiylik) – hukumatga kadrlarni ishga qabul qilishda, lavozim darajasini oshirishda, mehnat shartnomasini tuzishda foydalaniladigan homiylik. Hokimiyat vakolatini oshirishga, noqonuniy boylik orttirishga hamda homiylik natijasida status darajasini oshirishga bo'lgan ishtiyoq homiyni ruhlantiradi.⁵²

Tizimli korrupsiya – bu davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy tizimining ajralmas qismi bo'lgan, shu sababli, fuqarolar bu sohalarga murojaat qilganda korrupsiyadan xoli bo'la olmasliklari mumkin. Masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim sohalarida korrupsiyaning sistemali shakli mavjud.

O'zbek huquqshunos olimlaridan biri B.Ismailov korrupsiyaning quyidagi shakldagi ko'rinishlari ham mavjud ekanini ta'kidlab o'tgan:

mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlarning tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish uchun bevosita ishtirok etishi;

davlat pul mablag'larini o'zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanishi;

o'z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va boshqa) guruhig davlat resurslari

⁵⁰ <https://www.u4.no/terms#bribery>

⁵¹ A. Graycar, T. Prenzler. Understanding and preventing corruption. 2013; Palgrave Macmillan: Basingstoke, UK [[Crossref](#)].

⁵² <https://www.u4.no/terms#bribery>

hisobidan imtiyozlar berish;

shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyiq o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanish;

mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalariga soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi;

muayyan guruh manfaatlarida normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish;

ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish.⁵³

Rus huquqshunos olimi E.I. Atagimova⁵⁴ ta'kidlashicha, davlat xizmatlarida korrupsiyaning quyidagi ko'rinishi ham uchraydi: tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan mansabdor shaxs tomonidan bevosita yoki ishonchli vakil orqali tadbirkorlik qilish hamda o'z tijorat tashkilotiga imtiyozlar berish, homiylik qilishdan iborat korrupsiyaning ko'rinishi.

Rus olimi Rostovseva korrupsiyaning quyidagi ma'muriy ko'rinishlari mavjud ekanini ta'kidlagan: mayda o'g'rilik (o'zlashtirish, rastrata shaklida), davlat va mahalliy davlat hokimiyati ehtiyojlari uchun xizmatlar ko'rsatish, tovarlar sotib olish tartibini buzish, yuridik shaxs nomidan noqonuniy sovg'a berish, sobiq hukumat xodimlarini davlat xizmatlarini ko'rsatishga jalb etishdan iborat.⁵⁵ B.Voljenkin korrupsiyaning eng ko'p uchraydigan ko'rinishi sifatida xizmat vakolatidan foydalanib, o'zganing mulkini o'zlashtirish yo'li bilan talon-toroj qilish, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik kabilarni sanab o'tgan.

AQSH da korrupsiyaning keng tarqalgan shakli bu "kickbacking". Uning sxemasi oddiy: til biriktiruvchi shaxslar og'zaki tarzda muayyan qiymatda bitim tuzishga kelishadilar va aslidan ko'ra yuqori bo'lgan narxlarda rasmiy tarzda

⁵³ Ismailov.B.I., Ismailov.B.I. Xorijiy davlatlarda mansabdor shaxslar aktivlarini deklaratsiya qilish. – T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuratura Akademiyasi, 2019. – B.10;

⁵⁴ Э.И. Атагимова. "Государственному служащему о коррупции". Москва-2015;

⁵⁵ Ростовцева Ю.В. Административная ответственность коррупционные правонарушения в системе государственной службы // Законы России: опыт, анализ, практика. 2012.

bitim imzolaydilar, narxlardagi farqning bir qismi bitim tuzishga ruxsat bergan mansabdor shaxsga o'tkaziladi, ya'ni yashirin pora beriladi.⁵⁶

Rus olimi V.V.Filippov korrupsiyani "qattiq" va "yumshoq" turlarga ajratadi. Qattiq korrupsiyaga (aniq, yaqqol bilinib turgan) mansabdor shaxslarning poraxo'rliqi bilan bog'liq jinoyatlar kirsa, yumshoq korrupsiya esa – noaniq shaklda bo'ladi, masalan, favoritizm, lobbizm, nepotizm, kronizm, mahalliychilik (местничество), urug'-aymoqchilik (клановость) kabilar bunga misol bo'ladi.⁵⁷ Yumshoq korrupsiyaning eng keng tarqalgan shakli – favoritizm bo'lib, u qarindoshlarga, tanishlarga, ma'lum bir siyosiy partiyaga a'ziligiga, ijtimoiy ahvoliga, diniy e'tiqodi va boshqa xususiyatlariga qarab xizmatlar ko'rsatish, imtiyozlar berish tushuniladi. Yumshoq korrupsiyaning mahalliychilik va urug'-aymoqchilik ko'rinishlari ham ko'p uchraydi. Mahalliychilik deganda – muayyan shaxslarni ularning nasl-nasabi, ajdodlari egallab kelgan lavozimlariga qarab hokimiyat lavozimiga tayinlash tartibi tushuniladi. Urug'-aymoqchilik – davlat hokimiyat organlari tizimini shakllantirish asosi, masalan, muayyan vazirlik tizimida rahbardan tortib davlat xizmatchisigacha qarindoshlik, urug'-aymoqchilik munosabatida bo'lishi bunga misol bo'ladi.

Ingliz olimi M.Johnston aytishicha, ba'zi mansabdor shaxslar egallab turgan lavozimlarini "biznes"ga aylantirib olganlar, maqsad ishonib topshirilgan lavozim mavqeidan hamda vakolatlardan foydalanib, shaxsiy foydani maksimal darajada oshirib borishdan iborat.⁵⁸ Ingliz olimi Hellman korrupsiyani faoliyat sohasiga qarab: davlat boshqaruv sohasidagi korrupsiya, parlamentdagi korrupsiya, korxonalaridagi korrupsiyaga ajratadi.⁵⁹

O'zbek huquqshunos olimlari R.Zufarov va B.Axrarovlar korrupsiyaning

⁵⁶ B. Begovic «Corruption: concepts, types, causes and consequences», CADAL, 2005.

⁵⁷ Филиппов В.В. Правовое регулирование конфликта интересов в системе государственной службы США // Криминологический журнал байкальского государственного университета экономики и права. 2010.

⁵⁸ M. Johnston. "Syndromes of corruption: Wealth, power, and democracy". Cambridge University Press: New York-2005.

⁵⁹ J.S.Hellman, G.Jones, D.Kaufmann. Seize the state, seize the day: State capture, corruption, and influence in transition. Policy Research Working Paper No. 2444 2000; World Bank: Washington.

bugungi kunda keng tarqalgan ko'rinishlari sifatida maishiy korrupsiya (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, o'zaro yon bosish), davlat hokimiyati hamda tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamda davlat hokimiyatida oliy mansablarni egallab turgan shaxslar tomonidan sodir etiladigan mansab vakolatidan o'z shaxsiy manfaati yo'lida foydalanish kabi ko'rinishlarini sanab o'tishgan.⁶⁰

A.Graycar ta'kidlashicha, Viktoriyada "korrupsiyaning eng xavfli ko'rinishi qaysi ekanligi" bo'yicha 2017-yilda so'rovnoma o'tkazganida, ishtirokchilarning 36% i "mansab vakolatini suiiste'mol qilish", 56%i "poraxo'rlik", 12%i "diskretsiyon vakolatni suiiste'mol qilish" deya javob bergan.⁶¹ Xuddi shu yili o'tkazilgan yana bir so'rovnomada ishtirokchilar manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaruvchi asosiy omillar sifatida diskretsiyon vakolatni suiiste'mol qilish, qarindosh va do'stlarni ishga qabul qilish kabilarni keltirib o'tishgan. Mening o'ylashimcha, davlat hokimiyati uchun xavfli bo'lgan korrupsiya ko'rinishlari nepotizm, kronizm, mansab mavqeini hamda diskretsiyon vakolatlarni suiiste'mol qilish kabilar.

Mamlakatimizda davlat xizmatlari tizimida sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida tizimli korrupsiya uya qurganligini so'rovnoma natijalaridan ham, oddiy aholi bilan bo'ladigan suhbat jarayonida ham bilib olishimiz mumkin. Bosh Prokuratura bergan axborotnomaga ko'ra 2021-yilda sog'liqni saqlash vazirligi tizimida 678 nafar xodimlar jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lib, ularning 513 nafari qariyb 76 foizi korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etgan. Sog'liqni saqlash tizimidagi xodimlar tomonidan tergov davomida aniqlanishicha, 34 mlrd. so'm budjet va boshqa mablag'lar talon - toroj qilinganligi, 270 nafar soha xodimlari bu bo'yicha javobgarlikka tortilganligi ma'lum qilingan. Bundan tashqari, davlat budjetidan koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish uchun ajratilgan qariyb 7 mlrd.so'm pul mablag'lari talon-toroj qilinganligi aniqlangan.⁶²

⁶⁰ Zufarov.R.A., Axrarov.B.J., Mirzayev.U.M. Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik. Monografiya // Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. Rustambayev.M.X. – T.: TDYUI nashriyoti, 2011, - B. 27;

⁶¹ <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1016/j.polsoc.2015.04.001>

⁶² O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Axborotnomasi. 2021-yil

Shu o'rinda aytish joizki, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning ro'yxati shakllantirilmaganligi javobgarlikka tortish, maxsus normalarni qo'llashda muammolarni yuzaga keltirmoqda. S.Shomirzayev bu xususida shunday degan edi: korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi institutsional o'zgarishlar jarayonida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning yaxlit ro'yxati shakllantirilmaganligi huquqni qo'llash amaliyotida nizolarga sabab bo'lmoqda.⁶³ Shu bilan birga, qator xorijiy davlatlar qonunchiligida korrupsiyaning turli xil ko'rinishlariga oid tushunchalar huquqiy jihatdan tartibga solingan.⁶⁴ Bizda esa korrupsiyaning nisbatan xavfliroq ko'rinishlari (poraxo'rlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilish), manfaatlar to'qnashuviga qonunchilikda ta'rif berib o'tilgan bo'lib, boshqa ko'rinishlariga yuridik ta'riflar berilmagan, javobgarlik masalalari ham ochiq qolmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, korrupsiyaning ko'rinishlariga oid maxsus normalar "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun yoki boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmaganligi sababli biz faqat olimlarning ilmiy doktrinalariga, qarashlariga, g'oya va fikrlariga, xorijiy mamlakatlar qonunchiligida berilgan yuridik ta'riflarga tayanishimiz mumkin. Bundan tashqari, korrupsiyaning nisbatan xavfliroq bo'lgan (masalan, poraxo'rlik) ko'rinishlari uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, xavfi va oqibatlarining ahamiyati jihatidan pastroq bo'lgan boshqa ko'rinishlari (mahalliychilik, qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik) uchun javobgarlik choralari qat'iy belgilanmay qolmoqda. Davlat xizmatlari sohasida uchraydigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning yagona ro'yxati shakllantirilmaganligi javobgarlik choralari qo'llashda muammolarni yuzaga keltirmoqda. Korrupsiyaning ko'plab zamonaviy ko'rinishlari, ularning yuridik ta'riflari haligacha qonunchilikka kiritilmay qolmoqda.

⁶³ Шомирзаев С. Коррупцияга қарши курашишда Латвия тажрибаси. Ҳуқуқбаурчи жимойи-ҳуқуқий журнал. 2/2020-сон. – С.37.

⁶⁴ Исмаилов Б.И., Насриев И.И. Правовые основы привлечения юридических лиц к ответственности за коррупционные правонарушения в зарубежных странах//Учебное пособие. -Т.: ЦПКЮ, Академия Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан. 2020. – С.89;

II BOB. DAVLAT XIZMATLARIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISHDA QO'LLANILADIGAN CHORALAR:

2.1-§. Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan cheklovlar

Korrupsiyaning oldini olishda davlat xizmatchilariga nisbatan taqiq, cheklov va majburiyatlarning o'rnatilishi eng samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu mexanizm orqali nafaqat davlat xizmatchilari tomonidan, balki davlat funksiya va vakolatlarini bajarishi davomida ular bilan aloqada bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olinadi.

Davlat xizmatchilariga nisbatan korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarni o'rnatish quyidagi foydali natijalarni beradi:⁶⁵

- korrupsiyaviy xatti-harakatlar natijasida amalga oshiriladigan ko'plab rotatsiya holatlarini oldini olishga, yuqori korrupsiya xavflarini intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortish davomida aniqlash imkonini beradi;
- korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlar ustidan nazorat qilish mexanizmining mavjud ekanligi yoki bunday institutsional tizimning mavjud emasligi, davlat xizmatchilariga taqiq va cheklovlar o'rnatish masalasiga daxl qilmaydi, chunki ularning o'rnatilishi preventiv ahamiyatga ega.

Davlat xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlar ro'yxati ma'lum bir normativ hujjatda tugal va yaxlit holda berilmagan bo'lib, ularni tarqoq holda turli normativ-huquqiy hujjatlarda uchratish mumkin. Shu boisdan, Prezident Sh.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (27.05.2019) PF-5729-sonli farmonida davlat xizmatchilari uchun cheklov, taqiq va rag'batlantirish choralarining aniq ro'yxatini belgilash kerakligi aytib o'tilgan edi.⁶⁶

⁶⁵ С. Д. Хазанов "Антикоррупционные запреты и ограничения в системе публичной службы как инструмент антикоррупционной политики: поиск оптимальной модели правового регулирования" УДК 342.98. DOI 10.17506/articles.anticorruption.2018.453472

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2019-y., 06/19/5729/3199-son

“Cheklov” tushunchasiga turli yuridik adabiyotlarda turli ta’riflar berilgan. Cheklov bu – huquqiy termin sifatida muayyan shaxsga tegishli huquqlarning chegarasini, amal qilish doirasini belgilab berishdan iborat huquqlarning cheklanishidir. Rus huquqshunos olimi A.Malkoning fikricha, huquqni cheklash shaxsning bajarishi mumkin bo’lgan vakolatlarini amalga oshirish imkoniyati doirasini kamaytirishdan iboratdir.⁶⁷ O’zbek olimlaridan Mirboboyev fikricha, davlat xizmatchilariga nisbatan o’rnatilgan cheklovlar bu Konstitutsiya va boshqa huquqiy hujjatlarida belgilangan, davlat xizmatchisini chiqishi man etilgan, aniq ko’rsatilgan huquq doirasida harakatlanishini belgilaydigan shart va qoidalardir.⁶⁸ U cheklov institutini mohiyat jihatidan burchlarga qiyoslaydi. Lekin cheklovlarning ba’zilari harakatsiz shaklda, ba’zilari esa xuddi burchlar kabi harakat shaklida amalga oshiriladi.

Har qanday sohadagi huquqiy munosabatlar doirasida huquq subyekti mavjud bo’ladi, huquq subyekti esa - subyektning huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi, taqiq va cheklovlar bilan chambarchas bog’langandir.⁶⁹ O’zbek olimlaridan E.Xojiev ta’kidlaganlaridek: davlat xizmati munosabatlari mazmunini – subyektning huquq va majburiyatlari, taqiq va chekovlar, javobgarlik masalalari tashkil etadi.⁷⁰ “Taqiq”, “cheklov” va “majburiyat” tushunchalari davlat xizmatchilari faoliyati davomida qo’llaniladigan huquqiy kombinatsiya hisoblanadi. Huquq va vakolatga proporsional tarzda tiyib turish xususiyatiga ega bo’lgan taqiq va cheklovlar belgilanishi davlat funksiyasini normal bajarish kafolati hisoblanadi, o’zboshimchaliklar avj olishini, ishonib topshirilgan vakolat suiiste’mol qilinishini cheklaydi. Yuqorida aytib o’tilgandek, cheklov davlat xizmatiga kirish arafasida ham, davlat xizmatini bevosita o’tash jarayonida ham mavjud bo’ladi. Yana bir rus olimi V.Kozlov aytishicha, davlat xizmatini o’tash bilan bog’liq cheklovlar bu shunday

⁶⁷ Малько А. В. “Стимулы и ограничения в праве: теоретико-информационный аспект”. М, 2003. С-91.

⁶⁸ Мирбобоев Б., Хусанов О., Бегматов А. Ўзбекистонда давлат хизматини ташкил этишининг ташкилий ҳуқуқий масалалари. – Т.: Академия, 2005.– Б. 63;

⁶⁹ Ростовцева Ю.В. Административная ответственность за коррупционные правонарушения в системе государственной службы // Законы России: опыт, анализ, практика. 2012. № 3.

⁷⁰ Хожиев Э.Т., Исмаилова Г.С. Давлат хизмати: ўқув қўлланма – Т.: Бактерия-пресс, 2015. – Б. 172;

holatlarki, ular sodir etilsa, davlat xizmatchisi o'z vazifalarini normal, qonuniy bajara olmasligi, natijada xizmatdan bo'shatilishi mumkin, yoki fuqarolar (chet el fuqarolari) muayyan holat tufayli xizmatga kira olmasligi mumkin.⁷¹

Mening fikrimcha, davlat fuqarolik xizmatchilariga xizmatni o'tashning butun muddati davomida, hattoki xizmatni o'tab bo'lganidan so'ng muayyan taqiq va cheklovlarning belgilanishi ular faoliyatidagi balansni ta'minlashga xizmat qiladi, davlat xizmatchilariga chek-chegarasiz huquqlar va vakolatlarni taqdim etish muayyan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Davlat xizmatchilariga qat'iy taqiq va cheklovlarning belgilanishi ularni tiyib turishga, taqiq va cheklovlarga rioya qilinishi ustidan nazorat o'rnatilishi, holatdan kelib chiqib javobgarlik belgilanishi turli korrupsiyaviy xavflarni yuzaga kelishini oldini olishga, davlat funksiyasini normal sharoitda qonuniy tarzda bajarishiga, o'ziga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan amalga oshirishiga turtki bo'ladi.

Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyada ham davlat xizmatchilariga fundamental taqiq va cheklovlar belgilanishi nazarda tutilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 88-moddasida Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senatda doimiy asosda ishlovchi Senat a'zolari o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emasligi belgilangan. 91-moddaga ko'ra: Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas. 112-moddada esa sudyalari senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emasligi, sudyalari siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin emasligi belgilangan.⁷²

O'zbek olimlaridan E.Xojiev hamda T.Xojievlar cheklov va taqiq

⁷¹ Козлов.В.В.“Ограничения, запреты и обязанности, связанные с прохождением военной службы, установленные федеральным законодательством о противодействии коррупции и о государственной гражданской службе Российской Федерации” // Право в Вооруженных Силах, 2001.

⁷² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.

masalasida quyidagi fikrlarni keltirib o'tishgan: davlat xizmati bilan bog'liq taqiq va cheklovlar davlat xizmatini o'tash vaqtida, shuningdek, davlat xizmatidan bo'shatilganidan keyin ham u yoki bu harakatlarni amalga oshirishni cheklash va taqiqlashdan iborat qonunchilikda o'rnatilgan me'yorlar bo'lib, cheklov va taqiqlarga misol sifatida quyidagi holatlar sanab o'tilgan:

- ❖ davlat xizmatchisi boshqa haq to'lanadigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas (pedagogik, ilmiy, ijodiy faoliyat bundan mustasno);
- ❖ davlat xizmatchilari uchun tadbirkorlik faoliyati bilan shaxsan yoki boshqalar orqali shug'ullanish taqiqlangan. Davlat xizmatchilari shaxsan yoki boshqalar orqali ishlab chiqarish bilan, tovarlar va boshqa mahsulotlarni sotish bilan, foyda olish maqsadida ishlarni bajarish yoki pulli xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanishi mumkin emas;
- ❖ davlat xizmatchisi uchinchi shaxslarning vakili bo'lishi mumkin emas, ya'ni davlat xizmatchisi davlat xizmatida bo'lgan hamda unga ma'lum bir jihatdan bo'ysungan uchinchi shaxslarga vakillik qilishi taqiqlanadi;
- ❖ davlat xizmatchisi xizmatdan tashqari vaqtda moddiy-texnik, moliyaviy va axborot vositalaridan, davlatning boshqa mulkidan va xizmat ma'lumotlaridan foydalanishi taqiqlanadi;
- ❖ davlat xizmatchilari jismoniy va yuridik shaxslardan mansab majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan har qanday mukofot va sovg'alarni olishi taqiqlanadi;
- ❖ jismoniy va yuridik shaxslar hisobidan xizmat safariga yoki xorijiy safarga borish taqiqlanadi;
- ❖ davlat xizmatchisining xizmat vakolatidan foydalanib davlat organlarida jamoat birlashmalarini (kasaba uyushmasidan tashqari) tashkil etishi yoki uning manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi mumkin emas va boshqalar.⁷³

Fikrimizcha, davlat xizmatchisi o'zining shaxsiy ehtiyojlarini qondirishi, oila a'zolarini moddiy ta'minlashi uchun xizmatiga yarasha muayyan haq olish

⁷³ Э.Т.Хожиев, Г.С.Исмаилова, М.А.Рахимова. “Давлат хизмати” Ўқув қўлланма. Тошкент – 2013, 83 б.

huquqiga ega, biroq mazkur huquq biroz cheklanmoqda, ya'ni davlat xizmatchilari faqatgina xizmatni o'tash vaqtida belgilangan maosh haqini olishga haqli bo'lib, boshqa noma'lum manbalardan muntazam haq olishi mumkin emas, bu kelgusida korrupsiya holatlarini, manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirishi mumkin. Istisno holat sifatida pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan muayyan haq olish huquqi saqlanib qolmoqda.

Davlat xizmatchisi o'z maqomini, daxlsizligini, mustaqilligini saqlashi uchun ularga uchinchi shaxslarga vakillik qilishi cheklangan. Jumladan, Fuqarolik-protsessual kodeksi 70-moddasida sudda vakillik qilishi mumkin bo'lmagan shaxslar qatorida sudyalalar, prokurorlar, surishtiruvchilar, tergovchilar, sud devoni xodimlari sanab o'tilgan bo'lib, bundan ular qonuniy vakil (ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar) sifatida, shuningdek tegishli sud, prokuratura, surishtiruv va tergov organlarining vakili sifatida qatnashgan hollar mustasno ekanligi belgilangan.⁷⁴

Davlat xizmatchilariga, bundan tashqari, xorijga chiqish masalasida ham cheklovlar o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 5-martda qabul qilingan PQ-2142-son qarorida xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Prezident Administratsiyasining tegishli tarkibiy bo'linmalari bilan maxsus kelishuvni talab qiladigan mansabdor shaxslar ro'yxati tegishli ilovalarda ko'rsatilgan. Davlat siri yoki harbiy sirni tashkil etuvchi ma'lumotlardan xabardor mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqishi belgilangan tartibda maxsus kelishuvga asosan amalga oshiriladi. Qonunga xilof ravishda cheklovlarga rioya qilmay, chet elga chiqqanlik uchun jinoiy va ma'muriy javobgarlik belgilanadi.⁷⁵ Ushbu cheklov ko'proq maxsus xizmat xodimlariga nisbatan qo'llaniladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining 130-sonli buyrug'ida O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari va

⁷⁴ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi. 01.04.2018// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 5-martda qabul qilingan "Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi PQ-2142-son qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y.,10-son, 103-modda.

muassasalari, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Majburiy ijro byurosi xodimlarining xizmat zaruriyati bilan yoki shaxsiy maqsadlarda xizmat hududidan boshqa hududga va xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibi belgilangan. Unga ko'ra xodimning xizmat zaruriyati tufayli boshqa hududga chiqishi tegishli rahbarning yozma ko'rsatmasi yoki buyrug'i asosida, shaxsiy maqsadlarda xizmat hududidan boshqa hududga chiqishi esa buning sabablari aks ettirilgan bildirgiga ko'ra amalga oshiriladi. Xodimlarning O'zbekiston Respublikasi hududidan xorijiy mamlakatlarga chiqishiga Bosh prokurorning ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.⁷⁶ Xodimlarning xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2142-sonli Qarori bilan tartibga solinadi.

Davlat xizmatchilari faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni oldini olishga xizmat qiladigan yana bir cheklov turi bu – rad qilish institutining joriy etilganligidir. Sud amaliyotida rad qilish instituti qo'llaniladi. Bundan tashqari, qator qonun hujjatlarida ham, jumladan, “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi qonunning 31-moddasida “Ma'muriy ish yuritishda ishtirok etish imkoniyatini istisno qiluvchi holatlar” berilgan bo'lib, masalan, ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslardan biri bilan qarindoshlik yoki qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik munosabatida bo'lsa (bo'lgan bo'lsa), ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslardan birining vakili bo'lsa yoki ilgari uning vakili sifatida ayni shu ma'muriy ish yuritishda ishtirok etgan bo'lsa, ma'muriy organning mansabdor shaxsi ma'muriy organ nomidan ma'muriy ish yuritishda ishtirok etishga haqli emasligi aytilgan.⁷⁷ Darhaqiqat, davlat xizmatchisi tomonidan o'z qarindoshiga, do'stlariga davlat xizmatlarini ko'rsatishi faoliyatining xolislik, qonuniylik prinsiplariga zid xatti-harakatlar sodir etilishiga, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining “O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari va muassasalari, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Majburiy ijro byurosi xodimlarining xizmat hududidan boshqa hududga va xorijiy mamlakatlarga chiqish Tartibini tasdiqlash haqida”gi 130-sonli buyrug'i (eski tahrir 2016 yil 29 fevral)

⁷⁷ “O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi qonun.08.01.2018.O'RQ-457-son//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-mart kuni qabul qilingan 62-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat boshqaruv organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari”da davlat xizmatchilariga nisbatan quyidagi cheklovlar o‘rnatilgan:

- o‘z xizmat vazifalarini bajarishda biror-bir shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta’siridan mustaqil bo‘lish;
- o‘z xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlarga barham berish;
- xizmat mavqeyidan davlat organlari, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar faoliyatiga noqonuniy ta’sir ko‘rsatish uchun foydalanmaslik;
- davlat xizmatchilariga o‘z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan biror-bir moddiy boyliklarni olish yoxud jismoniy yoki yuridik shaxslardan boshqacha naf ko‘rish taqiqlanadi;
- rahbar kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo‘yicha tanlash va joy-joyiga qo‘yish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi kerak. U guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizm ko‘rinishlarining, shuningdek o‘z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat’iy ravishda oldini olishi lozim.⁷⁸

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun loyihasida ilk bor davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan xizmatni o‘tash davomida amal qilinishi lozim bo‘lgan cheklovlar ro‘yxati nisbatan yaxlit holda keltirib o‘tildi, xususan, 13-moddada quyidagi cheklovlar sanab o‘tilgan:

- o‘zaro yaqin qarindoshlik yoki quda-andachilikda (ota-onalar, ota-onalarning aka-ukalari va opa-singillari, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘il, qizlar, er-

⁷⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-mart kuni qabul qilingan “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 62-sonli qarori// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bevosita lavozim bo‘ysunishida bo‘lgan davlat lavozimini egallashga, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno;

- haq to‘lanadigan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishga, pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyat bundan mustasno;
- moddiy-texnika, moliyaviy va axborot ta‘minoti vositalaridan, davlatning boshqa mol-mulkidan va xizmat ma‘lumotlaridan xizmatdan tashqari foydalanishga haqli emas.⁷⁹

Davlat xizmatini o‘tash davomida bir tashkilot doirasida o‘zaro yaqin qarindoshlik yoki quda-andachilikda bo‘lgan shaxslarning vertikal – bo‘ysunuv asosida faoliyat yuritishi mumkin emas. Shunga o‘xshash qoidani Mehnat kodeksining 79-moddasida (Qarindosh-urug‘larning davlat korxonasida birga xizmat qilishlarini cheklash) ham uchratish mumkin.⁸⁰ Mazkur cheklov asosida davlat xizmatiga kirish paytida rahbar bilan o‘zaro qarindoshlik aloqalarida, tanish-bilishchilikda bo‘lgan shaxslarning davlat xizmatida bo‘lishi yoki davlat lavozimini egallashi mumkin emas.⁸¹ Bir tashkilot doirasida qarindoshlarning bir-biriga bo‘ysunuv asosida faoliyat yuritishi davlat xizmatchilari faoliyatiga xos bo‘lgan qonuniylik, adolatlilik, halollik, xolislik, ochiqlik, korrupsiyaga toqatsizlik kabi prinsiplarga amal qilishda to‘siqlarni yuzaga keltiradi.

Davlat xizmatchilari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muhim cheklovlardan yana biri bu – ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari boshqa haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanishning mumkin emasligidir. Ushbu cheklovni o‘rnatishdan maqsad, avvalo, davlat xizmatchilariga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni, vakolatlarni xolisona, hech bir tashqi tarafdin aralashuvsiz bajarilishini ta‘minlash, manfaatlar to‘qnashuvini, korrupsiyaviy vaziyatlarni oldini olishdan iborat. Yu.A.Dmitriyev fikricha, davlat xizmati professional

⁷⁹ O‘zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida"gi qonuni loyihasi. ID-18047. <https://regulation.gov.uz/oz>. 13-modda

⁸⁰ O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 04.12.2020-y, 03/20/653/1592-son.

⁸¹ Махмудов Фируз. "Тақик ва чекловлар – манфаатлар тўқнашувини бартараф этишнинг механизми сифатида". Юридик фанлар ахборотномаси-2020, 82-bet.

faoliyat ekanligi bois davlat xizmatchisiga davlat xizmatini o'rindoshlik asosida amalga oshirishiga yo'l qo'yilmaydi.⁸²

Bundan tashqari, sovg'a masalalarida ham davlat xizmatchilariga muayyan cheklovlar nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son Farmoni asosda ishlab chiqilgan "Davlat xizmatchilarining Odob-axloq Kodeksi" loyihasining 36-moddasida "Davlat xizmatchisining shaxsi bilan bog'liq sovg'alarni qabul qilishga oid talablar" belgilangan bo'lib, unga ko'ra davlat xizmatchisi tomonidan boshqa davlat xizmatchisiga shaxsiy bayramlarda, ya'ni tug'ilgan kun, bola tug'ilishi, "Vatan himoyachilari kuni", "xalqaro xotin - qizlar kuni" hamda xodimlarning rasmiy vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lmagan bayramlarda berilgan sovg'alar shaxs bilan bog'liq sovg'alar sifatida e'tirof etiladi. Davlat xizmatchisi mazkur turdagi sovg'alarni qabul qilishda quyidagi talablarga rioya qilishi shart:

- sovg'alar davlat tashkilotining kamida uchta davlat xizmatchilari rasmiy ishtirokida berilishi kerak;
- sovg'a berish sovg'aga sabab bo'lgan voqeani aniq ifodalovchi tabrik nutqi bilan birga bo'lishi kerak;
- mehnat jamoasi tomonidan beriladigan sovg'aning umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan oshmasligi lozim;
- birgina davlat xizmatchisining boshqa davlat xizmatchisiga sovg'a uchun sarflagan pul miqdori har bir holatda bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan oshmasligi lozim.⁸³

Davlat yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan davlat xizmatchisiga to'lanadigan grantlar, stipendiyalar, mukofotlar, davlat xizmatchisining yaqin qarindoshlari tomonidan beriladigan sovg'alar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat tashkilotlari tomonidan davlat xizmatchisiga tekin yoki imtiyozli shartlarda beriladigan mulk noqonuniy sovg'a sifatida talqin etilmaydi.

⁸² Дмитриев.Ю.А., Полянский И.А., Трофимов.Е.В. Административное право Российской Федерации: Система Гарант, 2008

⁸³ "O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilarining odob-axloq kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarori.

Protokol tadbirlari, xizmat safarlari va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan davlat xizmatchisi olgan sovg'alar O'zbekiston mulki hisoblanadi va davlat xizmatchisi faoliyat olib borayotgan davlat tashkilotining balansiga saqlanishi uchun dalolatnoma tuzgan holda taqdim qilinadi. Davlat xizmatchisida sovg'a qabul qilishning qonuniyligi bo'yicha shubha tug'ilganda, davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalariga murojaat etiladi. "Davlat xizmatchilarining Odob-axloq Kodeksi" loyihasida davlat xizmatchisi tomonidan xizmat faoliyati davomida qabul qilish rad etilgan yoki qabul qilingan sovg'alar va mehmondo'stlik belgilariga oid holatlarni davlat tashkilotlarida elektron shaklda yuritiladigan sovg'alar va mehmondo'stlik belgilari reestriga kiritilishi nazarda tutilmoqda.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, hozirda davlat xizmatchilariga fuqarolar, tashkilotlar tomonidan, xorijda xizmat safari vaqtida taqdim etilgan sovg'alarni qabul qilish taqiqlanadi, mazkur amaliyot Adliya vazirligi va soliq organlari tizimida amal qilmoqda. Bu borada qabul qilib olingan sovg'alar vazirlik tasarrufiga o'tkazilmoqda.⁸⁴

Davlat xizmatlarida rotatsiya institutining mavjud ekanligi ham davlat xizmatchilarini muayyan bir tartibda cheklab turishga xizmat qiladi. Davlat fuqarolik xizmatida rotatsiya instituti korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi hisoblanadi. Rotatsiya - davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida davlat fuqarolik xizmatchisini boshqa davlat lavozimiga o'tkazish yoki boshqa davlat organi va tashkilotining davlat lavozimiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Davlat xizmatchisining bir lavozimda uzoq turishi, muqim joylashib olishi korrupsiya manbai bo'lib xizmat qilishi, korrupsiyani biznesga aylantirib olishiga yordam berishi mumkin, lavozim jinoyatlarini muntazam sodir etishga zamin yaratishi mumkin. Shu sababdan, korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi, lavozim jinoyatlari, mahalliychilik, tanish-bilishchilik kabi holatlarning kelib chiqishini oldini olish

⁸⁴ Kulturaev.SH.Z., O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish masalalari // Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat tizimini joriy etish:muammolar va rivojlanish istiqbollari. TDYU, 2020,-B.331.

maqsadida davlat xizmatchilari vaqti-vaqti bilan rotatsiya qilinib turiladi.⁸⁵ U.Xusainov fikricha, rotatsiya deb qonuniy asosda xodimlarni o'qitish, ko'nikmasini aniqlash va korrupsiyaning barcha shakllarini oldini olish maqsadida ularning lavozimlarini almashtirib turish, xizmat vazifalarini o'zgartirish hamda xodimlar tarkibining yangilanishi tushuniladi.⁸⁶ Masalan, bir tashkilot doirasida davlat xizmatchilarining muqim faoliyat yuritishi uyushgan korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etadigan guruh shakllanishiga qulay sharoit yaratib berishi mumkin, bir necha yil davomida bir joyda faoliyat yuritgan hamkasblar o'rtasida yaqin aloqalar, bir-birini sotmaslik, hamkorlikda huquqbuzarliklar sodir etishga sabab bo'lishi mumkin.

G'arb mamlakati olimlari Bernard Lo va Mariliyn fikricha, nafaqat davlat xizmatlarida, balki ta'lim va tibbiyot xodimlariga nisbatan ham korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklov mexanizmlarini joriy etish kerakligini aytishgan.⁸⁷ Boshqa bir g'arb olimlari davlat xizmatidan bo'shagandan keyin boshqa bir ishga kirishda o'zining oldingi lavozim vakolatlaridan, huquqlaridan foydalanishi mumkin ekanligi, shu orqali lobbistik harakatlarni amalga oshirishi mumkinligidan kelib chiqib, davlat xizmatidan bo'shatilganidan keyin ham muayyan taqiq va cheklovlar o'rnatish zarur ekanini ta'kidlashgan.⁸⁸ Masalan, davlat, xizmat sirini saqlash, xizmat vaqtida aniqlangan ma'lumotlardan shaxsiy maqsadda foydalanishni cheklash uchun xizmatdan bo'shatilgandan keyin ham muayyan cheklovlar o'rnatish zarur. Albatta, bu lavozim mavqeiga, vakolatlariga qarab belgilanadi. Masalan, harbiy davlat xizmatchilariga nisbatan xizmatdan keyin ham cheklov va taqiqlar o'rnatiladi. Bu bo'yicha

⁸⁵ Феруза Юлдашева Улугбековна. “Ўзбекистон Республикасида давлат хизматига кириш ва ўташнинг ҳуқуқий механизмини такомиллаштириш” юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (Phd) илмий даражасини олиш учун тайёрланган илмий иш. 86 бет

⁸⁶ Хусаинов У. Ш. Институт ротации в системе государственной власти: понятие и сущность // Актуальные вопросы юридических наук: материалы II Междунар. науч. конф. – Челябинск: Два комсомольца, 2015. – С. 10-13. URL <https://moluch.ru/conf/law/archive/140/7135/> (дата обращения: 15.01.2020).

⁸⁷ Bernard Lo, Marilyn J. Field, Conflict of Interest in Medical Research, Education, and Practice, Washington, DC: The National Academies Press. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK22926/>;

⁸⁸ Cabinet Office, the business appointment rules for civil servants, available at: www.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/382937/Business_Appointment_Rules__2014pd;

M.Presnyakov va S.Channovlar shunday fikrlarni bildirishgan: davlat xizmatchilariga taqiq va cheklovlarni belgilashda davlat xizmatchisi o'z mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalana olishi hamda qarorlar qabul qila olishi mumkinligidan kelib chiqib belgilash lozim.⁸⁹ Shu bois, mansabdor shaxslarga davlat xizmatchilaridan nisbatan og'irroq bo'lgan cheklov va taqiqlarni o'rnatish maqsadga muvofiq.

Xulosa qiladigan bo'lsak, davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomi fuqaro davlat lavozimiga tayinlangan paytdan boshlab vujudga keladigan huquq, majburiyat va javobgarliklar, shuningdek ularning davlat fuqarolik xizmatini o'tashi bilan bog'liq cheklovlar tizimidan iborat. Mavjud qonunchilikda esa taqiq va cheklovlar turli ichki lokal hujjatlarda tarqoq holda berilgan bo'lib, aniq ro'yxati tugal holatda shakllantirilmagan. Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan cheklovlar xizmatga kirish jarayonida hamda xizmatni o'tash davomida ham o'rnatiladi. Milliy qonunchilikda davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan xizmatdan bo'shatilganidan so'ng amal qiladigan cheklovlar tizimi belgilanmagan. Kelgusida qabul qilinishi kutilayotgan "Davlat fuqarolik xizmatchilari to'g'risida"gi qonun loyihasida cheklov tizimining nisbatan yaxlit ro'yxati keltirilgan bo'lsa-da, mazkur normada taqiq va cheklovlar alohida alohida moddalarda ko'rsatilmasdan, bir modda tarkibida aralash holatda berilgan. Fikrimizcha, loyihada taqiq va cheklovlar ro'yxati bir-biridan ajratilgan holda boshqa boshqa moddalarda keltirib o'tilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

⁸⁹ Пресняков М.В., Чаннов С.Е. Службное право Российской Федерации: Учеб. пособие. –М.: Норма: Инфра-М, 2011. – С. 447.

2.2-§. Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiqlar

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda nafaqat cheklovlar tizimining, balki taqiqlarning o'zni ham birdek ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham, davlat fuqarolik xizmatchilarining maqomi huquq, vakolatlar, majburiyat, cheklov, taqiq va javobgarlik kabi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan subinstitutlardan tashkil topgan. Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiqlar tizimi xuddi cheklov tizimi kabi yagona normativ-huquqiy hujjatda emas, balki asosiy qonunimiz - Konstitutsiya moddalarida tarkibida, ichki lokal hujjatlarda, Vazirlar Mahkamasi qarorlarida, Prezident farmonlarida keltirib o'tilgan.

Yuridik adabiyotlarda "taqiq" terminiga xalqaro va milliy olimlar turli munosabat bildirib o'tishgan. Xususan, rus olimi V.V.Kozlov "taqiq" masalasida quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan: davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq taqiqlar –qonun hujjatlarida davlat xizmatlari vazifalariga mos kelmaydigan harakatlarni belgilaydigan huquqiy normalardir. Shuningdek, davlat xizmatchilarining korrupsion xatti-harakatlarini oldini olish maqsadida belgilangan taqiq normalarining buzilishi davlat xizmatchilarining yuridik javobgarligiga olib keladi, shu jumladan, davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq munosabatlarni muddatidan oldin tugatish uchun asos bo'lishi mumkin.⁹⁰ K.Shvetova aytishicha: "taqiq" – bu davlat tomonidan belgilangan, umummajburiy xarakterga ega bo'lgan huquqiy tartibga solishning imperativ usuli bo'lib, muayyan xatti-harakatlarni sodir etmaslikni talab qiladi, taqiq normalarining buzilishi yuridik javobgarlikni keltirib chiqaradi.⁹¹

Yana bir rus olimi N.S.Malein shunday fikrlarni aytgan: qonunchilik tizimida huquqiy taqiqlar katta ahamiyatga ega, tashqi tomondan qaraganda taqiq tartibga solishning nodemokratik shaklidek tuyulsa-da, aslida u xulq-atvor erkinligini amalga oshirishning huquqiy vositasidir, chunki u taqiqlar vositasida

⁹⁰ Козлов.В.В.“Ограничения, запреты и обязанности, связанные с прохождением военной службы, установленные федеральным законодательством о противодействии коррупции и о государственной гражданской службе Российской Федерации” // Право в Вооруженных Силах, 2001.

⁹¹ Шветова К.Г. Ограничения и запреты в структуре правового статуса военнослужащих // «Военное право» № 3 (31) 2014 г.

hamma uchun to'liq va teng erkinlikni ta'minlaydi, taqiqlar orqali jamiyat va davlat, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlariga putur yetishini oldini oladi.⁹² Darhaqiqat, taqiqlar xuddi insonlarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini buzadigandek tuyuladi, chunki asosiy qonunimiz - Konstitutsiyada shaxslarning huquq va erkinlari faqat sud qarori asosida cheklanishi mumkin ekanligi aytib o'tilgan, biroq qonunchilikda taqiqlarning mavjudligi ijobiy xususiyatga ega, chunki ko'plab vakolatga ega shaxslarga muayyan taqiqlar o'rnatish yordamida boshqalarning ham qonuniy huquq va manfaatlari himoya qilinadi. E.Xojiev va T.Xojiev taqiq va cheklov o'rtasidagi farqqa to'xtalib, cheklovda davlat xizmatchilarining axloqi va xatti-harakatlari cheklanadi, taqiqda esa – qat'iy man etiladi deb tushuntirishgan.⁹³

Fikrimizcha, taqiqlar - bu davlat xizmatini o'tash vaqtida amalga oshirib bo'lmaydigan holatlardir. Xodim bunday harakatlarni amalga oshirganda unga nisbatan ishdan bo'shatishgacha bo'lgan javobgarlik choralari qo'llanilishi mumkin. Yuqoridagi olimlarning fikrlariga asoslanib aytish mumkinki, taqiqlar ma'muriy huquq normalarida mustahkamlangan ko'rsatmalar bo'lib, davlat xizmatchisiga qonunda sanab o'tilgan harakatlarni davlat majburlov choralari qo'llash tahdidi ostida amalga oshirishga ruxsat bermaydi.

Rus olimi D.A. Krivonosov davlat xizmatlari tizimidagi taqiqlarni turli mezonlarga qarab quyidagicha tasniflagan:⁹⁴

- tarqalish doirasiga qarab: umumiy va maxsus taqiqlar;
- qo'llanish doirasiga qarab: xodimning tashqi faoliyatida va ichki munosabatlarida qo'llaniladigan taqiqlar;
- davlat-xizmat munosabatlarini amalga oshirish bosqichidan kelib chiqib: a) davlat xizmatini ko'rsatish boshlanishidan oldin; b) davlat xizmatini bajarish jarayonida; v) davlat xizmati tugatilgandan keyin qo'llaniladigan taqiqlar;

⁹² Малеев Н. С. Современные проблемы юридической ответственности // Государство и право. 1994

⁹³ Хожиев Э., Хожиев Т. Маъмурий ҳуқуқ. – Т.: Фан ва технология, 2008. – Б. 232.

⁹⁴ Кривonosов Д. А. Административные запреты в системе государственной службы Российской Федерации автореф. дис.канд. юрид. наук. М., 2009. С. 8.

- davlat xizmatining turi bo'yicha: a) davlat; b) harbiy; v) huquqni muhofaza qilish xizmatiga oid taqiqlar;
- davlat xizmatiga oid munosabatlar ishtirokchilari doirasidan kelib chiqib: a) davlat xizmatchisiga; b) uning turmush o'rtog'iga yoki yaqin qarindoshlariga; v) davlat xizmatchisining ijro va ma'muriy faoliyatida ishtirok etuvchi fuqarolarga va xo'jalik yurituvchi subyektlarga qo'llaniladigan taqiqlar;
- insonlar xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'muriy taqiqlar: a) davlat xizmatchisi; b) uning turmush o'rtog'i, shuningdek voyaga yetmagan bolalariga nisbatan tatbiq etiladigan taqiqlar.

“Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonun loyihasining 13-moddasida davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan quyidagi taqiqlar belgilangan:

- shaxsan yoki ishonchli vakillar yordamida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga;
- tijorat tashkiloti boshqaruvi organi a'zosi bo'lishga, davlat ulushi bo'lgan tashkilotlar bundan mustasno;
- davlat fuqarolik xizmatchisi o'zi xizmat qiladigan yoki ularning mustaqilligini buzilishiga olib keladigan aloqa va manfaatlarga ega bo'lgan davlat organi yoki tashkilotning nazorati ostidagi tashkilotlarda ulushlar, paylar va aksiyalarni to'g'ridan-to'g'ri yoki vakillar orqali sotib olishga;
- jismoniy va yuridik shaxslardan xizmat vazifalarini bajarish yoki davlat fuqarolik xizmatchisi mavqeidan foydalanib biror-bir mukofotlarni olishga;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ruxsatisiz xorijiy davlatlar, xalqaro va chet el davlatlari tashkilotlarining mukofotlari, faxriy va maxsus unvonlarini olish, ilmiy unvon va darajalar bundan mustasno;
- o'z xizmat mavqei yoki davlat fuqarolik xizmatchisining maqomi bilan bog'liq qonunda nazarda tutilmagan imtiyoz va afzalliklardan foydalanish;
- siyosiy partiyaga a'zo bo'lish.⁹⁵

Vazirlar Mahkamasining 62-sonli qarori 15-bandiga ko'ra: davlat

⁹⁵ O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni loyihasi. ID-18047. <https://regulation.gov.uz/oz>. 13-modda.

xizmatchilarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlanadi.⁹⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 103-sonli qarorida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro'yxati berilgan.⁹⁷ Davlat xizmatchisining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi shaxsiy manfaatdorlik zahirida manfaatlar to'qnashuvi holatini yuzaga keltiradi. Davlat xizmatchisi o'zi ega bo'lgan vakolatlardan, lavozim mavqeidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish davomida tekshiruvlardan ozod bo'lish, soliq imtiyozlarini, kredit bilan bog'liq preferensiyalarni qo'lga kiritishda foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, davlat xizmatchisi qonun ishlab chiqish tashabbuskori bo'lsa, o'z manfaatlarini ko'zlab qonun qabul qilinishiga erishishi, lobbistik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin. Ammo hozirda mazkur taqiq o'rnatilganiga qaramay, davlat xizmatchilarini o'z nomi bilan emas, balki uchinchi shaxs bo'lmish vakil, tanish-bilishlari, qarindosh-urug'lari nomida tadbirkorlik subyektini ro'yxatdan o'tkazib, bir vaqtda davlat xizmatini o'tash davomida vakolatlaridan foydalanib, mazkur tadbirkorlik subyektiga turli imtiyoz va preferensiyalar berish, davlat xaridlarida faol ishtirok etib, bir qancha loyihalarni imtiyozli asosda qo'lga kiritish holatlariga guvoh bo'lmoqdamiz.⁹⁸ Shu bois, ushbu taqiq ustidan nazorat mexanizmini kuchaytirish, qat'iy javobgarlik chorasini o'rnatish zarur.

“Davlat xizmatchilarining Odob-axloq kodeksi” loyihasi 21-moddasida ham ushbu taqiqqa oid kengroq qoidalar nazarda tutilgan: jumladan, davlat xizmatchisiga tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida yoki nomidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlanadi. Davlat xizmatchisi tijorat tashkilotlarining

⁹⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-mart kuni qabul qilingan “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi 62-sonli qarori// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son).

⁹⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-mart kuni qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro'yxati to'g'risida”gi 103-sonli qarori.

⁹⁸ Mahmudov Firuz Baxtiyor o'g'li, “Davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari” yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan ilmiy ish, Toshkent-2021.

muassisi (ishtirokchisi) bo'lishi, ustav kapitalida ishtirok etishi yoki ushbu tashkilotlardagi biron-bir lavozimda faoliyat yuritishi mumkin emas, bundan aksiyalari ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining 10 foizigacha aksiyalariga egalik qilish holatlari mustasno.⁹⁹

Davlat xizmatchisiga bir vaqtda boshqa bir davlat hokimiyati lavozimida ishlash (qo'sh lavozimlilik) taqiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining 62-sonli qarori asosida tasdiqlangan Odob-axloq qoidalari 15-bandida ham davlat xizmatchilari o'zlarining o'z xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishiga yoki ularga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan faoliyatni amalga oshirmasligi, shuningdek lavozimni egallamasligi kerakligi belgilangan.¹⁰⁰ A.Richard va J.Champagne qo'sh lavozimlilik masalada shunday fikr bildirganlar: davlat hokimiyati bo'linish prinsipidan kelib chiqib turli davlat organlarida, tashkilotlarida xizmat ko'rsatuvchi davlat xizmatchilarining har bir lavozimdan kelib chiqqan o'z vazifalari o'rtasida qarama-qarshilik, nizolar kelib chiqishi mumkinligi, ular faoliyatining xolisligiga putur yetkazishi, vakolatlarini suiiste'mol qilish, vakolatlari doirasidan chetga chiqish kabi holatlarga olib kelishi aytilgan.¹⁰¹ Fikrimizcha, davlat xizmatchisining qo'sh lavozimda faoliyat yuritishi davlat, xizmat siri va faoliyat yuritayotgan tashkilot, korxonasi sirini saqlashga putur yetkazishi, har bir lavozim doirasidan kelib chiqib muayyan huquqlarga ega bo'lish, har ikkala lavozim vakolatlaridan bir-biriga qarshi yoki bir-birini kamchiliklarini yashirish, qo'llab-quvvatlash manfaatida foydalanilishi mumkin. Shu boisdan, davlat xizmatchisining qo'sh lavozimda faoliyat yuritishi, bundan tashqari, bo'ysunuvchi yoki bir-birining nazoratidagi davlat tashkilotida o'rindoshlik asosida ishlashi ham taqiqlanadi.¹⁰²

⁹⁹ "O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilarining odob-axloq kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarori.

¹⁰⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-mart kuni qabul qilingan "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 62-sonli qarori// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son).

¹⁰¹ A.Richard, J.Champagne.The Separation of Powers, Institutional Responsibility, and the Problem of Representation. <http://scholarship.law.marquette.edu/mulr/vol75/iss4/5>

¹⁰²"O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilarining odob-axloq kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarori.

Davlat xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiqlardan yana biri bu – siyosiy partiyalarga a'zolik masalasidir. Davlat xizmatchilari siyosiy partiyaga a'zo bo'lishi, mansab vakolatlarini siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va ularning organlari manfaatlari yo'lida amalga oshirishga haqli emas. Ushbu qoida davlat hokimiyati vakillik organiga saylangan siyosiy davlat xizmatchilariga nisbatan tatbiq etilmaydi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari va uning o'rinbosarlari, Prezident maslahatchilari va ularning o'rinbosarlari, Vazirlar Mahkamasi a'zolari, viloyat, tuman va shahar hokimlariga ham tatbiq etilmaydi. Shu bilan birga, davlat tashkilotlari rahbarlariga o'z xodimlaridan ular mehnat vazifalarini bajarayotgan paytda partiya nomidan siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishni talab qilishi taqiqlanadi. “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi qonun 4-moddasiga ko'ra quyidagi shaxslar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar: sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining mansabdor shaxslari, prokurorlar va prokuratura tergovchilari, ichki ishlar, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari, davlat xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.¹⁰³

Davlat xizmatchisiga o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki uchinchi shaxslar orqali jismoniy yoki yuridik shaxslardan har qanday ko'rinishdagi moddiy boyliklarni olish yoxud xizmatlarni qabul qilish taqiqlanadi. Davlat xizmatchisi tomonidan nazorat-tekshiruv tadbirlari o'tkazilayotgan davlat tashkilotining rahbari yoki xodimlarining ish jarayonidagi mehmondo'stlik belgilar bo'yicha takliflarni qabul qilishlari taqiqlanadi. Shu bilan birga, davlat xizmatchisining chet el va hududiy xizmat safarlarida bo'lgan vaqtida ish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan sovg'a va mehmondo'stlikni qabul qilish mumkin emas, ushbu talabga rioya qilinmagan taqdirda davlat xizmatchisiga nisbatan xizmat tekshiruvi tayinlanadi. Agarda ish jarayonidagi mehmondo'stlik belgilari davlat xizmatchisining xabardorligisiz amalga oshirilgan taqdirda, davlat xizmatchisi bu holat

¹⁰³ O'zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi qonuni. 1996-yil 26-dekabr, 337-I-son.

yuzasidan xabar topgan vaqtdan boshlab davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalariga bir ish kuni ichida xabar berishlari kerak.¹⁰⁴

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6257-son farmonida 2022-yil 1-yanvardan boshlab davlat xizmatchilariga respublika hududidan tashqarida hisobraqamlar ochish va egalik qilish, naqd pul mablag'larini saqlash, ko'chmas va boshqa mol-mulkka ega bo'lish taqiqlanadi (xorijda ishlayotgan davlat xizmatchilari va davlat xizmatiga kirishdan oldin olingan mol-mulk bundan mustasno).¹⁰⁵

Endi esa bevosita taqiq va cheklovlarga amal qilinishi ustidan nazorat o'rnatish, ularni buzgan taqdirda javobgarlikka tortilish masalalariga to'xtalib o'tsak. Davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga rioya qilishi ustidan davlat xizmat organi rahbari, tegishli organning kadrlar bo'limi, ichki inspeksiyalar, odob-axloq komissiyasi, maxsus bo'linmalar nazoratni amalga oshiradilar. Davlat xizmatchisi tomonidan taqiq va cheklovga amal qilinmaganligi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yganligiga oid xabarlar fuqarolar, boshqa bir davlat xizmatchisi, jamoatchilik vakillari tomonidan rahbarga berilishi mumkin. Rahbar vaziyatni hal qilish uchun taqiqni buzgan davlat xizmatchisi faoliyatiga oid tegishli hujjatlarni kadrlar bo'limidan so'rab olishi, yig'ilgan materiallarni ishni hal qilish uchun odob-axloq komissiyasiga yoki maxsus bo'linmaga taqdim etishi lozim. Komissiya chiqargan xulosa rahbar tomonidan davlat xizmatchisiga nisbatan javobgarlik chorasini belgilash, manfaatlar to'qnashuvi holatini bartaraf etishga qaratilgan choralarni ko'rish to'g'risida buyruq chiqarishiga asos bo'ladi.¹⁰⁶ Davlat xizmatchisi tomonidan Odob-axloq qoidalari, taqiq va cheklovlar buzilgan taqdirda, huquqbuzarlik

¹⁰⁴ "O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilarining odob-axloq kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarori.

¹⁰⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyul kuni qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-sonli Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021-y., 06/21/6257/0645-son.

¹⁰⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-mart kuni qabul qilingan "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 62-sonli qarori// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son).

maxsus tarkibiy bo‘linma yoki Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tashkilotda bunday tuzilmalar mavjud bo‘lmagan taqdirda, davlat organi xodimlaridan kamida 5 kishidan iborat tarkibda tuziladi.

Odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini maxsus tarkibiy bo‘linma yoki Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha intizomiy yoki boshqacha tarzdagi huquqbuzarlik mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida xulosa chiqariladi. Odob-axloq komissiyasi davlat xizmatchisini tegishli javobgarlikka tortish bo‘yicha rahbarga taklif ham kiritishi mumkin yoki shunchaki davlat xizmatchisiga hech qanday javobgarlik belgilamay, odob-axloq qoidalarini boshqa buzmasligi kerakligi haqida ogohlantirishi mumkin. Davlat xizmatchisi Odob-axloq komissiyasi yoki rahbarning qarori ustidan tegishli organlarga murojaat qilishi mumkin.

Odob-axloq qoidalariga rioya qilmagan shaxslarga nisbatan rahbar tomonidan chora ko‘rish, ko‘p hollarda davlat xizmatchisiga nisbatan noqonuniy intizomiy chora qo‘llash yoki aksincha, davlat xizmatchisini javobgarlikka tortilmay qolib ketishiga olib keladi. Rus olimi Glazirin davlat xizmatchilari ustidan manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yganligi, taqiq va cheklovga amal qilinmaganligi to‘g‘risida xabar kelib tushgan taqdirda xizmatchi yuzasidan xizmat tekshiruvi, ichki audit tekshiruvi tayinlanishiga qo‘shimcha davlat xizmatchilari faoliyati bo‘yicha xabar kelib tushmagan taqdirda ham tashabbus asosida muayyan muddatlar (choraklar) oralig‘ida ichki audit tekshiruvi o‘tkazib turish maqsadga muvofiq ekanini ta‘kidlagan.¹⁰⁷ Javobgarlik masalalarida huquqshunos olim Nozdrachev davlat xizmatchisi tomonidan odob-axloq qoidalari buzilgan, taqiq va cheklovlarga rioya qilinmagan taqdirda bevosita maxsus huquqni muhofaza qiluvchi organlar intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etishi yoki tashkilotning mas‘ul vakolatli organiga, rahbarga xodimni intizomiy javobgarlikka tortish haqida taqdimnoma kiritishi lozim ekanini aytib o‘tgan. U javobgarlik choralari sifatida taqiq va cheklovga

¹⁰⁷ Глазырин.Т.С.“Анализ деятельности комиссий по соблюдению требований к служебному поведению гражданских и муниципальных служащих и урегулированию конфликта интересов”, Москва-2016, С 84

amal qilmagan xizmatchining lavozim va xizmat mavqeini o'zgartirishni, lavozim (xizmat) vazifalaridan bo'shatishni, pastroq lavozimga o'tkazishni, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga sabab bo'lgan xizmatchining mulki, moddiy qimmatliklarini olib qo'yish kerakligini taklif sifatida kiritgan.¹⁰⁸

Birgina Adliya vazirligi misolida "komplayens nazorat" tizimini ko'rib chiqsak. Avvalo, korrupsiyaga qarshi normativ bazani tahlil qilsak, Adliya vazirligida "Adliya organlari va muassasalari xodimlarining odob-axloq qoidalari", "Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi" va "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati" kabi ichki normativ hujjatlar bazasi ishlab chiqilgan. Adliya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tashkil etilgan. Adliya vazirligining "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati"da yaqin qarindoshlik, xodimlarning shaxsiy manfaatdorlik masalalari, manfaatlar to'qnashuviga oid holatlar, korrupsiyaviy xavflar, kontragent masalalari, xodimlar tomonidan qabul qilinadigan sovg'a va mehmondo'stlikka oid tartibni belgilovchi qoidalar, xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya qilinmagan taqdirda qo'llanadigan jazo mexanizmi belgilangan. Bundan tashqari, Adliya vazirligida "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi nizom ham qabul qilingan bo'lib, unda manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlar keltirilgan. Shu bilan birga, "Adliya organlari va muassasalari xodimlarining odob-axloq qoidalari" ishlab chiqilgan bo'lib, umumiy qoidalar bilan birga maxsus normalar, jumladan, manfaatlar to'qnashuvi, favoritizm, nepotizmga oid qoidalar, Odob-axloq komissiyasining vazifalari, faoliyat yuritish tartibiga oid qoidalar ham o'rin olgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, davlat xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlardan maqsad davlat xizmatchilarining o'z vakolatlarini amalga oshirishda samarali kasbiy sharoitni ta'minlash, davlat xizmatchilarining vakolat va mavqe suiiste'molliklarini, sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni oldini olishdan, davlat xizmatchisining mustaqilligi va shu bilan birga, davlat,

¹⁰⁸ Ноздрачев.А.Ф. Основные выводы и рекомендации. М: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации: Инфра-М, 2016. – С. 167-174

jamiyat va fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Taqiq va cheklovlar ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida har bir tashkilotning ichki muhitida rahbarning, maxsus bo'linma va o'dob-axloq komissiyalarining rolini oshirish, korrupsiyaga qarshi ichki normativ bazani shakllantirish va qat'iy jazo mexanizmini joriy etish muhim hisoblanadi. Yana bir holatga e'tibor qaratish lozimki, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun loyihasida davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish bo'yicha taqiqlar o'rnatilgan. Vaholanki, amaliyotda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining asosiy qismini turli sohalarda ancha yillik tajribalarga ega bo'lgan davlat fuqarolik xizmatchilari tashkil etadi. "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida ham siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishi taqiqlangan davlat xizmatchilarining qat'iy ro'yxati belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda prokurorlar, sudyalari ham siyosiy partiyaga a'zo bo'lgan taqdirda, siyosiy faoliyatda ishtirok etib, muayyan lavozimlarga (masalan, xalq deputatlari kengashiga, Qonunchilik palatasiga) saylangan taqdirda o'z lavozimini ma'lum muddatda to'xtatib turishi va saylangan lavozim bo'yicha vakolat muddati tugagan taqdirda avvalgi lavozimiga qaytishi mumkinligi qonunchilikda mavjud. Shu bois, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun loyihasini isloh qilish, siyosiy partiyalarga a'zolikni taqiqlash emas, unga ko'ra davlat fuqarolik xizmatchilari siyosiy partiyalarga a'zo bo'lgan, siyosiy faoliyatda ishtirok etgan taqdirda muayyan muddat davomida avvalgi lavozimi vazifalaridan ozod etilishi va lavozimi saqlab qolinishi lozim, degan normani kiritish maqsadga muvofiq.

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XIZMATLARIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLIISH MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH:

3.1-§. Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga oid xalqaro standartlar va xorijiy tajriba

Davlat fuqarolik xizmatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni joriy etishda, normativ-huquqiy hujjatlarda mavjud bo'shliqlarni to'ldirishda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalaridan, xalqaro standartlarda belgilangan qoidalardan ilmiy va amaliy jihatlarida foydalanish, davlat xizmatchilari faoliyatini yaxshilashga, korrupsiyaga toqatsiz muhitni shakllantirishga oid takliflar bilan qonunchilikni boyitishga xizmat qiladi. Xalqaro standartlardan BMTning "Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi"ni, OECD (IHIT) ning "Istanbul harakatlari rejasi", GRECO ning o'ziga a'zo bo'lgan davlatlarga bergan tavsiyalarini, bundan tashqari, MDH davlatlari, xususan, Rossiya, Qozog'iston va boshqa bir qator yevropa davlatlarining davlat fuqarolik xizmatlariga oid qonunchiligini o'rganish mazkur sohani rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Rossiya qonunchiligini o'rganadigan bo'lsak, davlat xizmatchilariga nisbatan 4 kategoriyada taqiq va cheklovlar o'rnatilgan: sovg'a, har xil to'lovlar va mukofotlarni qabul qilishda; boshqaruv organlarida, tadbirkorlik va boshqa haq to'lanadigan faoliyatda ishtirok etish bo'yicha; xizmatdan bo'shatilgandan keyingi mehnat faoliyati bilan bog'liq va boshqa taqiq, cheklovlar nazarda tutilgan.¹⁰⁹

Birinchi kategoriya bo'yicha, davlat xizmatchilariga yuridik va jismoniy shaxslardan sovg'alar, mukofotlar, to'lovlar qabul qilish taqiqlanadi. Rossiyaning "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni 17-moddasiga ko'ra: davlat fuqarolik xizmatchilariga mansab va lavozim majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'alar, pullik

¹⁰⁹ «Запреты и ограничения на госслужбе». Методический материал. Настоящий методический материал предназначен для государственных (муниципальных) служащих, направлен на повышение уровня правосознания и формирования устойчивого антикоррупционного поведения. Москва-2016.

to'lovlar, ssudalar, xizmatlar, sayohat qilish bilan bog'liq to'lovlar, transport xarajatlari va boshqa mukofotlarni qabul qilish taqiqlanadi.¹¹⁰

Rossiya qonunchiligiga ko'ra, davlat xizmatchilariga tijorat tashkiloti boshqaruv organida qatnashish, uning a'zosi bo'lish, noijorat tashkilotlarida, jamoatchilik va diniy tashkilotlarda, iste'molchilarning kooperativlarida ishtirok etib, analitik faoliyat bilan shug'ullanish taqiqlanmagan. Davlat xizmatchilariga pul to'lovlari, sherikchilikdagi ulushga, tashkilotlarda kapitalga, aksiya, bank omonat jamg'armalari, deposit sertifikatlariga, zaklat, veksel, pay, ipoteka sertifikat, konosament, obligatsiya, opsiya, chek, deposit va boshqa moddiy manbalarga ega bo'lish mumkin, faqat ular ishonchli boshqaruvchiga o'tkazilishi shart. Bundan tashqari, davlat xizmatchisi xizmatdan bo'shatilgandan so'ng tijorat va notijorat tashkilotlarida muayyan lavozimni egallash huquqiga ega. Biroq, sobiq davlat xizmatchisi xizmatdan bo'shatilgandan so'ng ikki yil davomida oxirgi ish joyi rahbarini mehnat munosabatlarini davom ettirayotgan yangi ish joyi haqida xabardor qilishi lozim, agarda mazkur tashkilot davlat xizmatchisi ilgari faoliyat olib borgan davlat organiga bevosita bo'ysunsa yoki uning nazoratida bo'lgan bo'lsa. Bunda sobiq davlat xizmatchisi fuqarolar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi, tashkilot bilan tuzilgan mehnat shartnomasi haqida u tuzilgan kundan boshlab 10 kun ichida oxirgi ish joyi rahbariga xabarnoma yuborishi lozim. Mazkur talablarga rioya qilmaslik sobiq davlat xizmatchisini RF Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 19.29 moddalari asosida ma'muriy jarimaga tortishga sabab bo'ladi.¹¹¹ RF "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni 16-moddasida davlat xizmatiga kirishda o'rnatilgan cheklovlar, 17-moddasida esa xizmatni o'tash vaqtida qo'llaniladigan taqiq va cheklovlar nazarda tutilgan. Jumladan, taqiqlar qatorida quyidagilar sanab o'tilgan:¹¹²

¹¹⁰ Федерального закона от 27 июля 2004 года № 79-ФЗ «О государственной гражданской службе Российской Федерации».

¹¹¹ РФ «Кодекса об административных правонарушениях» 30.12.2001. N195-ФЗ ст. 19.29

¹¹² Федерального закона от 27 июля 2004 года № 79-ФЗ «О государственной гражданской службе Российской Федерации» СТ 17.

- tijorat yoki notijorat tashkilotini boshqarishda ishtirok etish, quyidagilar bundan mustasno, siyosiy partiyani, kasaba uyushmasi organini, shu jumladan davlat organida tashkil etilgan boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotining saylangan organini boshqarishda bepul asosda ishtirok etish, boshqa partiyaning syezdi (konferensiyasi) yoki umumiy yig'ilishida, jamoat tashkiloti, uy-joy qurilishi, garaj kooperativlari, ko'chmas mulk egalarining uyushmalarida, notijorat tashkilotini boshqarishda bepul asosda ishtirok etish kabilar;
- shaxsan yoki vakolatli shaxslar orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, daromad olinishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlarni sotib olish, davlat xizmati lavozimini egallagan organda uchinchi shaxslarning advokati yoki vakili bo'lishi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan Rossiya Federatsiyasi hududidan tashqarida xizmat safariga chiqish, bundan RF ning mas'ul davlat organlari, mahalliy davlat organlari, xorijiy davlat organlari, Xalqaro tashkilotlar bilan kelishuvi asosida ular hisobidan xizmat safariga chiqish mustasno;
- chet davlatlarning, xalqaro tashkilotlarning, shuningdek siyosiy partiyalarning, boshqa jamoat birlashmalarining va diniy birlashmalarining mukofotlari, faxriy va maxsus unvonlarini (ilmiy unvonlar bundan mustasno) rahbarning yozma ruxsatisiz qabul qilish, agar xizmat vazifalarida ular bilan ishlash nazarda tutilgan bo'lsa;
- siyosiy partiyalar, boshqa jamoat birlashmalari, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar manfaatlarini ko'zlab mansab vakolatlaridan foydalanish, shuningdek, agar xizmat vazifalariga kirmasa, davlat xizmatchisi sifatida ushbu birlashma va tashkilotlarga o'z munosabatini oshkora izhor etish;
- rahbarning yozma ruxsatisiz xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanish;

- davlat xizmatchisiga, uning xotiniga (eriga) va voyaga etmagan bolalariga Rossiya Federatsiyasi hududidan tashqarida joylashgan xorijiy banklarda hisob raqamlari (depozitlari) ochishi va bo'lishi, naqd pul va qimmatbaho narsalarni saqlashi, chet el moliyaviy vositalariga egalik qilishi va (yoki) ulardan foydalanish taqiqlanadi; (2016);
- davlat xizmatchisining qimmatli qog'ozlarga (ulushlar, tashkilotlarning ustav (zaxira) kapitalidagi ulushlari) ega bo'lishi manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan taqdirda, davlat xizmatchisi o'z qimmatli qog'ozlarini (ishtirokchilikdagi ulushlar, tashkilotlarning ustav (zaxira) kapitallaridagi ulushlarni) RF fuqarolik qonunchiligiga muvofiq ishonchli boshqaruvchiga topshirishi lozim;
- davlat xizmatchisi xizmatdan bo'shatilganidan so'ng ikki yil mobaynida oldingi xizmat joyidagi odob-axoq qoidalariga amal qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi va manfaatlar to'qnashuvini tartibga soluvchi komissiyaning ruxsatisiz davlat tashkilotlarida mehnat shartnomasi asosida muayyan lavozimni egallashga, fuqaroviy-shartnoma asosida xizmat ko'rsatishga haqli emas, mazkur davlat tashkilotida unga yuklatilgan vazifalar uning davlat xizmatchisi sifatidagi ilgarigi vazifalarini o'z ichiga olsa.¹¹³

RF qonunchiligiga ko'ra, davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya qilmaslik, o'rnatilgan taqiq va cheklovlarni buzish quyidagi intizomiy choralarni qo'llashga asos bo'ladi: tanbeh, xayfsan, xizmat majburiyatlariga to'liq amal qilinmaganligi haqida ogohlantirish, xizmatdan bo'shatish. Xizmatdan bo'shatish intizomiy chora sifatida quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

- davlat xizmatchisi tomonidan manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va (yoki) hal etish choralarni ko'rmaslik;
- xodim tomonidan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etmaslik yoki ataylab yolg'on yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etish;

¹¹³ Федерального закона от 27 июля 2004 года № 79-ФЗ «О государственной гражданской службе Российской Федерации» СТ 17.

- davlat xizmatchisining tijorat tashkilotining boshqaruv organi faoliyatida haq to'lash asosida ishtirok etishi;
- xodim tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish;
- davlat xizmatchisining Rossiya Federatsiyasi hududida faoliyat yurituvchi boshqaruv organlari, vasiylar yoki kuzatuv kengashlari, xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining boshqa organlari va ularning tarkibiy bo'linmalari tarkibiga kirishi;
- davlat xizmatchisi, uning xotini (eri) va voyaga etmagan bolalari tomonidan Rossiya Federatsiyasi hududidan tashqarida joylashgan xorijiy banklarda hisob raqamlari (depozitlari) ochish, naqd pul va qimmatbaho narsalarni saqlash, chet el moliyaviy mablag'lariga egalik qilish va (yoki) ulardan foydalanishni taqiqlash qoidalarini buzish.

Davlat xizmatchisiga nisbatan intizomiy jazo chorasi rahbar buyrug'i bilan korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish bo'limi tomonidan o'tkazilgan ichki audit natijalariga oid hisobot, mazkur dalolatnomani ko'rib chiqish asosida odob-axloq komissiyasi bergan xulosa asosida odob-axloq qoidalarini hamda taqiq va cheklovlar buzilganligi haqidagi ma'lumot olingan kundan e'tiboran bir oy ichida qo'llaniladi. Davlat xizmatchisiga nisbatan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va normativ-huquqiy hujjatlardagi qoidalarini buzganligi uchun intizomiy jazoni qo'llash to'g'risidagi dalolatnomaning yoki davlat xizmatchisiga nisbatan bunday jazoni qo'llashni rad etish to'g'risidagi dalolatnomaning sabablari ko'rsatilgan holda; tegishli dalolatnoma chiqarilgan kundan boshlab besh kun ichida davlat xizmatchisiga tilxat olib topshiriladi. Davlat xizmatchisining roziligi bilan va u korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etganlik faktini tan olgan taqdirda, unga nisbatan intizomiy chora (ishonchni yo'qotganligi sababli ishdan bo'shatish bundan mustasno) kadrlar bo'limining bayonnomasi asosida qo'llanilishi mumkin. 2014-yil 1-avgustdan boshlab intizomiy jazolar tekshirish uchun asos bo'lgan ma'lumotlar olingan kundan oldingi uch yil mobaynida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun qo'llanilishi mumkin. Agar jazo qo'llanilgan kundan boshlab bir yil ichida davlat xizmatchisi

federal qonun bilan intizomiy jazoga tortilmasa, u javobgarlikka tortilmagan hisoblanadi. Davlat xizmatchisi intizomiy jazoga tortilganligi yuzasidan yozma ravishda davlat organining “xizmat nizolari bo'yicha komissiyasi”ga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.¹¹⁴

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, anglo-sakson huquq tizimi amal qiladigan Buyuk Britaniya, Kanada, AQSH kabi davlatlarda yagona davlat xizmatlariga oid qonun qabul qilinmagan, davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi turli xil normativ aktlarda mustahkamlangan. Roman-german huquq tizimiga mansub Germaniya, Italiya, Fransiya kabi davlatlarda davlat xizmatiga oid yagona umumlashgan qoidalarni o'z ichiga olgan normativ akt ishlab chiqilgan. Masalan, Fransiyada “Mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlari to'g'risida”gi qonun qabul qilingan. “Davlat fuqarolik xizmati” tushunchasi Roman-german huquq tizimidagi davlatlarda, Sharqiy Yevropa, Boltiqbo'yi mamlakatlarida turlicha sharhlanayotgan bo'lsa, anglo-sakson huquqida davlat fuqarolik xizmati o'zi nima degan savol ochiq qolmoqda. Buyuk Britaniya, Avstraliya davlatlari qonunchilik organi davlat xizmatini (fuqarolik va ommaviy) kabi turlarini nazarda tutmagan ham, ularda davlat xizmati muayyan sistemaga solinmagan. Kanadada ilk bor “davlat xizmati” tushunchasi “Davlat xizmatchilarining mehnat munosabatlari” to'g'risidagi qonunda berib o'tildi. Turli huquqiy tizimlarga qarab davlatlar qonunchiligida davlat fuqarolik xizmatchilari, davlat ommaviy xizmatchilari kategoriyasiga turli organ, tashkilot xodimlari kiritilgan. Buyuk Britaniyada davlat xizmati fuqarolik va ommaviy xizmatga ajratilmasa-da, uning qonunchiligida vazirlikdagi davlat xizmatchilari, siyosiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi, sudya lavozimidagi hamda davlat budjetidan haq oladigan davlat xizmatchilariga ajratilgan. Kanadada davlat xizmatchilari ro'yxati yollanish yo'liga qarab: vazirlik tarkibidagi departamenda xizmat qiluvchi; davlat fuqarolik xizmati komissiyasi tomonidan tayinlangan; G'aznachilik kengashi tomonidan tayyorlangan Davlat xizmatini rivojlantirish

¹¹⁴ Федерального закона от 27 июля 2004 года № 79-ФЗ «О государственной гражданской службе Российской Федерации» СТ 59.1, 59.2, 59.3.

dasturida kiritilgan xizmatchilar kiradi. AQSH da federal davlat xizmatchisining yagona belgisi – bu uning davlat budjetidan ish haqi olishidir. Bolgariya, Germaniya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Latviya, Polsha, Rossiya, Fransiya, Yaponiya va boshqa davlatlarda davlat xizmatchilari hokimiyatlar bo‘linish prinsipi (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud) asosida kategoriyalarga ajratiladi. Biroq aksari ko‘p davlatlarda davlat xizmati fuqarolik va siyosiy kabi turlarga bo‘linadi. Siyosiy davlat xizmatchilariga – davlat sektoridagi parlamet a‘zolari, sudyalari (Fransiya, Buyuk Britaniyada), vazirlar, mahalliy hokimiyat organi xodimlari (Buyuk Britaniyada), prezident tomonidan tayinlanadigan davlat xizmatchilari (Kandada), federal ijroiya hokimiyat organi rahbarlari, prezident yordamchi va maslahatchilari (AQShda) kiradi. Qozog‘istonda “davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, undagi qoidalar ham siyosiy davlat xizmatchilariga, ham mansabdor shaxslarga ham tatbiq etiladi. Qurolli kuchlar va ichki ishlar (Buyuk Britaniyada), xavfsizlik agentliklari va Bosh buxgalteriya idorasi (AQShda) xodimlari davlat xizmati to‘g‘risidagi qonunlar doirasidan tashqarida turadi. Buyuk Britaniyada siyosiy xizmatchilardan tashqari, ichki ishlar organlari, qurolli kuchlar xodimlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat korporatsiyalari, sog‘liqni saqlash organlari xodimlariga nisbatan davlat xizmati to‘g‘risidagi qonun qo‘llanilmaydi. Biroq, diplomatik xizmat davlat xizmtiga kiradi, bunga tashqi ishlar vazirligi diplomatik xodimlarining diplomatik xizmatda bo‘lganligi sabab bo‘lmoqda.¹¹⁵

O‘zbekiston Respublikasida “davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari, Bosh vazir, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a‘zolari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, hokimlar, Qoraqalpog‘iston

¹¹⁵ Анализ опыта правового регулирования государственной службы зарубежных стран и предложения по его учету при подготовке законопроекта «О государственной службе»
https://www.norma.uz/raznoe/analiz_opyta_pravovogo_regulirovaniya_gosudarstvennoy_slujby_zarubejnyh_stran_i_predlozheniya_po_ego_uchetu_pri_podgotovke_zakonoproekta_o_gosudarstvennoy_slujbe

Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va mahalliy vakillik organlari deputatlari, shuningdek sudyalarga tatbiq etilmaydi, shu bilan birga, milliy xavfsizlik organlari, prokuratura, ichki ishlar, diplomatik, bojxona va soliq xizmatlari, sudlar apparati, harbiy xizmatchilariga ham. Davlat xizmatlari sohasida kadrlar masalasi bilan Kanadada Davlat xizmati komissiyasi, AQSHda Xodimlarni boshqarish xizmati, Fransiyada Ma'muriyat va davlat xizmati bosh boshqarmasi, Germaniyada Federal kadrlar qo'mitasi shug'ullanadi.

Ko'plab xorijiy davlatlarda odob-axloq kodeksi qabul qilinishining avj olishi, davlat xizmatchilari ustidan nazorat qilishning samarali usuli bo'lmish intizomiy javobgarlik choralari, ularning turlari, qo'llash mexanizmlarini takomillashtirishga turtki bo'ldi. Intizomiy jazo choralari qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilish huquqiga ega bo'lgan organlar va mansabdor shaxslar ro'yxatiga quyidagilar kiradi: davlat xizmatchisining bevosita rahbarlari, tegishli vazirliklar (idoralar) rahbarlari; mansabdor shaxslarning ayrim toifalariga nisbatan ma'muriy jazo choralari qo'llash to'g'risida qaror qabul qiluvchi maxsus tribunallar (Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada); ixtisoslashtirilgan intizomiy komissiyalar (ma'muriy organ ichida yoki undan tashqarida) va boshqalar. Xorijiy davlatlarda intizomiy jazo qo'llash institutining asosiy elementidan biri bu davlat xizmatchisining qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilish huquqidir. Davlat xizmatchisi chiqarilgan qaror ustidan 2 hafta ichida tegishli organga murojaat qilishga haqli. Mazkur murojaat Fransiyada 4 oy, Germaniyada 1 oy ichida ko'rib chiqiladi. Ko'plab xorijiy davlatlarda intizomiy chora sifatida ogohlantirish, tanbeh, xayfsan, jarima, ishdan bo'shatish kabilar qo'llaniladi.

G'arbiy Evropaning deyarli barcha mamlakatlarida (Germaniya, Fransiya, Avstriya, Belgiya), shuningdek, AQSh va Yaponiyada davlat xizmatchisini lavozimidan chetlashtirish va ichki audit tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi qoidalar batafsil tartibga solingan. MDH mamlakatlaridan Qirg'iziston Respublikasining "Davlat xizmati to'g'risida"gi Qonunida davlat xizmatchisini lavozimidan chetlashtirish va ichki audit tekshiruvini o'tkazish tartiblari ko'zda

tutilgan. Buyuk Britaniyada intizomiy bilan birga fuqaroviy javobgarlik ham qo'llaniladi. Davlat xizmtchisi xizmat majburiyatini bajarmaganligi natijasi moddiy zarar yetkazsa, u barcha zararni qoplashi zarur.¹¹⁶

Yaponiyada davlat xizmatining xulq-atvor standartlari "Milliy davlat xizmatining etikasi to'g'risida"gi Qonun va har bir vazirlik va idorada o'rnatilgan axloq kodekslarida bayon etilgan. Ularda yuqori lavozimli amaldorlarning 5 000 iyenadan yuqori bo'lgan qiymatdagi sovg'alar, xayriya va hokazolarni olganligi haqida hisobot berish majburiyati hamda juda yuqori lavozimdagi amaldorlarga o'z aksiyalari va daromadlari to'g'risida hisobot berish majburiyati yuklatilgan. Kadrlar Milliy Boshqarmasi (National Personnel Authority) huzuridagi Davlat xizmatining Etika Kengashi (National Public Service Ethics Board) davlat xizmati etika qoidalari bilan bog'liq masalalar, jumladan, seminarlar o'tkazish, hisobotlarni ko'rib chiqish, etikaga zid xatti-harakatlarni tergov qilish va jazolash masalalari bo'yicha ma'sul hisoblanadi.¹¹⁷ Bundan tashqari, Yaponiyada davlat xizmatchilarining siyosiy faoliyatda ishtirok etishi (saylov huquqidan tashqari), siyosiy partiyalarga kirishi, saylanadigan ommaviy lavozimlarga nomzodini qo'yishi taqiqlanadi, ular siyosiy maslahatchi ham bo'la olishmaydi. Yaponiyada xodimlar bilan ishlash kengashi mavjud bo'lib, u davlat xizmatchilarining siyosiy harakatlardagi ishtirokini qat'iy nazoratga oladi. Davlat xizmatchilari uchun ish tashlash taqiqlanadi, ushbu taqiqni buzgan davlat xizmatchilari ishdan bo'shatilishi, mansabdor shaxslar esa jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.¹¹⁸

Xorijiy mamlakatlarda davlat xizmatchilariga odob-axloq qoidalariga oid seminarlar tashkil etiladi. Avstraliya, Fransiya, Yaponiya, Koreya, Polsha kabi davlatlarda majburiy ravishda davlat xizmatchilari uchun seminarlar tashkil

¹¹⁶ Анализ опыта правового регулирования государственной службы зарубежных стран и предложения по его учету при подготовке законопроекта «О государственной службе»

https://www.norma.uz/raznoe/analiz_opyta_pravovogo_regulirovaniya_gosudarstvennoy_slujby_zarubejnyh_stran_i_predlojeniya_po_ego_uchetu_pri_podgotovke_zakonoproekta_o_gosudarstvennoy_slujbe;

¹¹⁷ <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/davlat-xizmatchisi-ahloq-qoidalari>;

¹¹⁸ Maxmudov Firuz. "Taqiq va cheklovlar – manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishning mexanizmi sifatida"., Yuridik fanlar axborotnomasi-2020, 85-bet.

etilsa, Kanada, Norvegiya, Ispaniya kabi davlatlarda ular ixtiyoriy ravishda olib boriladi. Ba'zi davlatlarda esa, seminarlar o'tkazilishi maxsus agentliklar tomonidan majburiy deb topilgan yoki egallanayotgan lavozim seminar o'tkazilishini majburiy etib belgilangan hollarda majburiy tashkil etilishi mumkin. Bundan tashqari, xorijiy davlatlarda davlat xizmatchilari tomonidan xulq-atvor standartlariga rioya qilinishini monitoring qilish yo'lga qo'yilgan. Masalan, bunday nazorat AQSh va Turkiyada davlat organlari va idoralarning inspeksiya bo'limlari, Italiyada Moliyaviy va davlat xizmati inspeksiyasi, Polshada Nazorat Departamenti, Ispaniyada Tekshiruv Boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Xorijiy davlatlarda korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish funksiyasini turli organlar, jumladan, Estoniya, Georgia, Romaniyada – Adliya vazirligi, Albaniyada – Mahalliy muammolar bo'yicha Davlat Vazirligi, Latviyada – Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish byurosi, Ozarbayjonda – Korrupsiyaga qarshi kurashish Komissiyasi amalga oshiradilar.¹¹⁹

Xorijiy davlatlarda davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilgan hollarda qo'llaniladigan intizomiy choralar esa quyidagilardan iborat:¹²⁰

og'zaki yoki yozma ravishda ogohlantirish, tanbeh, maslahat berish;

jarima solish yoxud ish haqi yoki qo'shimcha imtiyozlarni cheklash va kamaytirish yo'li bilan moddiy qiyinchilikka solish; jarima; ish haqini ushlab qolish, ish haqini kamaytirish, nafaqalarni kamaytirish, pensiya miqdorini pasaytirish; pensiyadan mahrum qilish;

hozirgi yoki kelajakdagi karyerasiga ta'sir ko'rsatish: ishdan bo'shatish, lavozimga o'tishning sekinlashishi, unvondan mahrum qilish yoki yashash joyini o'zgartirish bilan lavozimidan chetlashtirish, vaqtincha ishdan bo'shatish; ishdan bo'shatish, diskvalifikatsiya.

O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan

¹¹⁹ OECD. "Prevention of corruption in the public sector in Eastern Europe and Central Asia, 2015, P-23.

¹²⁰ <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/davlat-xizmatchisi-ahloq-qoidalari>.

quyidagi intizomiy choralarni qo'llash belgilangan: hayfsan; xizmatga to'liq munosib emasligi to'g'risida e'lon qilish; malaka martabasini pasaytirish; davlat lavozimini pasaytirish; davlat lavozomidan ozod qilish va Milliy kadrlar rezervidan chiqarish.¹²¹

Davlat xizmatiga oid qonunlarning aksariyati (Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Qozog'iston, Rossiya, Yaponiya va boshqalar) davlat xizmatini tugatish asoslarini belgilaydi. Ko'pgina xorijiy davlatlarning qonunchiligida (Germaniya, Italiya, Fransiya, Qozog'iston, Rossiya, Qirg'iziston, Yaponiya) davlat xizmatchisi maqomi bilan bog'liq quyidagi taqiq va cheklovlar ro'yxati nazarda tutilgan:¹²²

- bir vaqtda bir necha lavozimlarda ishlashni taqiqlash (davlat hokimiyati bo'linishi tizimida);
- biznes bilan shug'ullanishni taqiqlash (Buyuk Britaniyada yuqori mansabdor shaxslar iste'foga chiqqanidan keyin ikki yil davomida va agar ularning lavozimi ushbu sohadagi maxfiy ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lsa, hukumatning roziligisiz biznes sohasida ishga joylashish bo'yicha takliflarni qabul qilish huquqiga ega emas);
- ish tashlashlarda qatnashishni taqiqlash (Kanada);
- saylov natijalariga yoki deputatlikka nomzodlar ko'rsatishga aralashish yoki ta'sir qilish uchun o'z mansab mavqei yoki vakolatlaridan foydalanishni taqiqlash;
- jismoniy va yuridik shaxslardan o'z xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq, shu jumladan pensiyaga chiqqanidan keyin ham haq (sovg'alar, pul mukofotlari, kreditlar, xizmatlar, ko'ngilochar, dam olish uchun to'lovlar, transport xarajatlari va boshqa to'lovlar) olish;

Janubiy Koreyaning 2005-yil 29-dekabrda qabul qilingan "Davlat

¹²¹O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni loyihasi. QL-362/20-2 <https://project.gov.uz/oz>;

¹²² Анализ опыта правового регулирования государственной службы зарубежных стран и предложения по его учету при подготовке законопроекта «О государственной службе» https://www.norma.uz/raznoe/analiz_opyta_pravovogo_regulirovaniya_gosudarstvennoy_slujby_zarubejnyh_stran_i_predlozheniya_po_ego_uchetu_pri_podgotovke_zakonoproekta_o_gosudarstvennoy_slujbe

mansabdor shaxslari to'g'risida"gi qonunining 64-66-moddalarida muayyan taqiqlar nazarda tutilgan: unga ko'ra:¹²³

- hech bir davlat mansabdor shaxsi davlat xizmatidan tashqari daromad olishga qaratilgan har qanday biznes bilan shug'ullanishi va o'zi tegishli bo'lgan agentlik rahbarining ruxsatisiz bir vaqtning o'zida boshqa lavozimni egallashi mumkin emas (64);
- hech bir davlat mansabdor shaxsi biron-bir siyosiy partiya yoki boshqa siyosiy tashkilotning tashkilotida qatnashishi yoki unga a'zo bo'lishi mumkin emas, saylov harakatlariga hech qanaqasiga ta'sir qilishga haqli emas;
- mansabdor shaxs faoliyat yuritayotgan tashkilot kasaba uyushmasida vazirdan ruxsat asosida faoliyat yuritishi mumkin;
- mansabdor shaxs ommaviy harakatlarda, mehat jamoalari namoyishlarida ishtirok etmasligi kerak.

Koreyada davlat xizmatchilariga nisbatan ishdan chetlashtirish, ishdan bo'shatish, lavozimdan chetlashtirish, ish haqini kamaytirish, tanbeh kabi intizomiy choralar qo'llaniladi. (79-m) Koreya qonunchiligiga ko'ra intizomiy javobgarlikka tortilgan shaxsga nisbatan muayyan muddat ichida lavozim mavqeini va ish haqini oshirish mumkin emas. Har bir tashkilot doirasida intizomiy javobgarlikka tortadigan intizomiy qo'mitalar tashkil etiladi. Mazkur qo'mita bergan xulosa asosida rahbar xizmatchiga intizomiy jazo belgilaydi. Rahbar mazkur qo'mita qaroriga rozi bo'lmasa, holatni qayta ko'rib chiqishni Bosh vazir nazoratidagi Yuqori intizomiy qo'mitaga topshiradi. Davlat xizmatchilari ustidan xizmat tekshiruvini audit qo'mitasi inspeksiya bilan birgalikda o'tkazadi.

Janubiy Koreyaning "Davlat xizmatchilari odob-axloq Kodeksida" davlat xizmatchilariga quyidalarni amalga oshirish taqiqlanadi:¹²⁴

- mansabdan foydalangan holda ko'chmas mulk sotib olish;
- moliyaviy operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish;

¹²³ "State public officials" Act, Korea. 29.12.2005, N7796.

¹²⁴ Этика государственной и муниципальной службы. Южная Корея. 2000

- davlat xizmatchisi nafaqaga chiqqandan so'ng avvalgi lavozimi bilan bog'liq xususiy korxonada ishlashi taqiqlanadi, xodim nafaqaga chiqqandan so'ng tegishli organ ruxsati asosida mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin;
- manfaatlar to'qnashuvining oldini olishi, noqonuniy imtiyozlardan voz kechishi lozim, davlat mablag'laridan maqsadsiz foydalanish esa taqiqlanadi;
- shaxsiy ishlarni noqonuniy hal qilish, davlat mulkidan va lavozimidan shaxsiy maqsadda foydalanish, noqonuniy boylik orttirish;
- davlat xizmatchisi chet el hukumatlari va boshqa subyektlardan sovg'alarni qabul qilish to'g'risidagi hisobot va sovg'alarni davlat g'aznasiga o'tkazishi lozim.

Mazkur odob-axloq qoidalari buzilgan taqdirda davlat xizmatchilariga nisbatan ogohlantirish, tanbeh, intizomiy jazo, noqonuniy mol-mulk, ashyoni olib qo'yish kabi choralar, davlat xizmatchisi tomonidan mol-mulkiga oid ma'lumotlar ro'yxatga olinishidan bo'yin tovlash, noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish, boshqalarning mol-mulkiga oid ma'lumotlarni ruxsatsiz tekshirish, ularni oshkor qilish, lavozimiga sovuqqonlik qilish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Tashkilot doirasida odob-axloq komissiyalari tashkil etilgan bo'lib, ular davlat xizmatchilarining mol-mulkiga oid ma'lumotlar reestri yuritilishini va jamoatchilik uchun ochiqligini ta'minlaydi. (OPEN dasturi) Davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilganligi fakti haqida fuqarolar murojaat qilgan taqdirda ichki audit qo'mitasi va inspeksiya xizmat tekshiruvlarini amalga oshiradi.¹²⁵

Rossiyaning "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuniga ko'ra Bosh prokuror hamda unga bo'ysunuvchi prokurorlar mazkur qonun hamda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonun hujjatlari ijrosi, davlat xizmatchilari tomonidan taqiq va cheklovlarga, majburiyatlarga amal qilinishi ustidan muntazam nazoratni amalga oshiradi. Birgina 2017-yilda prokuratura xodimlari tomonidan davlat xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlarga rioya qilinmaganligi bilan bog'liq 80,8 ming (2016-yilda 80,5 ming)

¹²⁵ Janubiy Koreya "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun. 2002-y

korruptsiyaviy huquqbuzarlik aniqlangan.¹²⁶ Shu yili prokuror tekshiruvlari natijalariga ko'ra 65 ming (2016 yilda – 72,7 ming) shaxs intizomiy, 6,8 ming (2016 yilda – 9,2 ming) shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi.¹²⁷

Prokuror tekshiruvlari natijasida shu aniqlanganki, davlat xizmatchilari tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, tijorat tashkilotlarining boshqaruv organlarida ishtirok etishga oid qonun hujjatlarida belgilangan taqiqlarga rioya qilmaslik, bir tashkilot doirasida o'zaro bo'ysunuv asosida yaqin qarindoshlarning birgalikda xizmat ko'rsatishini cheklash kabi qoidalarga rioya qilinmasligi nazorat faoliyati davomida aniqlangan keng tarqalgan korruptsiyaviy huquqbuzarliklar tarkibiga kiradi.¹²⁸

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, RF da 2007-yilda Bosh prokuratura tarkibida korruptsiyaga qarshi qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish bo'limi tashkil etilgan.¹²⁹ Ushbu bo'lim davlat xizmatlariga oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi, bundan tashqari, mansabdor shaxslar, hokimlar, deputatlar, sudyalari, prokurorlar va boshqa hokimiyat vakillarining korruptsiyaga qarshi qonun hujjatlariga, xizmatga oid ichki lokal hujjatlarida belgilangan qoidalarga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Korruptsiyaga qarshi qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish bo'limi – ikki yo'nalishdan iborat: 1) korruptsiyaga qarshi qonun hujjatlari, xususan, davlat xizmatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ustidan nazoratni amalga oshiradi; 2) korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar tergovni ustidan nazoratni amalga oshiradi.¹³⁰ Yevropa mamlakatlarida esa korruptsiyaga qarshi kurashishda prokurorning roli ko'proq ta'qib qilish funksiyasidan iborat, jumladan, korruptsiyaviy jinoyatlar bo'yicha ish qo'zg'atish, tergovni amalga oshirish, tergov ustidan nazoratni amalga oshirish va sud davlat ayblovini

¹²⁶ *Табельский С.В.* Практика применения института утраты доверия в связи с совершением коррупционных правонарушений // Прокурор. 2017. № 4.

¹²⁷ *Леохновская Е.В.* Практика применения института утраты доверия в связи с совершением коррупционных правонарушений // Прокурор. 2017. № 4.

¹²⁸ *Васюшкин В.* Пределы прокурорского надзора // Законность. 2010. № 11.

¹²⁹ Положение об Управлении по надзору за исполнением законодательства о противодействии коррупции (утв. Генпрокуратурой России 08.07.2016)

¹³⁰ *Краснова К.А.* Уголовная политика Европейского союза в сфере противодействия коррупции. Монография. "Издательство ""Прспект""", 2015. – С.26

qo'llab-quvvatlashdan iborat. Korrupsiyaga oid profilaktik chora-tadbirlarni Korrupsiyaga qarshi agentliklar amalga oshiradi. Xususan, Avstriyada Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Federal idora va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash – profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirsa, Iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ixtisoslashtirilgan prokuratura – korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish bilan shug'ullanadi.¹³¹

Bolgariyada vazirliklar va agentliklar tarkibida korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amal oshiradigan inspeksiyalar tashkil etilgan. Inspeksiyalar tashkilotda mavjud korrupsiya xavflarini baholaydi va bartaraf etishga oid choralar ko'radi, "Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va oldini olish to'g'risida"gi qonunga ko'ra korrupsiya sodir etilganligi bo'yicha murojaatlarni qabul qiladi hamda ular ustidan tekshiruvni amalga oshiradi. Inspeksiyalar fuqarolik xizmatchilariga nisbatan intizomiy ish qo'zg'atish to'g'risida organ rahbariga takliflar berishi mumkin, bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlikka tortish to'g'risida bayonnomalar rasmiylashtiradi. Bosh vazir huzuridagi Bosh inspeksiya tashkilotlardagi ichki inspeksiyalarning faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muayyan vazifalarni belgilab beradi. Ichki inspeksiyalar 2012-yilda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar doirasida o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida davlat xizmatchilariga nisbatan 1388 ta intizomiy jazo chorasini qo'llagan.¹³²

Manfaatlar to'qnashuvi hamda korrupsiyaning oldini olishga oid xalqaro standart qoidalariga to'xtalib o'tsak. Xususan, BMT ning "Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi" 8-moddasida mansabdor shaxslarning odob-axloq qoidalariga oid normalar mavjud. Unga ko'ra, har bir ishtirokchi davlat davlat xizmatchilari faoliyatiga oid etika va manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olishga oid umume'tirof etilgan qoidalardan iborat

¹³¹ Гайдышева В.И. Зарубежный опыт противодействия коррупции. Научные горизонты № 11(15). – С. 71

¹³² OECD. "Prevention of corruption in the public sector in Eastern Europe and Central Asia, 2015, P-81-82.

Odob-axloq kodeksini ishlab chiqishi kerakligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, mansabdor shaxslarga o'z vazifalarini bajarish vaqtida yoki boshqa bir mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarlik haqida vaqtida xabar qilish, uning mexanizmlarini joriy etish ishtirokchi davlatlarga yuklatilgan. 8-moddaga ko'ra mansabdor shaxslar ishdan tashqari faoliyati, mashg'ulotlari, boshqa mehnat munosabatlari; investitsiyalar, mol-mulk, aktivlar; sovg'alar va imtiyozlar haqida deklaratsiya taqdim etishi lozim. Ushbu odob-axloq qoidalariga rioya qilinmagan taqdirda qonun hujjatlariga muvofiq intizomiy va boshqa javobgarlik choralari ko'rish kerakligi nazarda tutilgan.¹³³

BMT "Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi" 7-moddasida davlat sektorida mansabdor shaxslar tomonidan korrupsiya holatlari sodir etilishini oldini olish maqsadida rotatsiya tizimini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, mansabdor shaxslar tomonidan ularning qaramog'ida bo'lgan mol-mulk, ommaviy yoki xususiy mablag'lar, qimmatli qog'ozlarning o'g'irlanishi, noqonuniy o'zlashtirilishi, ko'zda tutilmagan boshqa maqsadlarda ishlatilishi (17-modda), xizmat yoki mansab mavqeidan g'arazli maqsadlarda foydalanilishi (18-modda), xizmat lavozimining suiiste'mol qilinishi (19-modda), noqonuniy tarzda boylik orttirilishi (20-modda) taqiqlanadi.¹³⁴

Xalqaro tashkilotlardan yana biri - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Istanbul Harakatlar rejasi"da (4-round) O'zbekistonda o'tkazilgan monitoring natijasida quyidagi tavsiyalar berilgan edi:

- "Davlat xizmati to'g'risida" yagona qonun ishlab chiqish;
- davlat xizmatiga kadrlarni tanlov asosida tanlashning, shuningdek, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlaridan kelib chiqqan holda lavozimga tayinlash va lavozimni oshirishning shaffof tizimini joriy etishni nazarda tutuvchi qonun hujjatlarini qabul qilish, professional mansabdor shaxs va siyosiy mansabdor shaxs tushunchalarini qonunchilikka kiritishni;

¹³³ "Legislative guide for the implementation of the United Nations Convention against Corruption". United Nations. New York, 2012.

¹³⁴ Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi", New York-2003.

- manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish va uni hal qilish qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash. Manfaat to'qnashuvi holatida mansabdor shaxsning o'zi yoki o'ziga yaqin bo'lgan shaxs uchun muayyan foyda olish maqsadida qaror qabul qilganligi uchun jinoiy javobgarlikni joriy etish masalasi ko'rib chiqish;
- davlat mansabdor shaxslari (shu jumladan, siyosiy davlat xizmatchilari, sudyalari, prokurorlar) tomonidan mol-mulk, daromadlar, xarajatlar va shaxsiy manfaatlarini majburiy deklaratsiyalashning yagona tizimini joriy etish, ularni onlayn tarzda taqdim etish va rasmiy saytda e'lon qilish, deklaratsiyalarni majburiy tekshirish, hisobotlarni taqdim etmaslik yoki kechikib taqdim etish holatlari uchun sanksiyalar tizimini joriy etish, mansabdor shaxslarning deklaratsiyalarini to'plash, tekshirish va nashr etish uchun mas'ul bo'lgan organni tayinlash, bunday organga tegishli darajadagi mustaqillik, resurslar va vakolatlarni berish;
- Odob-axloq kodekslarini ishlab chiqish va ular ustidan monitoring qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish;
- mansabdor shaxslar tomonidan berilgan korrupsiya holatlari haqidagi xabarlarni monitoring qilish, korrupsiyaga oid xabarlar berish bo'yicha kanallarni joriy etish, anonim xabarlarni ko'rib chiqish, korrupsiya holatlari haqida xabar bergan shaxslarning himoyasiga oid qonunlarni ishlab chiqish, statistik ma'lumotlarni yuritadigan organ tashkil etish;
- davlat xizmatlarida "halollik siyosati"ni baholash tizimini joriy etish.¹³⁵

"Istanbul Harakatlar rejasi" da (3-round) davlat xizmatchilarining Odob-axloq qoidalariga oid yo'riqnoma ishlab chiqish, har bir davlat tashkiloti doirasida majburiy tarzda davlat xizmatchilarining Odob-axloq kodeksini qabul qilishi kerakligi, ushbu kodeks talablariga rioya qilmaganlik uchun jazo choralari belgilash, davlat mansabdor shaxslari, davlat xizmatchilari tomonidan sovg'alarni va mehmondorchilikni qabul qilishga oid nizom ishlab chiqish kerakligi, davlat xizmatidan bo'shatilgan sobiq xizmatchilarga keyingi

¹³⁵ OECD. "Istanbul Anti-corruption Action Plan", 4 round (2019), Recommendation 5.

ish faoliyatiga bog'liq cheklov joriy etish tavsiya etilgan edi.¹³⁶ O'zbekiston hali ushbu tavsiyalarga to'la rioya qilgani yo'q, masalan, ba'zi davlat tashkilotlarida hali Odob-axloq kodeksi ishlab chiqilgani, Odob-axloq komissiyalari, maxsus bo'linmalar tashkil etilgani yo'q.

Xulosa qiladigan bo'lsak, yaqin yillardan beri O'zbekiston Respublikasida xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari, xalqaro tashkilotlarning (Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tavsiyalari asosida Davlat xizmatlari sohasini takomillashtirish tendensiyalari ketmoqda. Shu kunga qadar xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari, xorijiy mamlakatlarning tajribalari asosida ko'plab islohotlar amalga oshirildi, xususan, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun, "Davlat xizmatchilarining Odob-axloq kodeksi" loyihalarining ishlab chiqilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining tashkil etilishi va boshqalar. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Istanbul Harakatlar rejasida" berilgan tavsiyalar asosida "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun loyhasida davlat xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlarning ro'yxati keltirib o'tildi.

¹³⁶ OECD: "Istanbul Anti-corruption Action Plan", 3 round (2015), Recommendation 15

3.2-§. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatchilari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishda qo'llaniladigan chora-tadbirlarni takomillashtirish masalalari

So'nggi yillarda davlat va xususiy sektorda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha jadal tendensiyalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan 70 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu islohotlar natijasi xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Jumladan, Transparency International korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro nodavlat tashkiloti Korrupsiyani qabul qilish indeksining 2020-yil reytingiga muvofiq, O'zbekiston o'z o'rnini 7 pog'onaga yaxshilab, 180 ta davlat orasida 146-o'rinni egalladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z nutqlarida shunday degan edilar: Jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi muhit yaratmas ekanmiz, mamlakatning investitsiya, ishbilarmonlik muhitini, jamiyatdagi birorta ham sohani rivojlantirib bo'lmaydi, bunga erishish uchun, avvalo, davlat xizmatlari institutini isloh qilish, unda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali mexanizm yaratish kerak ekanini ta'kidlagan edilar.¹³⁷

Hozirda O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2025-yillarga mo'ljallangan Milliy strategiyasi loyihasini muhokama qilish bo'yicha jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha ustida joriy yilning yanvar oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Yevropa ittifoqi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Mintaqaviy muloqot, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, TIKA, JICA, KPMG kabi tashkilotlarning mamlakatimizdagi vakolatxonasi vakillari, xorijiy davlatlar elchilari, xalqaro ekspertlar ishtirokida

¹³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 23.12.2017.

qizg'in muhokama bo'lib o'tdi.¹³⁸

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021–2025 yillarga mo'ljallangan milliy strategiya kelgusi besh yillikdagi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi asosiy ustuvor vazifalarni belgilab beruvchi, bu boradagi harakatlarni birlashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi hujjat hisoblanadi. Milliy strategiya loyihasini tayyorlashda Gruzziya, Estoniya, Malayziya, Indoneziya, Italiya, Buyuk Britaniya kabi qator xorijiy davlatlar tajribasi o'rganildi.¹³⁹

Jamiyatda davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning har qanday ko'rinishlarining oldini olish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirish lozim:

- davlat fuqarolik xizmatlarida korrupsiyaning oldini olishning ilmiy-nazariy yo'nalishlari;
- davlat fuqarolik xizmatlarida korrupsiyaning oldini olishning tashkiliy-huquqiy yo'nalishlari;
- davlat fuqarolik xizmatlarida korrupsiyaning oldini olishning normativ-huquqiy yo'nalishlari.

Birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatlari sohasida korrupsiyaning oldini olishga bag'ishlangan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, yuridik adabiyotlar ishlab chiqilmagan, milliy olimlar tomonidan yaratilgan doktrinalar, ilmiy ishlar, dissertatsiyalar yetarli emas, xorijiy davlatlar amaliyoti o'rganilganda shunga guvoh bo'ldikki, davlat xizmatlarchilari faoliyatida korrupsiyaning turli ko'rinishlariga qarshi kurashishga oid ko'plab maxsus adabiyotlarni uchratish mumkin.

Milliy adabiyotlarda, qonun hujjatlarida “manfaatlar to'qnashuvi” tushunchasiga ta'rif berib o'tilgan, biroq hali biror yuridik adabiyotlarda yoki qonun hujjatlarida “manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqadigan holatlar” ro'yxati

¹³⁸<https://anticorruption.uz/uz/item/2021/04/02/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-milliy-strategiyasi-xalqaro-ekspertlar-muhokamasida-taklif-etirof-etirozlar>

¹³⁹<https://uzbekistan.un.org/uz/125180-helena-freyzerning-ozbekiston-respublikasining-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-boyicha-2021>

namuna tariqasida berilmagan, yuridik adabiyotlarda manfaatlar to'qnashuvi va uning turlariga oid ma'lumotlar deyarli yo'q.

Milliy manbalarda davlat xizmati tushunchasi, davlat xizmatiga kirish, xizmatni o'tash, xizmatdan bo'shshga oid ko'plab adabiyotlar mavjud, biroq hali biror yuridik adabiyotda davlat xizmatlarining ilmiy asoslangan huquqiy klassifikatsiya berilmagan, "davlat siyosiy xizmati", "davlat fuqarolik xizmati", "davlat maxsus xizmati" kabi tushunchalarga huquqiy ta'rif berilmagan, davlat siyosiy, fuqarolik, maxsus xizmatchilariga qaysi organ xodimlari kirishi haqida hali to'liq va aniq shakllantirilgan ro'yxat mavjud emas. Fikrimizcha, ilmiy adabiyotlarda "davlat siyosiy xizmati", "davlat fuqarolik xizmati", "davlat maxsus xizmati" tushunchalariga ilmiy asoslangan ta'riflar berish, va har bir xizmat doirasiga kimlar kirishini aniqlashtirish juda muhim. Chunki, har bir sohadagi davlat xizmatchilarining o'ziga xos huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, ularga nisbatan qo'llaniladigan taqiq va cheklovlar, javobgarlik choralari tizimi mavjud bo'lib, hali davlat siyosiy, fuqarolik, maxsus xizmatchilariga kimlar kirishini aniqlashtirib olmasdan turib, ularga tegishli qonun hujjatlariga rioya qilish darajasi va qonunni buzgan shaxslarga muayyan javobgarlik choralari qo'llash muayyan qiyinchiliklarni, noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Bundan tashqari, "majburiyat", "taqiq" va "cheklov" tushunchalariga ilmiy tarif berib o'tilgan holda, ular orasidagi chegarani, farqni, shakllarini aniqlashtirib olish zarur. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda "korrupsiyaga qarshi kurashish" va "korrupsiyaning oldini olish" tushunchalari o'rtasidagi farqlar ko'rsatib o'tilishi lozim. Ko'pchilikka hali "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasi yangilik bo'lgani bois, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi aslida bir tushuncha deb o'ylashadi, ilmiy yuridik adabiyotlarga bu ikki tushuncha o'rtasidagi farqlar haqida ilmiy asoslangan, amaliy misollar asosida tushuntirishlar berib o'tish lozim, qo'shimcha tariqasida amaliyotda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlari orasida eng ko'p uchraydigan vaziyatlar ro'yxatini keltirib o'tish o'quvchida ikki tushuncha orasidagi chegarani, farqni

to'liq anglab olishiga ko'maklashadi.

Yuridik adabiyotlarda “mansabdor shaxs”, “xalqaro mansabdor shaxs” tushunchalariga ilmiy-nazariy ta'riflar berib o'tish va ularning “davlat xizmatchilari”dan farqlarini aniq sanab o'tish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, “sovg'a” va “pora” tushunchalarini anglashda chalkashlik holatlari yuzaga kelmoqda, huquqni qo'llash amaliyotida ham ko'p hollarda holatni noto'g'ri kvalifikatsiya qilishga sabab bo'lmoqda, fikrimcha, ushbu ikki tushuncha o'rtasidagi chegarani, asosiy farqlarni ilmiy adabiyotlarda amaliy misollar yordamida sharhlab o'tish lozim.

Tashkiliy-huquqiy yo'nalishlarda ham bir qancha islohotlar amalga oshirildi, xususan, har bir tashkilot, idora doirasida Odob-axloq kodekslariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan, davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qoidalar buzilgan taqdirda tegishli intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini ko'radigan Odob-axloq komissiyalari, maxsus bo'linmalar tashkil etildi. Davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarida kadrlar boshqaruvi hamda inson resurslarini rivojlantirish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan organ - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (DXRA) tashkil etildi. Biroq tashkiliy masalalarda muammolar yo'q emas. Jumladan, davlat tashkilotlarida davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga, manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan qoidalarga rioya qilmagan taqdirda ularga nisbatan qo'llanilgan intizomiy javobgarlikka tortish holatlari statistikasini amalga oshiradigan maxsus bo'lim mavjud emas, statistik ma'lumotlarning mavjud emasligi korrupsiya qarshi normativ hujjatlarning qanchalik samarali ishlayotganini tahlil qilish imkonini bermaydi. Intizomiy javobgarlikka tortilgan davlat xizmatchilarining statistikasini amalga oshirish ular tomonidan ko'proq qaysi taqiq va cheklovlarga oid qoidalar buzilishini aniqlashga, natijada unga qarshi yangi bir mexanizm ishlab chiqishga yordam beradi. Odob-axloq qoidalari buzilgan taqdirda Odob-axloq komissiyalari, maxsus bo'limlar bu

holat yuzasidan tekshiruvlarni amalga oshiradi, biroq davlat xizmatchilarining intizomiy javobgarligi masalasini hal qilishda rahbarning to'g'ridan-to'g'ri aralashuvi, ta'sirining mavjudligi ba'zi xizmatchilarga noqonuniy intizomiy chora qo'llashga yoki qoidani buzgan davlat xizmatchisiga nisbatan asossiz intizomiy chora qo'llamaslik kabi holatlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, davlat xizmatchisiga intizomiy chora qo'llash masalasi hal qilinayotganda rahbarning aralashuvini cheklash, bu masalani Komissiya ixtiyoriga topshirish lozim. Davlat xizmatchisi Odob-axloq komissiyasining qaroridan norozi bo'lganda, ushbu qaror ustidan tegishli organga shikoyat qilish tartibi, muddatlari qonun hujjatlarida ko'rsatib o'tilishi lozim. Bundan tashqari, davlat xizmatchilari tomonidan "Davlat fuqarolik xizmatlari to'g'risida"gi qonunga, korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarga, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlariga qarshi qaratilgan qonun hujjatlariga rioya qilinishi ustidan prokuror nazorati o'rnatish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim. Davlat xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlar turli qonun hujjatlarida, Vazirlar Mahkamasi qarorlarida, Prezident farmonlarida, "Davlat fuqarolik xizmatlari to'g'risida"gi qonun loyihasida (13-modda), Davlat xizmatchilari Odob-axloq kodeksi loyihasida belgilangan bo'lib, ko'p hollarda ijro etilmay qolmoqda, sababi ular ustidan nazorat qilishning samarali mexanizmi mavjud emas. Shu bois, prokuratura organlari faoliyati yo'nalishiga yangi yo'nalish sifatida "Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati"ni kiritish kerak. O'zbek huquqshunos olimi Madaliyevning fikricha, prokuror nazoratining asosiy funksiyasi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlari talablari buzilganlik faktlarini aniqlash; huquqbuzarliklarni sodir etgan aybdorlarni aniqlash, ularni jazolash; huquqbuzarliklarni bartaraf etish va oldini olish chora-tadbirlarini ko'rishdan iborat.¹⁴⁰

RF da 2007-yilda Bosh prokuratura tarkibida korrupsiyaga qarshi qonun

¹⁴⁰Коллектив авторов. Прокурорский надзор//Учебник. – Т.: ТГЮУ, 2019. – С. 60; Мадалиев О.М. Прокурорский надзор. Учебное пособие для высших образовательных учреждений (Общая часть) Т. «ИлмЗиё» 2012. – С.39;

hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish bo'limi tashkil etilgan. Ushbu tajribani RF ning “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonun 67-moddasida ko'rishimiz mumkin, unga ko'ra ushbu qonun hamda davlat fuqarolik xizmatchilarining taqiq va cheklovlarga rioya qilishi ustidan Bosh prokuror hamda unga bo'ysunuvchi prokurorlar muntazam nazoratni amalga oshiradilar. Tekshiruv natijalariga ko'ra tegishli tashkilot rahbarlariga taqdimnomalar kiritiladi. RF da 2007-yilda Bosh prokuratura tarkibida korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish bo'limi tashkil etilgan bo'lib, aynan korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari, davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish bilan birga korrupsiyaga oid jinoyatlar tergovi ustidan ham nazoratni amalga oshiradi. Xuddi shundek, O'zbekiston Respublikasida Bosh prokurorning 2021-yil 12-iyulda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 246-sonli buyrug'i asosida boshqarma tashkil etildi, uning asosiy vazifasi korrupsiyaviy jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv, tergov o'tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshirishdan iborat.¹⁴¹ Yaqin orada “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonun qabul qilinar ekan, mazkur boshqarmaga ushbu qonun ijrosi, shuningdek, davlat xizmatchilarining o'zlariga yuklatilgan taqiq va cheklovlarga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish funksiyasini yuklatish lozim deb o'ylayman. Norman Abjorensen fikricha, xorijiy huquqni qo'llash amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda huquqni muhofaza qilish organlarining o'rni va ishtiroki muhim ahamiyatga ega.¹⁴²

Normativ-huquqiy yo'nalishda ham ko'plab islohotlar amalga oshirildi, xususan, yaqinda qabul qilinishi kutilayotgan “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamalaridan o'tdi, “Davlat

¹⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2021-yil 12-iyulda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 246-sonli buyrug'i

¹⁴² Abjorensen N. Combating Corruption Implications of the G20 Action Plan for the Asia-Pacific Region. 2014, Konrad-Adenauer-Stiftung, Japan. – P. 9

xizmatchilari Odob-axloq kodeksi” loyihasi ishlab chiqildi, ayni vaqtda “Manfaatlar to’qnashuvi to’g’risida”gi hamda “Davlat xizmatchilari mol-mulkini deklaratsiya qilish to’g’risidagi” qonun loyihalarini ishlab chiqish kutilmoqda. Biroq davlat xizmatlari sohasida hali ham huquqiy bo’shliqlar mavjud. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyul kuni qabul qilingan PF-6257-sonli farmonida 2022-yil 1-yanvardan boshlab davlat xizmatchilariga respublika hududidan tashqarida hisobraqamlar ochish va egalik qilish, naqd pul mablag’larini saqlash, ko’chmas va boshqa mol-mulkka ega bo’lish (xorijda ishlayotgan davlat xizmatchilari va davlat xizmatiga kirishdan oldin olingan mol-mulk bundan mustasno) taqiqlanishi aytilgan edi. Biroq bu bo’yicha maxsus qonun ishlab chiqilgani yo’q, ushbu taqiq ustidan nazorat o’tkazish tartiblari, qonunni ijro etish bilan bog’liq mexanizmlar, javobgarlik masalalari haligacha ochiq qolmoqda. Tavsiya qilgan bo’lardikki, “Davlat xizmatchilariga respublika hududidan tashqarida hisobraqamlar ochish va egalik qilish, naqd pul mablag’larini saqlash, ko’chmas va boshqa mol-mulkka ega bo’lishni taqiqlash to’g’risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish hamda ushbu taqiqqa rioya qilinishi ustidan nazoratni bevosita prokuratura organlariga topshirish lozim. Ismoilov.B.I ta’kidlaganlaridek, xorijiy mamlakatlar qonunchilik amaliyotida Korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bevosita shug’ullanuvchi organlar tuzilmasida korrupsiyaga qarshi kurash bo’yicha maxsus bo’linmalar mavjud bo’lib, ularning maqomi huquqiy jihatdan tartibga solingan.¹⁴³ Bizda esa haligacha “Korrupsiya qarshi kurashish agentligi to’g’risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilgani yo’q, “Prokuratura to’g’risida”gi qonunda korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratini o’rnatish bo’yicha maxsus qoidalar mustahkamlangani yo’q. Shundan kelib chiqib, “Prokuratura to’g’risida”gi qonunga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish, jumladan, “korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati” yo’nalishini joriy etish hamda shu yo’nalish

¹⁴³ Исмаилов Б.И., Исмоилов Б.И. Современные стратегии антикоррупционных реформ // Учебное пособие. -Т.: Академия Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан, ЦПКЮ, 2019. – С.110

doirasida barcha davlat xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlarga rioya qilinishi ustidan prokuratura organlari tomonidan nazorat tekshiruvlari o'tkazilishi amaliyotini tatbiq etish lozim. Chunki amaliyotda Odob-axloq komissiyasi yoki maxsus bo'linmalar xulosasi asosida rahbar buyrug'i bilan davlat xizmatchisiga noqonuniy intizomiy javobgarlikka tortish holatlari yoki aksincha xodimni odob-axloq qoidalarini, manfaatlar to'qnashuviga oid normalarni buzganligiga qaramay intizomiy javobgarlikka tortmaslik holatlari yuzaga kelmoqda, yoki bo'lmasa, taqiq va cheklovlarni buzganiga qaramay rahbarlar javobgarlikka tortilmay qolmoqda. Bunga sabablardan biri – nazorat qiluvchi subyektlarning tashkilot ichki tuzilmasida joylashganligi va uning ustidan nazoratning o'rnatilmaganligidir. Bu borada huquqshunos olim S.Xazanov shunday degan edi: davlat xizmatchilari iyerarxiyasida davlat xizmatchisining mavqei qanchalik yuqori bo'lsa, (masalan, rahbar lavozimni egallasa) o'rnatilgan taqiq va cheklov shuncha kam samara beradi, chunki uning belgilangan taqiq va cheklovlarga rioya qilgan holda faoliyat yuritishini tekshirish va nazorat qilish ularga bo'ysunadigan ichki tuzilmalarga yuklatilgan bo'ladi.¹⁴⁴ To'g'ri, davlat xizmatchilari tomonidan rahbar buyrug'i va Odob-axloq komissiyalari xulosalari yuzasidan tegishli organlarga, jumladan, prokuratura organlariga shikoyatlar berilishi mumkin. Biroq prokuratura faqat rahbar va Odob-axloq komissiyalari, maxsus bo'linmalarning xatti-harakatlari, chiqargan qarorlarining qonuniyligiga e'tibor qaratgan holda tekshiruv o'tkazib, davlat xizmatchilarining taqiq va cheklovlarga amalga qilinishi tekshirilmay qolmoqda. Shu o'rinda aytish joizki, amaliyotda taqiq va cheklovlarni buzib, intizomiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga rag'batlantiruvchi to'lovlar, mukofotlar, lavozim va ish haqini oshirish, imtiyoz va afzalliklar berish kuzatilmoqda, bu holat davlat mablag'larini talon-toroj qilishga qulay imkoniyat yaratib beradi. Shularni hisobga olgan holda prokuratura organlari davlat xizmatchilari tomonidan taqiq

¹⁴⁴ Хазанов С.Д. Антикоррупционные запреты и ограничения в системе публичной службы как инструмент антикоррупционной политики: поиск оптимальной модели правового регулирования.

va cheklovlarga rioya qilinishi, Odob-axloq komissiyalari, maxsus bo'linmalar qarorlari yuzasidan muntazam nazoratni amalga oshirishi lozim. Nazorat tarkibiga xodimning noqonuniy intizomiy jazoga tortilgan-tortilmaganligi, intizomiy jazoga tortilgan shaxslarga noqonuniy mukofot pullari va boshqa rag'batlantiruvchi normalar qo'llanilmasligini tekshirish ham kiradi. B.Ismoilovning fikricha, korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari ustidan nazorat samaradorligini oshirish maqsadida prokuratura organlari tegishli vakolatli bo'linmasining tashkiliy-huquqiy maqomiga va maxsus vakolatlariga oid qoidalarni ishlab chiqish dolzarbdir. Shu boisdan, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini tashkil etish va faoliyatiga oid qoidalarni konkretlashtirish lozim.¹⁴⁵

Xulosa qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda davlat xizmatlari sohasida Prezident farmonlari asosida ko'plab islohotlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lsa-da, amaliyotda haligacha ularning normativ-huquqiy asoslari va tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yaratilgani yo'q. Natijada, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatiga oid qonun hujjatlari faqat qog'ozda qolib, ijro etilmay kelmoqda. Davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomini aniqlab beradigan "Davlat fuqarolik xizmatlari to'g'risida"gi qonun hali rasman kuchga kirgani yo'q, shu bilan birga, barcha davlat xizmatchilari uchun umumiy bo'lgan "Davlat xizmatchilari Odob-axloq kodeksi" loyihasi ham haligacha rasman qonun darajasida qabul qilingani yo'q. Tashkiliy-huquqiy masalalarda taqiq va cheklovlar ustidan nazorat qilish va javobgarlikka tortish mexanizmida bo'shliqlar mavjud, mansabdor shaxslar aynan shu bo'shliqdan foydalangan holda davlat budjeti mablag'larini talon-toroj qilishmoqda. Ushbu bo'shliqlarni to'ldirishda xorij tajribasidan foydalanish, xalqaro standart qoidalarini, xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini milliy qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiq.

¹⁴⁵ Исмаилов Б.И. Халқаро жинойтчиликка қарши курашнинг халқаро-ҳуқуқий жиҳатлари Ўқув қўлланмаси. - Тошкент: ЮМОМ. 2015. – С. 96.

Xulosa

“Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o’rnatilgan korrupsiyaga qarshi cheklov va taqiqlar: qiyosiy-huquqiy tahlil” mavzusida o’tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi nazariy va amaliy xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o’rnatilgan “Korrupsiyaga qarshi taqiq” va “Korrupsiyaga qarshi cheklov” tushunchalariga quyidagi ta’riflar berildi:

“Korrupsiyaga qarshi taqiq” – bu davlat tomonidan maxsus normativ-huquqiy yoki ichki lokal hujjatlar asosida belgilangan, lavozim vazifalari va xususiyatlaridan kelib chiqib muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishni keskin taqiqlaydigan, agarda unga oid qoidalar buzilsa, yuridik javobgarlik keltirib chiqaradigan davlatning umummajburiy ko’rsatmasi;

“Korrupsiyaga qarshi cheklov” – bu davlat xizmatchilari uchun davlat tomonidan maxsus normativ-huquqiy yoki ichki lokal hujjatlar asosida belgilangan, faqatgina muayyan tartib va mezonlar asosida vakolatlardan foydalanishning huquqiy chegarasini belgilovchi mexanizmdir”. Cheklovlar – davlat xizmatiga kirish jarayonida, davlat xizmatini o’tash hamda davlat xizmatidan bo’shatilganidan so’ng ham ma’lum muddat davomida qo’llaniladigan qoidalar hisoblanadi.

Ushbu ta’riflar “Davlat fuqarolik xizmati to’g’risida”gi qonun loyihasining 4-modda “Asosiy tushunchalar” qismiga kiritilishi tavsiya etiladi.

2. Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o’rnatilgan “Korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlar” tizimini quyidagi mezonlarga asoslanib, tasniflash tavsiya etiladi:

Iqtisodiy faoliyat sohasida qo’llaniladigan hamda tadbirkorlik faoliyati bilan bog’liq taqiq va cheklovlar:

shaxsan yoki ishonchli vakillar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanish;

haq to’lanadigan boshqa faoliyat bilan shug’ullanish, pedagogik, ilmiy va

ijodiy faoliyat bundan mustasno;

tijorat tashkiloti boshqaruvi organi a'zosi bo'lish, davlat ulushi bo'lgan tashkilotlar bundan mustasno;

tijorat tashkilotlarining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lish, aksiyadorlik jamiyatlarining ommaviy muomalada bo'lgan 10 foizigacha aksiyalariga egalik qilish holatlari bundan mustasno;

davlat fuqarolik xizmatchisi o'zi xizmat qiladigan yoki ularning mustaqilligini buzilishiga olib keladigan aloqalar va manfaatlarga ega bo'lgan davlat organi yoki tashkilotning nazorati ostidagi tashkilotlarda ulushlar, paylar va aksiyalarni to'g'ridan-to'g'ri yoki vakillar orqali sotib olish;

o'zi faoliyat yuritayotgan davlat tashkilotining mulkini sotish va sotib olishda, ijaraga berish va ijaraga olishda ishtirok etishi yoxud ushbu savdolarda yaqin qarindoshlarining ishtirok etishi, elektron auksion orqali sotish hollari bundan mustasno;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan ro'yxatda nazarda tutilgan lavozimni egallab turgan davlat fuqarolik xizmati mansabdor shaxsi, uning xotini (eri) va voyaga yetmagan bolalari tomonidan O'zbekiston hududidan tashqarida joylashgan xorijiy banklarda hisob raqamlari (depozitlari) ochish, naqd pul va qimmatbaho narsalarni saqlash, chet el moliyaviy mablag'lariga egalik qilish va (yoki) ulardan foydalanish.

Davlat fuqarolik xizmati vazifalarini bajarishi hamda mehnat faoliyati bilan bog'liq taqiq va cheklovlar:

moddiy-texnika, moliyaviy va axborot ta'minoti vositalaridan, davlatning boshqa mol-mulkidan va xizmat ma'lumotlaridan xizmatdan tashqari foydalanish;

jismoniy va yuridik shaxslardan xizmat vazifalarini bajarish yoki davlat fuqarolik xizmatchisi mavqeidan foydalanib biror-bir mukofotlarni olish;

o'z xizmat mavqei yoki davlat fuqarolik xizmatchisining maqomi bilan bog'liq qonunda nazarda tutilmagan imtiyoz va afzalliklardan foydalanish;

jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan xizmat safarlariga

yoki xorijiy safarlarga chiqish;

o'z xizmat mavqeini suiste'mol qilgan holda shaxsiy manfaat ko'rish;
manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalashda bila turib yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish yoxud bunday ma'lumotlarni yashirish;

bir vaqtda bir necha lavozimda faoliyat yuritish (qo'shlavozimlilik) hamda davlat tashkilotiga bo'ysunuvchi yoki bir-birining nazoratidagi tashkilotda o'rindoshlik asosida mehnat foliyatini amalga oshirish;

o'zi faoliyat yuritayotgan davlat tashkilotida o'zining, yaqin qarindoshlari yoki unga aloqador shaxslarga taalluqli ishlarni ko'rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etish, agarda qonunchilik hujjatlariga muvofiq qonuniy vakili hisoblanmasa;

fuqarolarga xizmat ko'rsatish jarayonida o'zaro shaxsiy manfaatdorlikda bo'lgan shaxslarga, qarindosh-urug'larga, tanish-bilishlariga oid ishni hal qilishda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan holatlarda, o'zini o'zi rad etmay ishni davom ettirishi, agarda bu holat ishni xolis, adolatli va qonuniylik asosida ko'rib chiqishga va hal etishga to'sqinlik qiladigan bo'lsa;

o'zaro yaqin qarindoshlik yoki quda-andachilikda (ota-onalar, ota-onalarning aka-ukalari va opa-singillari, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'il, qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bevosita lavozim bo'ysunishida bo'lgan davlat lavozimini egallashga, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan o'rnatilgan xalqaro faoliyatdagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan taqiq va cheklovlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ruxsatisiz xorijiy davlatlar, xalqaro va chet el davlatlari tashkilotlarining mukofotlari, faxriy va maxsus unvonlarni olish, ilmiy unvon va darajalar bundan mustasno;

davlat fuqarolik xizmatchisining O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining boshqaruv organlariga, vasiylik organlariga yoki kuzatuv kengashlariga va ularning

tarkibiy bo'linmalariga kirishi;

davlat fuqarolik xizmatchilarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Prezident Administratsiyasining tegishli tarkibiy bo'linmalaridan ruxsatnoma olmay turib, xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ-2142-son qaroridagi ro'yxatda lavozimi keltirilgan mansabdor shaxslar);

xorijiy mamlakatlarda xizmat safaridan qaytgandan so'ng xarajatlarga oid deklaratsiyani taqdim etmaslik, yoki bila turib yolg'on, noto'g'ri ma'lumotlardan iborat deklaratsiyani taqdim etish mumkin emas.

Siyosiy faoliyat sohasida qo'llaniladigan taqiq: siyosiy partiyaga a'zo bo'lish, o'z vakolatlari va lavozim mavqeidan muayyan siyosiy partiyani qo'llab-quvvatlashda foydalanish, shuningdek, rahbarning qo'l ostida xizmat qiladigan xodimlarni muayyan siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishga, o'z vakolatlari va lavozim mavqeidan muayyan siyosiy partiyani qo'llab-quvvatlashda foydalanishga majburlashi, siyosiy faoliyatda faol qatnashishga undashi taqiqlanadi.

3. Korrupsiyaning turli ko'rinishlariga oid tushunchalarga ta'riflar ishlab chiqildi:

Favoritizm (xayrixohlik) - mansabdor shaxs tomonidan fuqarolarga, ularning qarindosh, tanish, do'st ekanligi yoki ijtimoiy, diniy, siyosiy qarashlaridan kelib chiqib noqonuniy imtiyozlar berish, xizmatlar ko'rsatish. Favoritizmning bir ko'rinishi nepotizm deb ataladi.

Nepotizm – qarindoshlik, oilaviy munosabatlardan kelib chiqib qarindoshlik aloqasida bo'lgan shaxslarga noqonuniy imtiyoz, afzalliklar berish, masalan, ishga qabul, lavozimini oshirishda qonuniy shartlarni chetlab o'tib, qarindoshlik munosabatidagi shaxslarni ishga qabul qilish, lavozim darajasini oshirish kabilar bunga misol bo'ladi.

Xuddi shu imtiyozlar, afzalliklar do'stlarga, hamkasblarga, tanishlarga nisbatan qo'llanilsa, u **kronizm** deb ataladi.

Mahalliychilik – muayyan shaxslarni ularning nasl-nasabi, ajdodlari

egallab kelgan lavozimlariga qarab hokimiyat lavozimiga tayinlash tartibi tushuniladi.

Urug'-aymoqchilik – davlat hokimiyati organlari tizimini shakllantirish asosi, masalan, muayyan vazirlik tizimida rahbardan tortib davlat xizmatchisigacha qarindoshlik, urug'-aymoqchilik munosabatida bo'lishi tushuniladi.

Ushbu ta'riflarni “Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish to'g'risida”gi qonun loyihasi 3-moddasi “Asosiy tushunchalar” qismiga kiritish tavsiya etiladi.

II. Tashkiliy-huquqiy masalalarga oid xulosa va takliflar:

1. Davlat xizmatchilari tomonidan “Davlat fuqarolik xizmatlari to'g'risida”gi qonunga, korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarga, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi qaratilgan boshqa qonun hujjatlariga rioya qilinishi ustidan prokuror nazorati o'rnatish amaliyotini yo'lga qo'yish kerak ekanligiga qo'shilaman. Shu maqsadda, “Prokuratura to'g'risida”gi qonun 4-moddasi “Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari” qatoriga – “korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati” yo'nalishini kiritish lozim.

2. Komplaens nazorati o'rnatilgan vazirlik va tashkilotlarning rahbarlari tomonidan korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarni buzib, intizomiy javobgarlikka tortilgan davlat fuqarolik xizmatchilarining statistikasiga oid ma'lumotlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga bu haqidagi ma'lumotlar taqdim etilishi talab qilinganidan boshlab, 10 kun muddat ichida talabni bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilash lozim.

3. “Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida”gi qonun 31-moddasida belgilangan “Rad qilish instituti” ga oid qoidalarni buzib, bila turib, o'z o'zini rad qilmay ma'muriy ishni ko'rishni davom ettirganligi uchun davlat fuqarolik xizmatchilarini ma'muriy tartibda javobgarlikka tortish mexanizmini amaliyotga joriy etish lozim.

4. Mehnat Kodeksining 79-moddasida (Qarindosh-urug'larning davlat korxonasida birga xizmat qilishlarini cheklash) nazarda tutilgan cheklovning

ijrosini ta'minlash hamda manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlarining oldini olish maqsadida rotatsiya institutini keng miqyosda qo'llash, majburiy rotatsiya qilinishi lozim bo'lgan mansabdor shaxslarning lavozim ro'yxatini Prezident tomonidan tasdiqlash, rotatsiya qilish asoslarini ichki lokal hujjatlarda ko'rsatib o'tish hamda unga oid qoidalarni buzgan shaxslarni davlat xizmatidan bo'shatish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim.

5. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun loyihasi 12-moddasiga ("Davlat fuqarolik xizmatchilarining majburiyatlari") quyidagi normani kiritish tavsiya etiladi: Davlat fuqarolik xizmatchisining qimmatli qog'ozlarga, bank omonat jamg'armalariga ega bo'lishi manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan taqdirda, davlat fuqarolik xizmatchisi o'z qimmatli qog'ozlarini, bank omonat jamg'armalarini fuqarolik qonunchiligiga muvofiq ishonchli boshqaruvchiga topshirishi lozim.

III. Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar:

1. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun loyihasi 13-moddasiga quyidagi korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarni ham kiritish tavsiya etiladi:

davlat fuqarolik xizmatchilarining bir vaqtda ikki yoki undan ortiq lavozimda (qo'shlavozimlilik) ishlashini, davlat tashkilotiga bo'ysunuvchi yoki bir-birining nazoratidagi tashkilotda o'rindoshlik asosida ishlashini taqiqlash;

davlat fuqarolik xizmatchisining O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining boshqaruv organlariga, vasiylik organlariga yoki kuzatuv kengashlariga va ularning tarkibiy bo'linmalariga kirishini taqiqlash;

fuqarolarga xizmat ko'rsatish jarayonida o'zaro shaxsiy manfaatdorlikda bo'lgan shaxslarga, qarindosh-urug'larga, tanish-bilishlariga oid ishni hal qilishda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan holatlarda, o'zini o'zi rad etmay ishni davom ettirishga haqli emas, agarda bu holat ishni xolis, adolatli va qonuniylik asosida ko'rib chiqishga va hal etishga to'sqinlik qiladigan bo'lsa.

2. “Davlat fuqarolik xizmati to’g’risida”gi qonun loyihasiga 12¹-modda (Sobiq davlat fuqarolik xizmatchisining majburiyatlari) kiritish va uni quyidagi qoidalar bilan to’ldirish tavsiya etiladi:

Sobiq davlat fuqarolik xizmatchilari xizmatdan bo’shatilgandan so’ng ikki yil ichida tijorat va notijorat tashkilotlaridagi, davlat organi va tashkilotlaridagi mehnat faoliyati haqida, agar mazkur tashkilotlar davlat fuqarolik xizmatchisi oldin faoliyat yuritgan davlat organi yoki tashkilotining nazorati ostida yoki bevosita bo’ysunuvida bo’lgan bo’lsa, mehnat shartnomasi tuzilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida oxirgi ish joyidagi rahbarni xabardor qilishi lozim. Ushbu majburiyat yuklatiladigan davlat fuqarolik xizmatchilari lavozimi ro’yxatini Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tasdiqlash lozim.

3. “Davlat fuqarolik xizmati to’g’risida”gi qonunning “Davlat fuqarolik xizmatchilarini ishonchni yo’qotganligi sababli xizmatdan bo’shatish chorasini” qo’llashning aniq mexanizmini yaratish, tegishli moddaga (xususan, “Davlat fuqarolik xizmatchisini ishonchni yo’qotganligi sababli xizmatdan bo’shatish” degan 64¹-moddani kiritish) qanday holatlarda davlat xizmatchilariga nisbatan ishonchni yo’qotganligi sababli xizmatdan bo’shatish kabi intizomiy jazo chorasi qo’llanilishi mumkinligini qat’iy belgilash lozim. (batafsil 2-ilovada)

4. “Davlat fuqarolik xizmati to’g’risida”gi qonun loyihasi 63-moddasiga davlat xizmatchilariga nisbatan qo’llaniladigan intizomiy jazo choralarga davlat mukofotlari va rag’batlantiruvchi pul mukofotlari, imtiyozlar, afzalliklarni muayyan muddat davomida berishdan mahrum qilish jazosini kiritish lozim. Shuningdek, “Ma’muriy javobgarlik to’g’risida”gi kodeksga 49⁵-modda “Rahbar tomonidan intizomiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan qo’llanilishi mumkin bo’lmagan rag’batlantiruvchi choralarni qo’llash, imtiyoz va afzalliklar taqdim etish” moddasini kiritish lozim. (batafsil 1-ilovada)

5. “Ma’muriy javobgarlik to’g’risida”gi kodeksga 193⁴-193⁵-moddalarni kiritish va ularni quyidagi normalar bilan to’ldirish tavsiya etiladi.

193⁴-modda. “Rahbar tomonidan korrupsiya va manfaatlar to’qnashuvini oldini olishga oid qonun hujjatlarini buzish

Rahbar xodim tomonidan o'z vaqtida berilgan xabarga asosan manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlarni ko'rmasligi, tegishli organga korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarni buzib, intizomiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning statistikasiga oid ma'lumotlarni taqdim etmaganligi, kadrlarni ishga qabul qilishda qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik, mahalliychilikka yo'l qo'ygan bo'lsa, qarindosh-urug'larning davlat korxonasida birga xizmat qilishlarini cheklash to'g'risidagi qoidalarni chetlab, kadrlarni ishga qabul qilgan bo'lsa - bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Rahbarning qo'l ostida xizmat qiladigan xodimlarni muayyan siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishga, o'z vakolatlari va lavozim mavqeidan muayyan siyosiy partiyani qo'llab-quvvatlashda foydalanishga majburlashi, siyosiy faoliyatda faol qatnashishga undashi, xodimlarga faoliyati davomida homiylik qilishi (patonaj), favoritizm, guruhbozlikka yo'l qo'yishi - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

193⁵-modda. “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga oid qonun hujjatlarini buzish

Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyat vujudga kelishiga yo'l qo'yilishi, yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holat bo'yicha o'z vaqtida rahbarga xabar bermaslik, davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarni buzish, xususan, tadbirkorlik faoliyati bilan noqonuniy shug'ullanish, bir vaqtda bir necha lavozimlarda faoliyat yuritish hamda o'rindoshlik asosida ishlash, yashirin tarzda rahbarni xabardor etmagan holda boshqa haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanish (ilmiy, pedagogik, ijodiy faoliyat bundan mustasno), shuningdek, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Zimmasiga mol-mulki va daromadlari haqida deklaratsiya taqdim etish majburiyati yuklatilgan davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan deklaratsiyani uzrli sabablarsiz belgilangan muddatda taqdim etmaslik yoki bila turib yolg'on ma'lumotlardan iborat deklaratsiyani taqdim etish, xorijiy mamlakatlarda xizmat safaridan qaytgandan so'ng xarajatlarga oid deklaratsiyani, manfaatlar to'qnashuviga oid deklaratsiyani taqdim etmaslik yoki bila turib yolg'on ma'lumotlardan iborat deklaratsiyani taqdim etish - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston hududidan tashqarida joylashgan xorijiy banklarda hisob raqamlar (depozitlar) ochish, naqd pul va qimmatbaho narsalarni saqlash, chet el moliyaviy mablag'lariga egalik qilish va (yoki) ulardan foydalanishni taqiqlashga oid qoidani buzgan lavozim ro'yxati tasdiqlangan mansabdor shaxslar - bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarimaga tortiladi.

6) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga quyidagi moddani kiritish: 205¹-modda. Mansabdor shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan noqonuniy shug'ullanish

Qonunchilikda o'rnatilgan taqiqqa qaramay, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin bo'lmagan mansabdor shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotni boshqarishda shaxsan, qarindosh-urug'lari yoki uchinchi shaxslar orqali ishtirok etishi, agar mansabdor shaxs o'z mansab vakolatlaridan foydalangan holda imtiyoz va afzalliklarga ega bo'lgan yoki boshqacha shaklda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotga homiylik qilingan bo'lsa, natijada tadbirkorlik faoliyatidan katta foyda olingan bo'lsa, mansabdor shaxs:

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019;
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi”, New York-2003;
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi. 01.04.2018// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son;
4. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 04.12.2020-y, 03/20/653/1592-son;
5. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son;
6. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son;
7. “O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi qonun.08.01.2018.O'RQ-457-son//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;
8. O'zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 18.03.2020, 03/20/612/0326-son;
9. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni loyihasi. ID-18047. <https://regulation.gov.uz/oz>;
10. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni, 2019 yil 10-dekabr, O'RQ-591-son;
11. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 257-II-sonli “Prokuratura to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil., 9-10-son, 168-modda;
12. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyuldagi O'RQ-158-son “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida”gi Qonuni.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 28-son, 260-modda;
13. Федеральный закон. «О государственной гражданской службе Российской Федерации» от 27 июля 2004 года № 79-ФЗ;
14. “Кодекса об административных правонарушениях Российской Федерации”, 30.12.2001. N195-ФЗ;
15. Федеральный закон Российской Федерации “О противодействии коррупции” от 25.12.2008, № 273-ФЗ;

16. Janubiy Koreya “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi qonun. 2002-y;
17. Этика государственной и муниципальной службы. Южная Корея. 2000;
18. “State public officials” Act, Korea. 29.12.2005, N7796;
19. Закон о государственной службе № VIII-1316 от 08.07.1999 (принят Сеймом Литовской Республики, опубликован в Официальном бюллетене № 66-2130 от 30 июля 1999 г);
20. Закон Республики Беларусь «О государственной службе в Республике Беларусь» от 14 июня 2003 г. № 204-З // Национальный реестр правовых актов Республики Беларусь от 19 июня 2003 г. N 2/953;
21. Закон Республики Казахстан от 23 ноября 2015 года № 416-V “О государственной службе Республики Казахстан”;
22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 03.10.2019-yil PF-5843-son Farmoni. // (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 06/21/6256/0636-son);
23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Ma’muriy islohotlar Konsepsiyasi”.//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y, 37-son;
24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.05.2019-y., 06/19/5729/3199-son;
25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyul kuni qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-sonli Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021-y., 06/21/6257/0645-son;
26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyul kuni qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son Qarori//Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021-y., 07/21/5177/0644-son;
27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son;
28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting

- baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son Qarori.// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2022-y., 07/22/81/0017-son;
29. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-Ilova;
 30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyunda qabul qilingan "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-son Farmoni;
 31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 5-martda qabul qilingan "Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi PQ-2142-son qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y.,10-son, 103-modda;
 32. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-mart kuni qabul qilingan "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 62-sonli qarori// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son;
 33. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-mart kuni qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro'yxati to'g'risida"gi 103-sonli qarori;
 34. "O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilarining odob-axloq kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarori;
 35. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni loyihasi. QL-362/20-2 <https://project.gov.uz/oz>. 13-modda;
 36. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi, // Xalq so'zi, 23.12.2017;
 37. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so'zi, 25.01.2021;
 38. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuratura Axborotnomasi, "Mansab bilan bog'liq jinoyatlarning statistikasi" 2021;
 39. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining "O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari va muassasalari, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Majburiy ijro byurosi xodimlarining xizmat hududidan boshqa hududga va xorijiy mamlakatlarga chiqish Tartibini tasdiqlash haqida"gi 130-sonli buyrug'i (eski tahrir 2016 yil 29-fevral);
 40. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining 2021-yil 12-iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 246-sonli buyrug'i.

II. Monografiya, ilmiy maqola, ilmiy adabiyotlar:

41. Xojiev E.T, Ismailova G.S, Rahimova M.A., Davlat xizmati: o'quv qo'llanma. Toshkent, Baktria press, 2015;
42. Xojiev E., Xojiev T. Ma'muriy huquq. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – B. 232;
43. Ismailov.B.I., Ismailov.B.I. Xorijiy davlatlarda mansabdor shaxslar aktivlarini deklaratsiya qilish. – T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuratura Akademiyasi, 2019. – B.10;
44. Ismailov B.I. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashning xalqaro-huquqiy jihatlari, O'quv qo'llanmasi. - Toshkent: Yumom. 2015;
45. Mirboboev B., Xusanov O., Begmatov A. O'zbekistonda davlat xizmatini o'tashning tashkiliy-huquqiy masalalari. Akademiya. Toshkent-2005 y;
46. Shomirzaev S. Korrupsiyaga qarshi kurashishda Latviya tajribasi. Huquq va burch ijtimoiy-huquqiy jurnal. 2/2020-son. – S.37;
47. Kulturaev.Sh.Z., O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish masalalari // Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat tizimini joriy etish: muammolar va rivojlanish istiqbollari. TDYU, 2020,-B.331;
48. Isayeva.F.B. “Uzoq muhokamalarga sabab bo'lgan qonun loyihasi: Davlat xizmatchisining huquqiy maqomini belgilash zarur edi//hudud24.uz;
49. Maxmudov Firuz Baxtiyor o'g'li, “Davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari” yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan ilmiy ish, Toshkent-2021, 99-bet;
50. Maxmudov Firuz. “Taqiq va cheklovlar – manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishning mexanizmi sifatida”. Yuridik fanlar axborotnomasi-2020, 82-bet;
51. Feruza Yuldasheva Ulug'bekovna. “O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatiga kirish va o'tashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish” yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Rhd) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan ilmiy ish. Toshkent– 2020, 86 bet;
52. Tojiboev Q. Mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zgarlar mulkini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik. – Toshkent: TDYUI, 2004. – B.13;
53. Zufarov.R.A., Axrarov.B.J., Mirzayev.U.M. Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik. Monografiya // Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. Rustambayev.M.X. – T.: TDYUI nashriyoti, 2011, - B. 27;
54. Meliyev.X. Korrupsiya – xavfsizlikka tahdid // Hayot va qonun, 2004. – B. 51;
55. Said-Gaziyeva.N.SH., O'zbekistonda davlat xizmatini isloh qilishning nazariy va amaliy muammolari. Yu.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDYUI, 2010. B.122-155;
56. Исмаилов Б.И., Насриев И.И. Правовые основы привлечения юридических лиц к ответственности за коррупционные

- правонарушения в зарубежных странах//Учебное пособие. -Т.: ЦПКЮ, Академия Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан. 2020;
- 57.Исмаилов Б.И, Исмоилов Б.И. Современные стратегии антикоррупционных реформ // Учебное пособие. -Т.: Академия Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан, ЦПКЮ, 2019. – С.110;
- 58.Хусаинов У. Ш. Институт ротации в системе государственной власти: понятие и сущность // Актуальные вопросы юридических наук: материалы II Междунар. науч. конф. – Челябинск: Два комсомольца, 2015. – С. 10-13;
- 59.Атагимова. Э.И. “Государственному служащему о коррупции”. Москва-2015;
- 60.Ростовцева Ю.В. Административная ответственность за коррупционные правонарушения в системе государственной службы // Законы России: опыт, анализ, практика. 2012. № 3;
- 61.Алексеевна.К.Н. Управление государственной гражданской службой в Российской Федерации: Административно-правовое исследование: автореферат., кандидат юридических наук, ВАК РФ 12.00.14;
- 62.Шилкин.А.М, Маркин.А.А. “Требования к служебному поведению государственных гражданских служащих как предмет рассмотрения комиссий по урегулированию конфликта интересов и соблюдению требований к служебному поведению государственных гражданских служащих”, Текст научной статьи по специальности «Право».-2014;
- 63.Филиппов В.В. Правовое регулирование конфликта интересов в системе государственной службы США // Криминологический журнал байкальского государственного университета экономики и права. 2010;
- 64.Козлов.В.В.“Ограничения, запреты и обязанности, связанные с прохождением военной службы, установленные федеральным законодательством о противодействии коррупции и о государственной гражданской службе Российской Федерации” // Право в Вооруженных Силах, 2001;
- 65.Ноздрачев.А.Ф. “Формы и способы урегулирования конфликта интересов по законодательству Российской Федерации и зарубежных государств”, Текст научной статьи по специальности «Право». -2016, .№ 6;
- 66.Петрашева.Н.В.“Административно-правовое регулирование антикоррупционных стандартов служебного поведения государственных гражданских служащих”, Международный журнал гуманитарных и естественных наук, 2022;
- 67.Шветова К.Г. Ограничения и запреты в структуре правового статуса военнослужащих // «Военное право» № 3 (31) 2014 г;
- 68.Малько А. В. “Стимулы и ограничения в праве: теоретико-информационный аспект”. М, 2003. С-91;

69. Курбанов Р. Д. “Совершенствование организационно-правовых основ государственной гражданской службы в Российской Федерации”, 2010. автореферат по ВАК РФ 12.00.14, доктор юридических наук;
70. Гусев А.В., “Государственная гражданская служба Российской Федерации: проблемы правового регулирования” 2009, автореферат по ВАК РФ 12.00.05, доктор юридических наук;
71. Козлова Ю.М., Административное право, Москва. 2007 г.с.136-137;
72. Пашаев.Х.П., Пашаева.Э.Х “Повышение уровня правосознания граждан и популяризация антикоррупционных стандартов поведения: курс лекций” Учебное пособие, Горно-Алтайск БИЦ Горно-Алтайского государственного университета 2018, 9 стр;
73. Пресняков М.В., Чаннов С.Е. Службное право Российской Федерации: Учеб. пособие. –М.: Норма: Инфра-М, 2011. – С. 447;
74. Куракин А.В. Административно-правовые аспекты юридической ответственности в механизме противодействия коррупции в системе государственной службы Российской Федерации //NB: Административное право и практика администрирования. 2013. № 7;
75. Атагимова Э.И., “Государственному служащему о коррупции”. Москва-2015;
76. Дмитриев.Ю.А., Полянский И.А., Трофимов.Е.В. Административное право Российской Федерации: Система Гарант, 2008;
77. Юсупов А.Л. “Понятие и особенности дисциплинарной ответственности за нарушения законодательства о противодействии коррупции” // Вестник Саратовской государственной юридической академии. 2014 (96);
78. Филиппов В.В. Правовое регулирование конфликта интересов в системе государственной службы США // Криминологический журнал байкальского государственного университета экономики и права. 2010;
79. Хазанов С.Д. “Антикоррупционные запреты и ограничения в системе публичной службы как инструмент антикоррупционной политики: поиск оптимальной модели правового регулирования” УДК 342.98. DOI 10.17506/articles.anticorruption.2018.453472;
80. Ростовцева Ю.В. Административная ответственность за коррупционные правонарушения в системе государственной службы // Законы России: опыт, анализ, практика. 2012. № 3;
81. Гайдышева В.И. Зарубежный опыт противодействия коррупции. Научные горизонты № 11(15). – С. 71;
82. Краснова К.А. Уголовная политика Европейского союза в сфере противодействия коррупции. Монография. “Издательство Проспект”, 2015. – С.26;
83. Леохновская Е.В. Практика применения института утраты доверия в связи с совершением коррупционных правонарушений // Прокурор. 2017. № 4;

84. Табельский С.В. Практика применения института утраты доверия в связи с совершением коррупционных правонарушений // Прокурор. 2017. № 4;
85. Васюшкин В. Пределы прокурорского надзора, Законность. 2010. № 11;
86. Положение об Управлении по надзору за исполнением законодательства о противодействии коррупции (утв. Генпрокуратурой России 08.07.2016);
87. “Запреты и ограничения на госслужбе”. Методический материал. Настоящий методический материал предназначен для государственных (муниципальных) служащих, направлен на повышение уровня правосознания и формирования устойчивого антикоррупционного поведения. Москва-2016;
88. Ростовцева Ю.В. Административная ответственность коррупционные правонарушения в системе государственной службы // Законы России: опыт, анализ, практика. 2012;
89. Кривоносов А.Д. Административные запреты в системе государственной службы Российской Федерации автореф. дис. канд. юрид. наук. М., 2009. С. 8;
90. Глазырин Т.С. “Анализ деятельности комиссий по соблюдению требований к служебному поведению гражданских и муниципальных служащих и урегулированию конфликта интересов”, Москва-2016;
91. Ноздрачев А.Ф. Основные выводы и рекомендации. М: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации: Инфра-М, 2016. – С. 167-174;
92. Козлов В.В. “Ограничения, запреты и обязанности, связанные с прохождением военной службы, установленные федеральным законодательством о противодействии коррупции и о государственной гражданской службе Российской Федерации” // Право в Вооруженных Силах, 2001;
93. Малько А. В. “Стимулы и ограничения в праве: теоретико-информационный аспект”. М, 2003. С-91;
94. Шветова К.Г. Ограничения и запреты в структуре правового статуса военнослужащих // «Военное право» № 3 (31) 2014 г;
95. Борщевский Г.А., Государственная служба. Учебник, Москва-Юрайт-2016, С25;
96. A.Richard, J.Champagne. The Separation of Powers, Institutional Responsibility, and the Problem of Representation. <http://scholarship.law.marquette.edu/mulr/vol75/iss4/5>;
97. J.S.Hellman, G.Jones, D.Kaufmann. Seize the state, seize the day: State capture, corruption, and influence in transition. Policy Research Working Paper No. 2444 2000; World Bank: Washington;
98. A. Graycar . Awareness of corruption in the community and public service: A Victorian study. Australian Journal of Public Administration. 73(2): 2014;

99. A. Graycar, T. Prenzler. Understanding and preventing corruption. 2013; Palgrave Macmillan: Basingstoke, UK;
100. U Myint, "Corruption: Causes, Consequences, and Cures", Asia-Pacific Development Journal Vol. 7, No. 2, December 2000;
101. B. Begovic «Corruption: concepts, types, causes and consequences», Cadal, 2005;
102. M. Johnston. "Syndromes of corruption: Wealth, power, and democracy". Cambridge University Press: New York-2005;
103. Abjorensen N. Combating Corruption Implications of the G20 Action Plan for the Asia-Pacific Region. 2014, Konrad-Adenauer-Stiftung, Japan.P9;
104. Bernard Lo, Marilyn J. Field, Conflict of Interest in Medical Research, Education, and Practice, Washington, DC: The National Academies Press. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK22926/>;
105. Cabinet Office, the business appointment rules for civil servants, available at: www.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/382937/Business_Appointment_Rules__2014pd;
106. Legislative guide for the implementation of the United Nations Convention against Corruption". United nations. New York, 2012.
107. OECD. "Istanbul Anti-corruption Action Plan", 4 round (Uzbekistan) (2019), Recommendation 5;
108. OECD. "Istanbul Anti-corruption Action Plan", 3 round (Uzbekistan) (2015) Recommendation 15;
109. OECD. "Prevention of corruption in the public sector in Eastern Europe and Central Asia, 2015, P-23.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar:

110. <https://uzbekistan.un.org/uz/125180-helena-freyzerning-ozbekiston-respublikasining-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-boyicha-2021>;
111. <https://anticorruption.uz/uz/item/2021/04/02/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-milliy-strategiyasi-xalqaro-ekspertlar-muhokamasida-taklif-etirof-etirozlar>;
112. https://www.norma.uz/raznoe/analiz_opyta_pravovogo_regulirovaniya_gosudarstvennoy_slujby_zarubejnyh_stran_i_predlojeniya_po_ego_uchetu_pri_podgotovke_zakonoproekta_o_gosudarstvennoy_slujbe;
113. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1016/j.polsoc.2015.04.001>;
114. https://kpfu.ru/docs/F769475982/2_Xalil_korub;
115. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>;
116. URL: <https://lex.uz/docs/1369505>;
117. URL: <https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan>;
118. <https://www.oecd.org/gov/ethics/2957360.pdf>;
119. <https://regulation.gov.uz/uz/document/18047>;
120. <https://www.e-tar.lt>;
121. <https://online.zakon.kz>;

122. <https://xs.uz/uz/post/davlat-fuqarolik-khizmatiga-ishonch-yanada-ortmoqda;>
123. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/davlat-xizmatchisi-ahloq-qoidalari;>
124. <https://yuz.uz/uz/news/korruptsiyaviy-jinoyatlar-statistikasi-elon-qilindi;>
125. <https://anticorruption.uz/uz/item/2021/04/30/davlat-fuqarolik-xizmatini-2030-yilgacha-rivojlantirish-strategiyasi-loyihasini-takomillashtirishga-qaratilgan-takliflar-bildirildi;>
126. <https://www.arkh-edu.ru/anticorruption/detail.php?ID=163883;>
127. <https://www.u4.no/terms#bribery;>
128. <https://lex.uz/acts/-517034#-854229;>
129. <https://www.transparency.org/en;>
130. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Korruptsiya;>
131. <http://kamadm.ru/anticorruption/media/2018/8/3/korruptsiya-ponyatie-vidyi-istoriya-poyavleniya-i-razvitiya;>
132. <https://www.transparency.org/en/cpi/2021;>
133. <https://www.oecd.org/gov/ethics/recommendation-public-integrity;>
134. Cyberleninka.ru;
135. <https://lex.uz;>
136. <https://project.gov.uz;>
137. <https://oak.uz;>
138. <http://argos.uz;>
139. [http://eanticor.uz/;](http://eanticor.uz/)
140. [https://globaldatabarometer.org/;](https://globaldatabarometer.org/)

“Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan
oʻrnatilgan korrupsiyaga qarshi cheklov va taqiqlar:
qiyosiy-huquqiy tahlil” mavzusidagi
dissertatsiyaga 1-ilova

LOYIHA

“OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI”

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA
OʻZGARTIRISH VA QOʻSHIMCHALAR KIRITISH TOʻGʻRISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 20__yil __ _____da qabul qilingan.

Senat tomonidan 20__yil __ _____da maʼqullangan.

1-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan 257-II-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasining “Prokuratura toʻgʻrisida”gi qonuniga (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 19.11.2021-y., 03/21/729/1064-son; 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son) quyidagi qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 4-modda (Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yoʻnalishlari) birinchi qism uchinchi bandiga quyidagi yoʻnalish qoʻshimcha sifatida kiritilsin:

“Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazorat qilish”.

2) 1-bob. (Qonunlar ijrosi ustidan nazorat) tarkibiga 1¹-bob (Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazorat) deb nomlangan alohida bob qoʻshish va ushbu bobni quyidagi moddalar bilan toʻldirish lozim:

23¹-modda. Nazorat predmeti

Vazirliklar, davlat qoʻmitalari, idoralar, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar, barcha davlat organlari mansabdor shaxslari hamda davlat

xizmatchilari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning korrupsiyaga qarshi qonunlarga muvofiqligini aniqlash, normativ-huquqiy hujjatlar va me'yoriy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizani o'tkazish nazorat predmeti hisoblanadi.

23²-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonunlar ijrosini tekshirish

Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek qonuniylik prokuror tomonidan choralar ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

23³-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonunlar ijrosini tekshirishda prokurorning vazifa va vakolatlari

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldini olish, ularning sabablari va shartlarini aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarning oqibatlarini minimallashtirish va (yoki) bartaraf etish nazorat faoliyatining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Prokuror korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida o'z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi, davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlarga, taqiq va cheklovlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladigan Odob-axloq komissiyalari, maxsus bo'linmalar, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiradigan kadrlar bo'linmalari, xizmat tekshiruvini o'tkazadigan intizomiy komissiyalar faoliyati ustidan nazorat o'tkazishi;

normativ-huquqiy va me'yoriy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshirish maqsadida korrupsiyaga qarshi

ekspertizadan o'tkazishi;

korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlashi lozim.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari buzilganligi aniqlangan taqdirda jinoiy, ma'muriy, intizomiy va moddiy javobgarlikka tortish masalalarini ko'rib chiqishi lozim.

2-modda. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan 161-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y, 03/21/683/0375-son; 03.08.2021-y, 03/21/705/0742-son, 30.10.2021-y, 03/21/726/1001-son; 10.02.2022-y, 03/22/752/0113-son) quyidagi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin:

1) 95-modda 1-qismga quyidagi norma qo'shimcha sifatida kiritilsin:

“Ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolinishi munosabati bilan, shuningdek, **korrupsiyaning favoritizm, qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik ko'rinishlarini, manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyatlarni bartaraf etish maqsadida** xodimni uning roziligisiz vaqtincha boshqa ishga o'tkazishga yo'l qo'yiladi.

2) 92¹-modda – “Xodimni rotatsiya qilish asoslari va tartibi” deb nomlangan modda qo'shilib, quyidagi normalar bilan to'ldirilsin:

Davlat hokimiyat organlarida muayyan lavozim va mansabni egallab turgan davlat xizmatchilari korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida ish faoliyatida belgilangan muddat o'tganidan so'ng xodimning roziligi talab qilinmagan holda rotatsiya (davlat xizmatchisini boshqa lavozimga yoki boshqa davlat tashkiloti va organining davlat lavozimiga o'tkazish) qilinishi lozim.

Rotatsiya qilinishi nazarda tutilgan lavozimlar ro'yxati va rotatsiya amalga oshiriladigan muddatlar hamda tartibi Prezident qarori asosida tasdiqlanadi.

3) 178-modda (Xodimlarni ularga yuklatilgan mehnat vazifalari bilan tanishtirish) quyidagi shaklda to'ldirilsin:

Har bir xodim o'ziga yuklatiladigan mehnat vazifalari doirasi, amal qilinishi lozim bo'lgan odob-axloq qoidalari, huquq va majburiyatlari, agarda belgilangan bo'lsa, xizmatni o'tash bilan bog'liq taqiq va cheklovlar bilan tanishtirilishi va bu bo'yicha tilxat olinishi lozim.

3-modda. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2021-y., 03/21/719/0929-son; 05.10.2021-y., 03/21/720/0930-son; 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son; 01.12.2021-y., 03/21/734/1113-son) quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 49⁵-modda “Rahbar tomonidan intizomiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lmagan rag'batlantiruvchi choralarni qo'llash, imtiyoz va afzalliklar taqdim etish

Rahbar tomonidan odob-axloq qoidalarini, belgilangan taqiq va cheklovlarga oid qoidalarni buzib, intizomiy javobgarlikka tortilgan davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan mukofotlar, rag'batlantiruvchi to'lovlarni amalga oshirish, lavozim va ish haqini oshirish, turli xil imtiyoz va afzalliklar berish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

2) 193⁴-modda. “Rahbar tomonidan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga oid qonun hujjatlarini buzish

Rahbar xodim tomonidan o'z vaqtida berilgan xabarga asosan manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlarni ko'rmasligi, tegishli organga korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarni buzib, intizomiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning statistikasiga oid ma'lumotlarni taqdim etmasligi, kadrlarni ishga qabul qilishda qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik, mahalliychilikka yo'l qo'ygan bo'lsa, qarindosh-urug'larning davlat korxonasida birga xizmat qilishlarini cheklash to'g'risidagi qoidalarni chetlab, kadrlarni ishga qabul qilgan bo'lsa - bazaviy hisoblash

miqdorining o'n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Rahbarning qo'l ostida xizmat qiladigan davlat fuqarolik xizmatchilarini muayyan siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishga, o'z vakolatlari va lavozim mavqeidan muayyan siyosiy partiyani qo'llab-quvvatlashda foydalanishga majburlashi, siyosiy faoliyatda faol qatnashishga undashi, qo'l ostidagi davlat fuqarolik xizmatchilariga faoliyati davomida homiylik qilishi (patonaj), favoritizm, guruhbozlikka yo'l qo'yishi - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

3) 193⁵-modda. "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga oid qonun hujjatlarini buzish

Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyat vujudga kelishiga yo'l qo'yilishi, yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holat bo'yicha o'z vaqtida rahbarga xabar bermaslik, davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarni buzish, xususan, tadbirkorlik faoliyati bilan noqonuniy shug'ullanish, bir vaqtda bir necha lavozimlarda faoliyat yuritish hamda o'rindoshlik asosida ishlash, yashirin tarzda rahbarni xabardor etmagan holda boshqa haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanish (ilmiy, pedagogik, ijodiy faoliyat bundan mustasno), shuningdek, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan, korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarga rioya qilmayotgan davlat fuqarolik xizmatchilari haqida vaqtida xabar berish majburiyatini bajarmaslik - bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Zimmasiga mol-mulki haqida deklaratsiya taqdim etish majburiyati yuklatilgan davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan deklaratsiyani uzrli sabablarsiz belgilangan muddatda taqdim etmaslik yoki bila turib yolg'on ma'lumotlardan iborat deklaratsiyani taqdim etish - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston hududidan tashqarida joylashgan xorijiy banklarda hisob raqamlar (depozitlar) ochish, naqd pul va qimmatbaho narsalarni saqlash, chet el moliyaviy mablag'lariga egalik qilish va (yoki) ulardan foydalanishni taqiqlashga oid qoidani buzgan lavozim ro'yxati tasdiqlangan mansabdor shaxslar - bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarimaga tortiladi.

4) 193⁶-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatga sabab bo'lgan mol-mulkini ishonchli boshqaruvchiga topshirish majburiyatini bajarmaslik

Davlat fuqarolik xizmatchisining qimmatli qog'ozlarga (ulushlar, tashkilotlarning ustav (zaxira) kapitalidagi ulushlari), bank omonat jamg'armalariga ega bo'lishi manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan taqdirda, davlat fuqarolik xizmatchisi o'z qimmatli qog'ozlarini (ishtirokchilikdagi ulushlar, tashkilotlarning ustav (zaxira) kapitallaridagi ulushlarni) fuqarolik qonunchiligiga muvofiq ishonchli boshqaruvchiga topshirishi kerak bo'lgani holda rahbarning bu bo'yicha topshirig'ini bajarmaslik - bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

5) 193⁷-modda. Sobiq davlat fuqarolik xizmatchisining davlat fuqarolik xizmatidan bo'shatilgandan keyin o'rnatilgan cheklovlarga rioya qilmasligi

Sobiq davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan xizmatdan bo'shatilgandan so'ng ikki yil ichida tijorat va notijorat tashkilotlaridagi, davlat organi va tashkilotlaridagi mehnat faoliyati haqida mehnat shartnomasi tuzilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida oxirgi ish joyidagi rahbarni xabardor qilish majburiyatini uzrli sabablarsiz bajarmaslik - bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

4-modda. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan O'RQ-474-sonli "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuniga (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 4-modda. "Jamoatchilik nazoratining obyekti" qatoriga quyidagi obyekt oltinchi xatboshi sifatida kiritilsin:

Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan xizmat binosidan tashqari joylarda odob-axloq qoidalariga, qonunchilikda o'rnatilgan korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarga qay darajada rioya qilinayotganligi nazorat obyekti hisoblanadi.

5-modda. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan O'RQ-419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 19.11.2021-y., 03/21/729/1064-son) quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 3-modda "Asosiy tushunchalar" quyidagi korrupsiyaning ko'rinishlariga oid yuridik terminlar va ularning ta'riflari bilan to'ldirilsin:

Favoritizm (xayrixohlik) - mansabdor shaxs tomonidan fuqarolarga, ularning qarindosh, tanish, do'st ekanligi yoki ijtimoiy, diniy, siyosiy qarashlaridan kelib chiqib noqonuniy imtiyozlar berish, xizmatlar ko'rsatish.

Nepotizm – favoritizmning bir ko'rinishi bo'lib, qarindoshlik, oilaviy munosabatlardan kelib chiqib qarindoshlik aloqasida bo'lgan shaxslarga noqonuniy imtiyoz, afzalliklar berish, masalan, ishga qabul, lavozimini oshirishda qonuniy shartlarni chetlab o'tib, qarindoshlik munosabatidagi shaxslarni ishga qabul qilish, lavozim darajasini oshirish kabilar bunga misol bo'ladi. Xuddi shu imtiyozlar, afzalliklar do'stlarga, hamkasblarga, tanishlarga nisbatan qo'llanilsa, u kronizm deb ataladi.

Mahalliychilik – muayyan shaxslarni ularning nasl-nasabi, ajdodlari egallab kelgan lavozimlariga qarab hokimiyat lavozimiga tayinlash tartibi tushuniladi.

Urug'-aymoqchilik – davlat hokimiyat organlari tizimini shakllantirish asosi, masalan, muayyan vazirlik tizimida rahbardan tortib davlat xizmatchisigacha qarindoshlik, urug'-aymoqchilik munosabatida bo'lishi bunga

misol bo'ladi.

Patronaj (homiylilik) – hukumatga kadrlarni ishga qabul qilishda, lavozim darajasini oshirishda, mehnat shartnomasini tuzishda foydalaniladigan homiylilik.

2) 26-modda ikkinchi qismiga quyidagi qoidalarni kiritish tavsiya etiladi:

Davlat organi xodimi rahbar tomonidan kadrlarni ishga qabul qilish jarayonida qarindosh-urug'chilik (nepotizm), tanish-bilishchilik (kronizm), mahalliychilik, homiylilik qilish (patronaj) kabi holatlarga yo'l qo'yganligi, o'z xizmat faoliyati davomida favoritizm, guruhbozlik, urug'-aymoqchilik kabi salbiy omillarni oldini olmaganligi va ularga yo'l qo'yib berganligi haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi lozim.

6-modda. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.02.2022-y., 03/22/754/0134-son; 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son; 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son) quyidagi qo'shimcha kiritilsin:

1) 205¹-modda. Mansabdor shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan noqonuniy shug'ullanish

Qonunchilikda o'rnatilgan taqiqqa qaramay, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin bo'lmagan mansabdor shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotni boshqarishda shaxsan, qarindosh-urug'lari yoki uchinchi shaxslar orqali ishtirok etishi, agar mansabdor shaxs o'z mansab vakolatlaridan foydalangan holda imtiyoz va afzalliklarga ega bo'lgan yoki boshqacha shaklda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotga homiylilik qilingan bo'lsa, natijada tadbirkorlik faoliyatidan katta foyda olingan bo'lsa, mansabdor shaxs:

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-
huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin;
ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va
ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

8-modda. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga
kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev

“Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan
oʻrnatilgan korrupsiyaga qarshi cheklov va taqiqlar:
qiyosiy-huquqiy tahlil” mavzusidagi
dissertatsiyaga 2-ilova

LOYIHA

TAKLIFLAR

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING “DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI TOʻGʻRISIDA”GI QONUNI LOYIHASIGA

QL-362/20-2

1) 12-modda. “Davlat fuqarolik xizmatchisining majburiyatlari” qismiga quyidagilarni ham kiritish tavsiya qilinadi:

davlat fuqarolik xizmatchilari belgilangan taqiq va cheklovlarga amal qilishi, faoliyati davomida manfaatlar toʻqnashuvi bilan bogʻliq holatga duch kelganda bu haqida oʻz vaqtida rahbarni xabardor qilishi hamda rahbarning manfaatlar toʻqnashuvini bartaraf etishga qaratilgan topshiriqlarini bajarishi;

davlat fuqarolik xizmatchilari boshqa bir davlat xizmatchisi faoliyati davomida odob-axloq qoidalariga, oʻrnatilgan taqiq va cheklov qoidalariga rioya qilmayotganligi, korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etgani, manfaatlar toʻqnashuvi bilan bogʻliq holat yuzaga kelishiga yoʻl qoʻyganidan xabardor boʻlsa, bu haqida rahbarga xabar berishi;

davlat fuqarolik xizmatchisining qimmatli qogʻozlarga, bank omonat jamgʻarmalariga ega boʻlishi manfaatlar toʻqnashuviga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin boʻlgan taqdirda, davlat fuqarolik xizmatchisi oʻz qimmatli qogʻozlarini fuqarolik qonunchiligiga muvofiq ishonchli boshqaruvchiga topshirishi;

davlat fuqarolik xizmatchisi xizmatdan boʻshatilganidan soʻng ikki yil muddat ichida tijorat va notijorat tashkilotlari, davlat organlari va tashkilotlarida ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzilganligi haqida oʻn kun muddat ichida oxirgi ish joyidagi rahbarga

xabarnoma yuborishi lozim.

2) 13-modda. “Davlat fuqarolik xizmatini o’tash bilan bog’liq cheklolar” tizimiga quyidagi qo’shimcha normalar va o’zgartirishlarni kiritish tavsiya etiladi:

Davlat fuqarolik xizmatchisi quyidagilarga haqli emas:

jismoniy va yuridik shaxslarning mablag’lari hisobidan xizmat safarlariga chiqish;

bir vaqtda bir necha lavozimda faoliyat yuritishga (qo’shlavozimlilik) hamda o’rindoshlik asosida mehnat foylatini amalga oshirishga;

davlat fuqarolik xizmatchisining O’zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining boshqaruv organlariga, vasiylik organlariga yoki kuzatuv kengashlariga va ularning tarkibiy bo’linmalariga kirishi, agar qonunda nazarda tutilmagan bo’lsa;

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan ro’yxatda nazarda tutilgan lavozimni egallab turgan davlat fuqarolik xizmati mansabdor shaxsi, uning xotini (eri) va voyaga yetmagan bolalari tomonidan O’zbekiston hududidan tashqarida joylashgan xorijiy banklarda hisob raqamlari (depozitlari) ochish, naqd pul va qimmatbaho narsalarni saqlash, chet el moliyaviy mablag’lariga egalik qilish va (yoki) ulardan foydalanishga;

fuqarolarga xizmat ko’rsatish jarayonida o’zaro shaxsiy manfaatdorlikda bo’lgan shaxslarga, qarindosh-urug’larga, tanish-bilishlariga oid ishni hal qilishda manfaatlar to’qnashuvi yuzaga kelgan, ishni xolis, adolatli va qonuniylik asosida ko’rib chiqishga va hal etishga to’sqinlik qiladigan bo’lsa, o’zini o’zi rad etmay ishni davom ettirishga haqli emas.

3) 13-moddaning o’n ikkinchi xatboshisini quyidagi tahrirda talqin etilishi tavsiya etiladi:

davlat fuqarolik xizmatchilari xizmatni o’tash davrida siyosiy partiyalarga a’zo bo’lgan taqdirda, davlat fuqarolik xizmatchisi maqomidagi faoliyatini to’xtatib turishi lozim.

4) 15-modda “Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari”

to'rtinchi xatboshisiga quyidagi jummalarni qo'shish lozim:

Davlat fuqarolik xizmatchisi o'z vazifalarini bajarishga kirishishidan avval davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari, **ularga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlar, majburiyatlari** bilan imzo chekkan holda tanishtirilishi shart.

5) 63-moddada sanab o'tilgan intizomiy jazo choralari qo'shimcha tarzda quyidagilarni kiritish tavsiya etiladi:

ish haqini ushlab qolish, kamaytirish;

lavozim vakolatlarini amalga oshirishni muayyan davrda to'xtatib qo'yish;

vaqtincha ishdan bo'shatish.

Intizomiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan davlat mukofotlarini taqdim etmaslik, rag'batlantiruvchi to'lovlarni amalga oshirmaslik, lavozim va ish haqini oshirmaslik, qonunda nazarda tutilgan imtiyoz va afzalliklardan muayyan muddatda mahrum qilish lozim.

6) Loyihaga 64¹-moddani (Davlat fuqarolik xizmatchisini ishonchni yo'qotganligi sababli xizmatdan bo'shatish) kiritish va quyidagi tarzda bayon etish tavsiya etiladi:

Davlat fuqarolik xizmatchilari quyidagi hollarda ishonchni yo'qotganligi sababli xizmatdan bo'shatiladi:

davlat fuqarolik xizmatchisi o'zi ishtirokidagi manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va (yoki) hal qilish choralari ko'rmaganligi;

davlat fuqarolik xizmatchisi va oila a'zolarining daromadlari, mol-mulki va ko'p miqdordagi xarajatlari to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etmaslik, uning topshirish muddatlarini buzish yoki ma'lumotlarni taqdim etish majburiy bo'lgan taqdirda atayin to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish;

davlat fuqarolik xizmatchisining tijorat tashkilotining boshqaruv organi faoliyatida haq to'lash asosida ishtirok etishi,

davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga

oshirish;

davlat fuqarolik xizmatchisining O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining boshqaruv organlariga, vasiylik organlariga yoki kuzatuv kengashlariga va ularning tarkibiy bo'linmalariga kirishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan ro'yxatda nazarda tutilgan lavozimni egallab turgan davlat fuqarolik xizmatchisi, uning xotini (eri) va voyaga yetmagan bolalari tomonidan O'zbekiston hududidan tashqarida joylashgan xorijiy banklarda hisob raqamlari (depozitlari) ochish, naqd pul va qimmatbaho narsalarni saqlash, chet el moliyaviy mablag'lariga egalik qilish va (yoki) ulardan foydalanishga oid taqiqni buzish;

rahbar muayyan vaziyatda qo'l ostidagi davlat fuqarolik xizmatchisining shaxsiy manfaatlari borligi haqida oldindan xabardor bo'lgani holda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga yo'l qo'yib berish, shuningdek, qo'l ostidagi davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan o'z vaqtida berilgan xabarga asosan manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va (yoki) ularni hal qilish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlarni ko'rmasligi ishonchni yo'qotganligi tufayli xizmatdan bo'shatilishga asos bo'ladi.

7) 68-modda "Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan yetkazilgan zararni qoplash" oltinchi xatboshisiga quyidagi normani kiritish tavsiya etiladi:

Davlat fuqarolik xizmatchilari o'zlariga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlarni buzib, muayyan moddiy manfaatga, pul mablag'lariga, foyda va imtiyozlarga ega bo'lgan bo'lsalar, mazkur manfaatlar pul ko'rinishida davlat budjetiga o'tkazilishi lozim.

8) Loyihaga 69¹-modda (Ishonchni yo'qotganligi sababli ishdan bo'shatilgan va intizomiy javobgarlikka tortilgan davlat fuqarolik xizmatchilarining reestri)ni kiritish va uni quyidagi tarzda bayon etish tavsiya etiladi:

Korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etganligi uchun davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan ishonchni yo'qotganligi sababli ishdan bo'shatish

tarzidagi jazo qo'llanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar davlat fuqarolik xizmatchisi davlat xizmatini o'tagan davlat organi mas'ul shaxsi tomonidan ishdan bo'shatilgan shaxslar reestriga kiritiladi.

Korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etganligi uchun davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan ishonchni yo'qotganligi sababli ishdan bo'shatish tarzidagi jazo qo'llanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar reestrda besh yil muddatgacha saqlanadi.

Ishonchni yo'qotganligi sababli ishdan bo'shatish tarzidagi jazo qo'llanilgan shaxslar reestri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish Agentligi axborot tizimining rasmiy veb-saytida joylashtirilishi kerak.

Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga oid qonun hujjatlarini, odob-axloq qoidalarini, belgilangan taqiq va cheklovlarni buzib, intizomiy javobgarlikka tortilgan davlat fuqarolik xizmatchilarining reestrini, ular bo'yicha statistik ma'lumotlarni yuritish va muntazam tahlil qilib borish lozim.

Belgilangan taqiq va cheklovlarni buzib, intizomiy javobgarlikka tortilgan davlat fuqarolik xizmatchilarining statistik hisobotini kadrlar xizmati mas'ul xodimi olib boradi.

9) Loyihaga 69²-moddani (Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan belgilangan taqiq va cheklovlarga rioya qilinishi ustidan jamoatchilik nazorati) kiritish va uni quyidagi tarzda bayon etish tavsiya etiladi:

Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga, qonunda belgilangan taqiq va cheklovlarga, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan qonun hujjatlariga rioya qilinishi ustidan jamoatchilik vakillari tomonidan nazorat amalga oshiriladi. Jamoatchilik vakillari odob-axloq qoidalarini, qonunda belgilangan taqiq va cheklovlarni buzgan davlat fuqarolik xizmatchilari haqida maxsus platformaga shaxsini ko'rsatgan holda yoki anonim shaklda xabar yuborishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati bilan noqonuniy shug'ullanayotgan, bir vaqtda bir

necha lavozimda faoliyat yuritayotgan, o'rindoshlik asosida ishlayotgan, yashirin tarzda boshqa haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanayotgan davlat fuqarolik xizmatchilari haqida xabar bergan fuqarolar mukofotlanadilar. Xabar bergan shaxslarni mukofotlash tartibi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.

10) Loyihaga 69³-moddani ("Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunga rioya qilinishi ustidan nazorat) kiritish va uni quyidagi tarzda bayon etish tavsiya etiladi:

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunning ijro etilishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish Agentligiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun hujjatlariga aniq va bir xil rioya etilishi ustidan, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan o'rnatilgan taqiq va cheklovlarga amal qilinishi ustidan nazorat Bosh prokuror va unga bo'ysunuvchi prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi.

11) Davlat fuqarolik xizmatchilariga odob-axloq qoidalari, o'rnatilgan taqiq va cheklovlarga, manfaatlar to'qnashuviga oid qoidalar bo'yicha ixtiyoriy va majburiy seminarlar o'tkazish amaliyotini joriy etish lozim. Ushbu seminarlarni tashkil etish vazifasini – Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga topshirish lozim.

“Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan
oʻrnatilgan korrupsiyaga qarshi cheklov va taqiqlar:
qiyosiy-huquqiy tahlil” mavzusidagi
dissertatsiyaga 3-ilova

“OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA
OʻZGARTIRISH VA QOʻSHIMCHALAR KIRITISH TOʻGʻRISIDA”GI
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI LOYIHASIGA
TAQQOSLASH JADVALI

№	Amaldagi tahrir	Taklif etilayotgan tahrir	Asoslantirish
Oʻzbekiston Respublikasining “Prokuratura toʻgʻrisida”gi qonuniga			
1.	4-modda. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yoʻnalishlari Prokuratura organlari oʻz faoliyatini quyidagi asosiy yoʻnalishlar boʻyicha amalga oshiradi: ... fuqaroning huquq hamda erkinliklarini taʼminlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish.	4-modda. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yoʻnalishlari Prokuratura organlari oʻz faoliyatini quyidagi asosiy yoʻnalishlar boʻyicha amalga oshiradi: ... korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazorat qilish; fuqaroning huquq hamda erkinliklarini taʼminlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish.	Hozirgi kunda korrupsiya va manfaatlar toʻqnashuvini oldini olish va ularga qarshi kurashishga oid qator qonun hujjatlari qabul qilinyapti, ularning ijro etilishini taʼminlash va nazorat qilish uchun prokuratura organlari tizimida maxsus korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradigan boʻlim faoliyatini yoʻlga qoʻyish zarur.
2.	Toʻldirilmoqda	1 ¹ -BOB. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA QARATILGAN QONUN HUJJATLARI IJROSI USTIDAN NAZORAT	2021-yilda Bosh prokuror buyrugʻi asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi chora-tadbirlarni

	<p>23¹-modda. Nazorat predmeti Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar, barcha davlat organlari mansabdor shaxslari hamda davlat xizmatchilari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning korrupsiyaga qarshi qonunlarga muvofiqligini aniqlash, normativ-huquqiy hujjatlar va me‘yoriy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizani o‘tkazish nazorat predmeti hisoblanadi.</p> <p>23²-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonunlar ijrosini tekshirish Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to‘g‘risidagi arizalar va boshqa ma‘lumotlar asosida, shuningdek qonuniylik prokuror tomonidan choralar ko‘rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o‘tkaziladi.</p> <p>23³-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonunlar ijrosini tekshirishda</p>	muvofiqlashtirish boshqarmasi tashkil etilgan bo‘lib, ushbu boshqarmaning asosiy vazifasi korrupsiyaga oid jinoyatlar tergov ustidan nazoratni amalga oshirishdan iborat. Agarda prokuratura faoliyati yo‘nalishida “korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati” yo‘nalishi joriy etiladigan bo‘lsa, ushbu boshqarma vazifalari qatoriga korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlariga davlat tashkiloti va idoralari xodimlari tomonidan qay darajada amal qilinishi ustidan nazorat o‘rnatish ham kiritiladi. Uning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunga alohida “Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazorat” degan bob kiritish va ushbu bobda prokurorning mazkur yo‘nalishga
--	---	---

	<p>prokurorning vazifa va vakolatlari</p> <p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldini olish, ularning sabablari va shartlarini aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarning oqibatlarini minimallashtirish va (yoki) bartaraf etish nazorat faoliyatining asosiy vazifasi hisoblanadi.</p> <p>Prokuror korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida o'z vakolatlari doirasida:</p> <p>korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi, davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlarga, taqiq va cheklolarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;</p> <p>davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladigan Odob-axloq komissiyalari, maxsus bo'linmalar, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiradigan kadrlar bo'linmalari, xizmat tekshiruvini o'tkazadigan intizomiy komissiyalar faoliyati ustidan nazorat o'tkazishi;</p> <p>normativ-huquqiy va me'yoriy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshirish maqsadida</p>	<p>oid vazifa va vakolatlari belgilab qo'yish muhim sanaladi. Ushbu asoslardan kelib chiqib, "Prokuratura to'g'risida"gi qonunga "1¹-BOB. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA QARATILGAN QONUN HUJJATLARI IJROSI USTIDAN NAZORAT" ni kiritish, va ushbu bobni 23¹-23³-moddalar bilan to'ldirish tavsiya etiladi. Yangi kiritilgan yo'nalish, bob va moddalarga muvofiq Bosh prokuror tomonidan aynan ushbu yo'nalishda prokuror vakolatlariga, nazoratni amalga oshirish tartibiga oid buyruq ishlab chiqish zarur.</p>
--	--	--

		<p>korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishi;</p> <p>korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlashi lozim.</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari buzilganligi aniqlangan taqdirda jinoiy, ma'muriy, intizomiy va moddiy javobgarlikka tortish masalalarini ko'rib chiqishi lozim.</p>	
O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga			
3.	<p>95-modda. Ish beruvchining tashabbusi bilan vaqtincha boshqa ishga o'tkazish</p> <p>Ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolinishi munosabati bilan xodimni uning roziligisiz vaqtincha boshqa ishga o'tkazishga yo'l qo'yiladi.</p>	<p>95-modda. Ish beruvchining tashabbusi bilan vaqtincha boshqa ishga o'tkazish</p> <p>Ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolinishi munosabati bilan, shuningdek, korrupsiyaning favoritizm, qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik ko'rinishlarini, manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyatlarni bartaraf etish maqsadida xodimni uning roziligisiz vaqtincha boshqa ishga o'tkazishga yo'l qo'yiladi.</p>	<p>Mehnat munosabatlarida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyat yuzaga kelganda, uni bartaraf etish mexanizmi sifatida xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazishga asos bo'ladigan holat sifatida qo'shimcha taklif etilgan normani mehnat qonunchiligiga kiritish lozim.</p>
4.	To'ldirilmoqda	<p>92¹-modda. Xodimni rotatsiya qilish asoslari va tartibi</p> <p>Davlat hokimiyat organlarida muayyan lavozim va mansabni egallab turgan davlat xizmatchilari korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida ish faoliyatida belgilangan muddat</p>	<p>Mehnat qonunchiligida xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish va doimiy boshqa ishga o'tkazish nazarda tutilgan bo'lib, bunga asos sifatida ko'pincha ish hajmi, xodimning salomatligi va boshqa</p>

		<p>o'tganidan so'ng xodimning roziligi talab qilinmagan holda rotatsiya (davlat xizmatchisini boshqa lavozimga yoki boshqa davlat tashkiloti va organining davlat lavozimiga o'tkazish) qilinishi lozim.</p> <p>Rotatsiya qilinishi nazarda tutilgan lavozimlar ro'yxati va rotatsiya amalga oshiriladigan muddatlar hamda tartibi Prezident qarori asosida tasdiqlanadi.</p>	<p>mehnat munosabatlariga oid sabablar nazarda tutilgan, biroq korrupsiya yoki manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida xodimni vaqtincha yoki doimiy boshqa ishga o'tkazishga oid qoidalar mavjud emas. Mehnat kodeksini ushbu modda bilan to'ldirish davlat organi, tashkilotida ishlaydigan xodimni muqim bir lavozim doirasida uzoq vaqt faoliyat yuritishini cheklashga, natijada xodimlar faoliyatida korrupsiyaviy omillar yuzaga kelishini oldini olishga xizmat qiladi.</p>
5.	<p>178-modda. Xodimlarni ularga yuklatilgan mehnat vazifalari bilan tanishtirish</p> <p>Har bir xodim o'ziga yuklatiladigan mehnat vazifalari doirasi bilan oldindan tanishtirilishi lozim.</p>	<p>178-modda. Xodimlarni ularga yuklatilgan mehnat vazifalari bilan tanishtirish</p> <p>Har bir xodim o'ziga yuklatiladigan mehnat vazifalari doirasi, amal qilinishi lozim bo'lgan odob-axloq qoidalari, huquq va majburiyatlari, agarda belgilangan bo'lsa, xizmatni o'tash bilan bog'liq taqiq va cheklovlar bilan tanishtirilishi va bu bo'yicha tilxat olinishi lozim.</p>	<p>Davlat tashkiloti yoki idorasida ishlaydigan shaxslar nafaqat mehnat shartlari, ichki lokal hujjatlarda nazarda tutilgan ish faoliyatiga oid qoidalar, lavozim vazifalari, vakolatlari bilan, balki odob-axloq qoidalari, va eng muhimi, ularga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlar bilan tanishtirilishi lozim. Chunki taqiq va cheklovlarga rozi</p>

			bo'lmagan xodimlar davlat xizmatiga qo'yilmaydi.
O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga			
6.	To'ldirilmoqda	<p>49⁵-modda "Rahbar tomonidan intizomiy javobgarlikka shaxslarga qo'llanilishi bo'lmagan rag'batlantiruvchi choralarni qo'llash, imtiyoz va afzalliklar taqdim etish</p> <p>Rahbar tomonidan odob-axloq qoidalarini, belgilangan taqiq va cheklovlarga oid qoidalarini buzib, intizomiy javobgarlikka tortilgan davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan mukofotlar, rag'batlantiruvchi to'lovlarni amalga oshirish, lavozim va ish haqini oshirish, turli xil imtiyoz va afzalliklar berish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.</p>	<p>Intizomiy huquqbuzarlik sodir etib, javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan rag'batlantiruvchi normalarni qo'llash, imtiyoz va afzalliklar berish, xodimni yana huquqbuzarlik sodir etishiga sharoit yaratib beradi, shaxsda to'liq javobgarlikka tortilmaganlik hissini uyg'otadi. Intizomiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga mazkur normada nazarda tutilgan rag'batlantirishlarni berish davlat mulkini talon-toroj qilishga va jinoyatni yashirishga yo'l ochib berishi mumkin.</p>
7.	To'ldirilmoqda	<p>193⁴-modda. "Rahbar tomonidan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga oid qonun hujjatlarini buzish</p> <p>Rahbar xodim tomonidan o'z vaqtida berilgan xabarga asosan manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlarni ko'rmasligi, kadrlarni ishga</p>	<p>Ma'muriy qonunchilikda manfaatlar to'qnashuviga oid holatga yo'l qo'yganlik uchun umumiy norma asosida javobgarlik belgilangan bo'lib, davlat fuqarolik xizmatida rahbar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi va</p>

		<p>qabul qilishda qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik, mahalliychilikka yo'l qo'ygan bo'lsa, qarindosh-urug'larning davlat korxonasida birga xizmat qilishlarini cheklash to'g'risidagi qoidalarni chetlab, kadrlarni ishga qabul qilgan bo'lsa - bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.</p> <p>Rahbarning qo'l ostida xizmat qiladigan davlat fuqarolik xizmatchilarini muayyan siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishga, o'z vakolatlari va lavozim mavqeidan muayyan siyosiy partiyani qo'llab-quvvatlashda foydalanishga majburlashi, siyosiy faoliyatda faol qatnashishga undashi, qo'l ostidagi davlat fuqarolik xizmatchilariga faoliyati davomida homiylik qilishi (patonaj), favoritizm, guruhbozlikka yo'l qo'yishi - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.</p>	<p>korrupsiyaviy vaziyatlarga yo'l qo'yganligi, ishga qabul qilishdagi noxolis xatti-harakatlar uchun maxsus moddada javobgarlik nazarda tutilmagan. Shu jihatdan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga mazkur toifadagi rahbar tomonidan sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun alohida tartibda jazo tayinlash mexanizmini yo'lga qo'yish lozim.</p>
8.	To'ldirilmoqda	<p>193⁵-modda. "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga oid qonun hujjatlarini buzish</p> <p>Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyat vujudga</p>	<p>Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga rahbar tomonidan hamda xodimlar tomonidan korrupsiyaga va manfaatlar to'qnashuviga oid qoidalarni buzganligi uchun alohida-</p>

	<p>kelishiga yo'l qo'yilishi, yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holat bo'yicha o'z vaqtida rahbarga xabar bermaslik, davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarni buzish, xususan, tadbirkorlik faoliyati bilan noqonuniy shug'ullanish, bir vaqtda bir necha lavozimlarda faoliyat yuritish hamda o'rindoshlik asosida ishlash, yashirin tarzda rahbarni xabardor etmagan holda boshqa haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanish (ilmiy, pedagogik, ijodiy faoliyat bundan mustasno), shuningdek, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan, korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarga rioya qilmayotgan davlat fuqarolik xizmatchilari haqida vaqtida xabar berish majburiyatini bajarmaslik - bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.</p> <p>Zimmasiga mol-mulki haqida deklaratsiya taqdim etish majburiyati yuklatilgan davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan deklaratsiyani uzrli sabablarsiz belgilangan muddatda taqdim etmaslik yoki bila turib yolg'on ma'lumotlardan iborat deklaratsiyani taqdim etish - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima</p>	<p>alohida moddalarda javobgarlikni belgilash odillik prinsiplariga asoslanib jazo qo'llashga xizmat qiladi, ma'lumki, rahbarga xodimdan ko'ra og'irroq jazo tayinlanadi, chunki rahbarning vakolatlari, ma'suliyati, javobgarligi xodimnikidan ko'ra kattaroq bo'ladi. Shu asosda, rahbar va xodim tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilganda alohida-alohida moddalar bilan javobgarlikka tortilishini ta'minlash maqsadida kodeksga ushbu moddani kiritish tavsiya etiladi.</p>
--	--	--

		<p>solishga sabab bo'ladi.</p> <p>O'zbekiston hududidan tashqarida joylashgan xorijiy banklarda hisob raqamlar (depozitlar) ochish, naqd pul va qimmatbaho narsalarni saqlash, chet el moliyaviy mablag'lariga egalik qilish va (yoki) ulardan foydalanishni taqiqlashga oid qoidani buzgan lavozim ro'yxati tasdiqlangan mansabdor shaxslar - bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarimaga tortiladi.</p>	
9.	To'ldirilmoqda	<p>193⁶-modda. Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatga sabab bo'lgan mulkini ishonchli boshqaruvchiga topshirish majburiyatini bajarmaslik</p> <p>Davlat fuqarolik xizmatchisining qimmatli qog'ozlarga (ulushlar, tashkilotlarning ustav (zaxira) kapitalidagi ulushlari), bank omonat jamg'armalariga ega bo'lishi manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan taqdirda, davlat fuqarolik xizmatchisi o'z qimmatli qog'ozlarini (ishtirokchilikdagi ulushlar, tashkilotlarning ustav (zaxira) kapitalidagi ulushlarni) fuqarolik qonunchiligiga muvofiq ishonchli boshqaruvchiga topshirishi kerak bo'lgani holda rahbarning bu bo'yicha topshirig'ini bajarmaslik -</p>	<p>Davlat fuqarolik xizmatchisining xizmatga kirishdan avvalgi qimmatli qog'ozlarga egalik qilishi, bank hisobvaraqlarida omonat jamg'armalarini saqlashi uning xizmat vazifalarini lozim darajada bajarishiga, korrupsiya yoki manfaatlar to'qnashuviga oid holat yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lsa yoki sabab bo'lgan bo'lsa, davlat xizmatchisi mazkur qimmatli qog'ozlarni, bankdagi omonatlarini ishonchli boshqaruvchiga topshirishi lozim. Ushbu talabni bajarmaslik</p>

		bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.	ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqarishi belgilanadi.
10.	To'ldirilmoqda	193 ⁷ -modda. Sobiq davlat fuqarolik xizmatchisining davlat fuqarolik xizmatidan bo'shatilgandan keyin o'rnatilgan cheklovlarga rioya qilmasligi Sobiq davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan xizmatdan bo'shatilgandan so'ng ikki yil ichida tijorat va notijorat tashkilotlaridagi, davlat organi va tashkilotlaridagi mehnat faoliyati haqida mehnat shartnomasi tuzilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida oxirgi ish joyidagi rahbarni xabardor qilish majburiyatini uzrli sabablarsiz bajarmaslik - bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.	“Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonunga davlat xizmatchilari, ayniqsa, katta vakolatlarga ega bo'lgan mansabdor shaxslarga nisbatan davlat xizmatidan bo'shatilganidan so'ng muayyan muddat davomida keyingi mehnat faoliyatiga oid axborot bilan oxirgi ish joyidagi rahbarni xabardor qilish mexanizmini tashkil etish, davlat xizmatchisining oldingi ish joyidagi vakolat va xizmat mavqeidan keyinchalik foydalanishini, manfaatlar to'qnashuviga oid holatlar yuzaga kelishini oldini olishga xizmat qiladi.
O'zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonuniga			
11.	4-modda. Jamoatchilik nazoratining obyekti Davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining: ... ijtimoiy sheriklik doirasida amalga	4-modda. Jamoatchilik nazoratining obyekti Davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining: ... davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan xizmat binosidan tashqari joylarda	Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga, korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlarga qay darajada rioya qilinishi ustidan jamoatchilik

<p>oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati jamoatchilik nazoratining obyektidir.</p>	<p>odob-axloq qoidalariga, qonunchilikda o'rnatilgan korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklolarga qay darajada rioya qilinayotganligi;</p> <p>ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati jamoatchilik nazoratining obyektidir.</p>	<p>nazoratini o'rnatish huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlashga va huquqbuzar shaxslarni javobgarlikka tortishda yordam beradi.</p>
<p>O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga</p>		
<p>12. 3-modda. Asosiy tushunchalar</p> <p>Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:</p> <p>...</p> <p>To'ldirilmoqda</p>	<p>3-modda. Asosiy tushunchalar</p> <p>Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:</p> <p>...</p> <p>Favoritizm (xayrixohlik) - mansabdor shaxs tomonidan fuqarolarga, ularning qarindosh, tanish, do'st ekanligi yoki ijtimoiy, diniy, siyosiy qarashlaridan kelib chiqib noqonuniy imtiyozlar berish, xizmatlar ko'rsatish.</p> <p>Nepotizm – favoritizmning bir ko'rinishi bo'lib, qarindoshlik, oilaviy munosabatlardan kelib chiqib qarindoshlik aloqasida bo'lgan shaxslarga noqonuniy imtiyoz, afzalliklar berish, masalan, ishga qabul, lavozimini oshirishda qonuniy shartlarni chetlab o'tib, qarindoshlik munosabatidagi shaxslarni ishga qabul qilish, lavozim darajasini oshirish kabilar bunga misol bo'ladi. Xuddi shu</p>	<p>"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi" qonunda korrupsiyaning eng keng tarqalgan ko'rinishlariga oid tushunchalar va ularga huquqiy ta'riflar berib o'tilmagan, jumladan, favoritizm, mahalliychilik, davlat xizmatida ma'lum toifa vakillariga rahbar tomonidan ustunlik berish, urug'-aymoqchilik, qarindosh-urug'chilik kabilar davlat hokimiyatida uya qurib olgan korrupsiyaning ko'rinishlari bo'lib, ularga oid rasmiy ta'riflar qonunga kiritilmagan edi, mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida davlat xizmatlari</p>

		<p>imtiyozlar, afzalliklar do'stlarga, hamkasblarga, tanishlarga nisbatan qo'llanilsa, u kronizm deb ataladi.</p> <p>Mahalliychilik – muayyan shaxslarni ularning nasl-nasabi, ajdodlari egallab kelgan lavozimlariga qarab hokimiyat lavozimiga tayinlash tartibi tushuniladi.</p> <p>Urug'-aymoqchilik – davlat hokimiyat organlari tizimini shakllantirish asosi, masalan, muayyan vazirlik tizimida rahbardan tortib davlat xizmatchisigacha qarindoshlik, urug'-aymoqchilik munosabatida bo'lishi bunga misol bo'ladi.</p> <p>Patronaj (homiylilik) – hukumatga kadrlarni ishga qabul qilishda, lavozim darajasini oshirishda, mehnat shartnomasini tuzishda foydalaniladigan homiylilik.</p>	<p>sohasida eng ko'p uchraydigan korrupsiyaning ko'rinishlariga oid maxsus terminlarni "Asosiy tushunchalar"da keltirib o'tish taklif etiladi.</p>
13.	<p>26-modda. Davlat organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar qilish majburiyati</p> <p>Davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biror-bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga</p>	<p>26-modda. Davlat organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar qilish majburiyati</p> <p>Davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biror-bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga barcha hollar to'g'risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan</p>	<p>"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi" qonun 26-moddasida davlat organi xodimi tomonidan boshqa bir xodim korrupsiyaviy huquqbuzarlikka yo'l qo'ygan taqdirda, yoki o'ziga nisbatan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga undash, maburlash holati bo'lganda rahbar yoki huquqni muhofaza qiluvchi organga murojaat</p>

	<p>doir barcha hollar to'g'risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan har qanday faktlari haqida o'z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart.</p>	<p>har qanday faktlari haqida o'z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart.</p> <p>Davlat organi xodimi rahbar tomonidan kadrlarni ishga qabul qilish jarayonida qarindosh-urug'chilik (nepotizm), tanish-bilishchilik (kronizm), mahalliychilik, homiylik qilish (patronaj) kabi holatlarga yo'l qo'yganligi, o'z xizmat faoliyati davomida favoritizm, guruhbozlik, urug'-aymoqchilik kabi salbiy omillarni oldini olmaganligi va ularga yo'l qo'yib berganligi haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi lozim.</p>	<p>qilish kerakligi aytilgan bo'lib, biroq rahbar tomonidan korrupsiya yoki manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganda, ishga qabul qilishda tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, mahalliychilikka yo'l qo'yilganda davlat organi xodimi tomonidan rahbar ustidan huquqni muhofaza qiluvchi organga murojaat qilishi kerakligiga oid normani kiritish tavsiya etiladi.</p>
O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga			
14.	<p>To'ldirilmoqda</p>	<p>205¹-modda. Mansabdor shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan noqonuniy shug'ullanish</p> <p>Qonunchilikda o'rnatilgan taqiqqa qaramay, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin bo'lmagan mansabdor shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotni boshqarishda shaxsan, qarindosh-urug'lari yoki uchinchi shaxslar orqali ishtirok etishi, agar mansabdor shaxs o'z mansab vakolatlaridan foydalangan holda imtiyoz va afzalliklarga ega bo'lgan yoki boshqacha</p>	<p>Qonunchilikda davlat organi va tashkilotlarida ishlaydigan davlat xizmatchilariga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan. Chunki hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan mansabdor shaxslar mansab vakolatlaridan va mavqeidan foydalangan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish vaqtida noqonuniy katta daromadlarga ega bo'lishi,</p>

		<p>shaklda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotga homiylik qilingan bo'lsa, natijada tadbirkorlik faoliyatidan katta foyda olingan bo'lsa, mansabdor shaxs: bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.</p>	<p>raqobatning cheklanishi, monopoliya yuzaga kelishi, iste'molchilarning sifatli tovar va xizmat ko'rsatilishiga bo'lgan huquqlari va manfaatlari buzilishiga, tadbirkorlik subyektiga noqonuniy imtiyoz va preferensiyalar berilishi boshqa tadbirkorlik subyektlarida norozilik kayfiyatini uyg'otishi, tender tanlovlari adolatsiz o'tishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois jinoyat qonunchiligiga ushbu taqiqni buzgan mansabdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha maxsus modda kiritish zarur.</p>
--	--	--	---

“Davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan
o’rnatilgan korrupsiyaga qarshi cheklov va taqiqlar:
qiyosiy-huquqiy tahlil” mavzusidagi
dissertatsiyaga 4-ilova

**TADQIQOT ISHI DOIRASIDA AMALGA OSHIRILGAN IJTIMOIIY
SO’ROVNOMA NATIJALARI**

№	Savollar	Javoblar	%
1	Siz “davlat fuqarolik xizmati” deganda nimani tushunasiz?	1)Prokuratura, sud, ichki ishlar organlari, harbiy xizmat faoliyatini; 2)Oliy Majlis, hokimliklar, xalq deputatlari kengashi faoliyatini; 3)Vazirlik, idora, qo‘mitalar faoliyatini; 4)Bu tushuncha men uchun noma’lum.	5,2% 14,1% 74,1% 6,6%
2	Sizningcha, davlat xizmatlarida eng ko‘p uchraydigan korrupsiyaning ko‘rinishlari qaysilar?	1)Qarindosh-urug‘chilik, tanish-bilishlik; 2)Kundalik hayotda uchraydigan maishiy korrupsiya; 3)Hokimiyat va mansab vakolatlarni suiiste‘mol qilish.	29,6% 58,6% 11,8%
3	Sizningcha, qaysi biri hozirda korrupsiya avj olgan soha hisoblanadi?	1)Sog‘liqni saqlash sohasi; 2)Ta’lim sohasi; 3)Qurilish sohasi; 4)Davlat xaridlari; 5)Boshqalar.	29,3% 38,9% 18,1% 13,7%
4	Siz faoliyat yuritayotgan tashkilotda davlat xizmatchilarining Odob-axloq kodeksi ishlab chiqilganmi?	1)Ha; 2)Yo‘q.	31,5% 68,5%
5	Siz faoliyat yuritayotgan tashkilotda davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq	1)Odob-axloq komissiyasi;	14,3%

	qoidalariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan qanday tuzilma mavjud?	2)Maxsus bo‘lim; 3)Rahbar; 4)Boshqa tuzilma mavjud.	8,2% 67,1% 10,4%
6	Siz faoliyat yuritayotgan tashkilotda davlat xizmatchilariga nisbatan o‘rnatilgan taqiq va cheklovlarning maxsus ro‘yxati keltirilgan ichki lokal hujjat (nizom, buyruq) mavjudmi?	1)Ha; 2)Yo‘q.	28,6% 71,4%
7	Taqiq va cheklovlarga rioya qilmaslik ko‘p hollarda qanday javobgarlikni keltirib chiqaradi?	1)Intizomiy; 2)Ma‘muriy; 3)Jinoiy; 4)Ko‘p hollarda javobgarlikka tortilmay qoladi.	37,7% 5,7% 5,4% 48,8%
8	Rahbar tomonidan davlat xizmatchisiga nisbatan intizomiy javobgarlik belgilanishini qanday baholaysiz?	1)To‘g‘ri deb bilaman, xolisona qaror qabul qilinadi; 2)Noto‘g‘ri, xolislikka putur etadi; 3)Noqonuniy intizomiy javobgarlikka tortish holatlari yuzaga keladi; 4)Xodimni asossiz intizomiy javobgarlikka tortilmay qolishiga olib keladi.	28,6% 58,3% 5,2% 7,9%
9	Davlat xizmatchilariga nisbatan o‘rnatilgan korrupsiyaga qarshi taqiq va cheklovlar ustidan amalga oshiriladigan nazoratning tashkilot doirasidagi ichki tuzilmalarga yuklatilishiga qanchalik qo‘shilasiz?	1)To‘liq qo‘shilaman 2)Qisman qo‘shilaman 3)Qo‘shilmayman	28,3% 57,1% 14,6%
10	Davlat xizmatchilariga nisbatan o‘rnatilgan qaysi turdagi taqiq va cheklov amaliyotda ko‘proq buzilmoqda deb o‘ylaysiz?	1)Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmaslik; 2)Bir vaqtda bir nechta lavozimda faoliyat yuritmaslik; 3)Qarindosh-urug‘larning davlat korxonasida birga xizmat qilishlarini cheklash; 4)o‘z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan biror-bir moddiy boyliklarni olish yoxud jismoniy yoki yuridik shaxslardan boshqacha naf ko‘rishning	42,9% 28,6% 15,2% 13,3%

		taqiqlanishi.	
11	Siz faoliyat yuritayotgan tashkilotda korrupsiyaga qarshi qaratilgan qoidalarni buzgan va intizomiy javobgarlikka tortilgan davlat xizmatchilarining statistikasi yuritiladimi?	1)Ha, bu bo'yicha maxsus tuzilma mavjud; 2)Yo'q, bu bo'yicha maxsus tuzilma mavjud emas.	32,8% 67,2%
12	Siz faoliyat yuritayotgan tashkilotda intizomiy javobgarlikka tortilgan davlat xizmatchilariga rag'batlantiruvchi to'lovlar, mukofotlar, imtiyozlar berish kabi holatlar kuzatilyaptimi?	1)Ha; 2)Yo'q; 3)Bundan xabarim yo'q.	57,1% 14,3% 28,6%
13	Siz faoliyat yuritayotgan tashkilotning ichki lokal hujjatlarida muayyan turdagi taqiq va cheklovlar buzilsa, unga nisbatan intizomiy chora sifatida xizmatdan bo'shatish qo'llanilishi mumkin bo'lgan holatlar ro'yxati keltirilganmi?	1)Ha; 2)Yo'q.	42,9% 57,1%
14	Siz faoliyat yuritayotgan tashkilotda davlat xizmatchisi tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishi, bir vaqtda bir nechta lavozimda faoliyat yuritishi kabi holatlarga duch kelyapsizmi?	1)Ha; 2)Yo'q; 3)Bundan xabarim yo'q.	42,9% 28,6% 28,6%
15	Sizningcha, yuqorida nazarda tutilgan taqiq va cheklovlarni buzgan shaxslar javobgarlikka tortilyaptimi?	1)Ha, bu bo'yicha samarali mexanizm mavjud; 2)Yo'q, ular ustidan nazorat o'rnatilmagan, qoidani buzgan shaxslar javobgarlikka tortilmay qolmoqda.	42,9% 57,1%
16	Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari, jumladan, davlat xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan taqiq va cheklovlarga rioya qilinishi ustidan prokuror nazoratini joriy etishga qanday munosabat bildirasiz?	1)Samarali mexanizm deb hisoblayman; 2)Menimcha, joriy mexanizmning o'zi etarli; 3)Javob berishim qiyin.	57,1% 28,6% 14,3%